различных этапах ее истории, а также "ментальное пространство" русского человека. Учебные материалы способствуют пониманию особенностей русского самосознания в контексте художественной культуры. Формирование лингвокультурологической компетенции предполагает работу с различными национально-культурными единицами, представляющими значительную сложность для иностранных учащихся в силу их насыщенности знаниями о национальной культуре. Для формирования в языковом сознании студента когнитивно-культурного пространства, необходимого для межкультурного диалога, особое внимание уделяется работе с лингвокультурами. Под лингвокультуремой В.В. Воробьев понимает «диалектическое единство лингвистического и экстралингвистического (понятийного и предметного) содержания», включающее в себя языковое значение и культурный смысл. В качестве учебно-речевых единиц, используемых в пособии, можно выделить следующие:

**1. Безэквивалентная лексика**, отражающая реалии русской действительности, не имеющие прямых аналогов в культуре и языковой системе иностранного учащегося: --Названия предметов и явлений материальной и духовной культуры (например, изба, косоворотка, сарафан, блины, баранки, наличники, красный угол, частушки, масленица, бородинский хлеб, лубок и др.).

-Историзмы, обозначающие ушедшие в прошлое явления (например, крестьянская община, крепостное право, татаро-монгольское иго, славянофилы, народники, декабристы, боярин, воевода, сталинская эпоха и др.).

-Советизмы, связанные с советским периодом истории (например, номенклатура, диссиденты, самиздат, тамиздат, подпольное искусство, культ личности, спецпереселенцы, кулак, ГУЛАГ и др.).

-Фольклорная лексика (например, царь-батюшка, добрый молодец, богатырь, домовый, баба-яга, леший и др.).

-Неологизмы и речевые новообразования (например, брежневская эпоха, постсоветское пространство, перестройка, постперестроечный период, совок, новый русский и др.).

-Фразеологические единицы (например, бить в набат, работать спустя рукава, нарушить слово, взять в свои руки, кануть в вечность, до последней капли крови, во всю ширь и др.).

**2. Неполноэквивалентная (фоновая) лексика** – слова, значения которых частично совпадают и частично различаются в своих коннотативных компонентах (например, север, юг, запад, восток, регион, столица, провинция, университет, колокол, рубашка и др.).

**3. Паремии** (например, Русский час долог; Россия – страна с непредсказуемым прошлым; Русский человек задним умом велик; Москва слезам не верит; Что русскому здорово, то немцу смерть и др.).

**4. Цитаты и крылатые выражения** (например, Родина-мать зовет; Жить по правде; Умом Россию не понять; О светло светлая и красно украшенная земля Русская! О великий, могучий, правдивый и свободный русский язык! и др.).

**5. Национально зафиксированные символы** (например, мать-земля, хлеб-соль, бесик, триколор, Кремль, Царь-колокол, Лобное место, Куликово поле и др.).

**6. Лингвокультурные концепты**, относящиеся к числу единиц ментальности и отражающие национальный характер (например, общинность, воля, свобода, честь, дом, труд, богатство, бедность, власть, любовь, семья, счастье, страдание, красота, страх, насилие). Как отмечает Ю.С. Степанов, концепт существует в сознании человека не в форме четких дефиниций, а представляет собой «пучок» представлений, понятий, знаний, ассоциаций и переживаний. В.З. Демьянков подчеркивает, что при обучении иностранным языкам мы исходим из предположения о наличии схожих концептов в разных культурах, однако их содержание и интерпретация могут существенно различаться. Концепты русской культуры рассматриваются в пособии не изолированно, а в рамках общей системы работы. В связи с тем, что национально-культурные единицы выступают одновременно как знаки реалий и единицы языка, они требуют особого внимания. Их культурная семантика, формирующаяся на пересечении языка и культуры, раскрывается через этимологический анализ, толкование на русском и английском языках, объяснение в контексте текста,

культурологический комментарий, анализ способов употребления, словообразовательное гнездо и сочетаемость. Важной составляющей методического аппарата является визуальная наглядность, используемая для семантизации и активизации национально-культурных единиц. Иллюстрации картин русских художников, фотографии, отражающие реалии российской действительности, рисунки и плакаты служат в пособии в качестве визуальных стимулов и опор, отражающих существенные аспекты лексического фона.

Сочетание лексического значения с визуальным образом способствует формированию лингвокультурологической компетенции.

### Литература

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. М., 1986
2. Воркачев С.Г. Постулаты лингвоконцептологии. Антология концептов. М., 2007.
3. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). М., 1997.
4. Воробьев В.В. О статусе лингвокультурологии. Материалы IX Конгресса МАПРЯЛ. Доклады и сообщения российских ученых. Братислава. 1999.
5. Государственные образовательные стандарты высшего профессионального образования (ГОС ВПО). М., 2005
6. Демьянков В.З. Термин "концепт" как элемент терминологической культуры. //Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н. Ю. Шведовой М., 2007. [http://infolex.ru/FOR\\_SHV.HTM](http://infolex.ru/FOR_SHV.HTM)
7. Nikolayevna, R. N., & Baymuradovna, B. S. (2020). Designing and realization of system of organizing independent work of students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(4), 471-479.
8. Николаевна, РН (2024). Оцифровка классического литературного наследия: доступность, восприятие и интерпретация новым поколением. *Журнал актуальных исследований филологических наук*, 5 (03), 38-45.
9. Убайдова Д. А., Абулова М. О. Использование метода кейс-стади на занятиях русского языка для иностранцев //Актуальные проблемы русистики: взгляд молодых. – 2021. – С. 158-162.
10. Убайдова Д. А., Исмаилова Х. Актуальные проблемы лингводидактики //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 3-7. – С. 203-208.
11. Болтаева, М. Ш. (2024). Изучение грамматики в контексте является важным аспектом обучения иностранному языку. *International scientific journal: learning and teaching*, 1(3), 143-146.
12. Boltaeva Mahbuba Sharipovna Studying of a propaedeutic course of the Russian literature in a context of the theory of intercultural communications // *Academy*. 2020. №4 (55). URL

## RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI



**Dilova Nargiza Gaybullayevna**  
*Buxoro davlat universiteti professori,  
pedagogika fanlari doktori (DSc),  
Buxoro shahri*



**Hakimova Nargiza Supxanovna,**  
*Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti (PhD), Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari kompleks tarzda o'rganilgan bo'lib, raqamli kompetensiyalarning kasbiy mahorat tarkibidagi o'rni, kompetensiyaga asoslangan yondashuvning pedagogik ahamiyati hamda ta'lim jarayonida onlayn platformalar, gamifikatsiya, simulatsiya va sun'iy intellekt kabi innovatsion vositalarning samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada raqamli rivojlanish yo'llanmasi konsepsiyasi asosida kasbiy ta'lim tizimlarini modernizatsiya qilishga doir strategik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**MAQSAD:** Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlarini ilmiy pedagogic tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Global iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga, xususan, kasbiy faoliyat va ta'lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, 4.0 sanoat inqilobi, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va virtual haqiqat kabi texnologiyalar zamonaviy kasb egalaridan mutlaqo yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o'rganishda tizimli yondashuv, interdisiplinar tahlil va innovatsion ta'lim metodologiyalaridan foydalanish talab etiladi.

**XULOSA:** Raqamli transformatsiya inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib borar ekan, bu jarayon ayniqsa kasbiy rivojlanish va mehnat bozori uchun tubdan o'zgarishlar olib keldi. An'anaviy kasbiy tayyorgarlik uslublari bugungi kunda zamonaviy ish sharoitlariga to'liq javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli kasbiy mahoratni zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va uzluksiz ta'lim tamoyillari asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Kasbiy mahorat endilikda faqat bilim va amaliy ko'nikmalardan iborat bo'lib qolmay, balki shaxsning raqamli muhitda ishlashga tayyorgarligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyati, ijodiy yondashuvi va hayot davomida o'rganishga bo'lgan intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan ta'lim modullari, onlayn platformalar va interaktiv vositalar bu borada yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, kasbiy mahorat, innovatsion yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar, kasbiy ta'lim, ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, o'qitish metodikasi.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

**Дилова Наргиза Гайбуллаевна**  
*Профессор Бухарского государственного университета, доктор педагогических наук (DSc), город Бухара*

**Хакимова Наргиза Супхановна,**  
*доцент (PhD) Бухарского государственного педагогического института, г. Бухара*

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье комплексно изучаются инновационные подходы к развитию профессиональных навыков в условиях цифровой трансформации, анализируется роль цифровых компетенций в структуре профессиональных навыков, педагогическая значимость компетентностного подхода, эффективность инновационных инструментов, таких как онлайн-платформы, геймификация, моделирование, искусственный интеллект в образовательном процессе. В статье также разрабатываются стратегические рекомендации по модернизации систем профессионального образования на основе концепции направления цифрового развития.

**ЦЕЛЬ:** Научно-педагогический анализ инновационных подходов к развитию профессиональных навыков в условиях цифровой трансформации

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В условиях глобальных экономических и социальных трансформаций цифровые технологии глубоко проникают во все сферы нашей жизни, в частности, в профессиональную деятельность и систему образования. В частности, такие технологии, как промышленная революция 4.0, искусственный интеллект, автоматизированные системы управления, большие данные, облачные технологии, виртуальная реальность требуют от современных специалистов совершенно новых компетенций. Поэтому актуальной проблемой стало развитие профессиональных навыков в условиях цифровой трансформации. Научное изучение этого вопроса требует системного подхода, междисциплинарного анализа и использования инновационных образовательных методик.

**ВЫВОД:** Поскольку цифровая трансформация проникает во все аспекты человеческой деятельности, этот процесс внес кардинальные изменения, особенно для профессионального развития и рынка труда. Традиционные методы профессиональной подготовки сегодня не могут в полной мере соответствовать современным условиям труда. Поэтому актуальной проблемой стало формирование профессиональных навыков на основе современных технологий, инновационных подходов и принципов непрерывного образования. Профессиональные навыки теперь состоят не только из знаний и практических навыков, но и тесно связаны с готовностью человека к работе в цифровой среде, умением принимать самостоятельные решения в проблемных ситуациях, его творческим подходом и желанием учиться на протяжении всей жизни. Образовательные модули, онлайн-платформы и интерактивные инструменты, разработанные на основе цифровых технологий, создают новые возможности в этом плане.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, профессиональные навыки, инновационные подходы, цифровые компетенции, профессиональное образование, образовательные технологии, компетентностное образование, методика обучения.

## INNOVATIVE APPROACHES TO PROFESSIONAL SKILLS DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

**Dilova Nargiza Gaybullayevna**  
*Professor, Bukhara State University, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Bukhara city*

**Khakimova Nargiza Supkhanovna,**  
*Associate Professor (PhD) of Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara city*

**Annatation.**

**INTRODUCTION:** The article comprehensively studies innovative approaches to the development of professional skills in the context of digital transformation, analyzes the role of digital competencies in the structure of professional skills, the pedagogical significance of the competency-based approach, and the effectiveness of innovative tools such as online platforms, gamification, simulation, and artificial intelligence in the educational process. The article also develops strategic recommendations for the modernization of vocational education systems based on the concept of the digital development direction.

**GOAL:** Scientific pedagogical analysis of innovative approaches to the development of professional skills in the context of digital transformation

**MATERIALS AND METHODS:** In the context of global economic and social transformations, digital technologies are deeply penetrating all spheres of our lives, in particular, the professional activity and education system. In particular, technologies such as the 4.0 industrial revolution, artificial intelligence, automated control systems, big data, cloud technologies, and virtual reality require completely new competencies from modern professionals. Therefore, the development of professional skills in the context of digital transformation has become an urgent issue. The scientific study of this issue requires a systematic approach, interdisciplinary analysis and the use of innovative educational methodologies.

**CONCLUSION:** As digital transformation penetrates all aspects of human activity, this process has brought fundamental changes, especially for professional development and the labor market. Traditional methods of professional training today cannot fully meet modern working conditions. Therefore, the formation of professional skills based on modern technologies, innovative approaches and principles of continuous education has become an urgent issue. Professional skills now consist not only of knowledge and practical skills, but are also closely related to a person's readiness to work in a digital environment, the ability to make independent decisions in problem situations, his creative approach and the desire to learn throughout life. Educational modules, online platforms and interactive tools developed on the basis of digital technologies are creating new opportunities in this regard.

**Keywords:** digital transformation, professional skills, innovative approaches, digital competencies, vocational education, educational technologies, competency-based education, teaching methodology.

**XXI** asr boshidan boshlab dunyo miqyosida texnologik o'zgarishlar misli ko'rilmagan sur'atda rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt, robototexnika, bulutli texnologiyalar, Internet of Things (IoT), katta ma'lumotlar (big data) va boshqa raqamli yechimlarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha jabhalariga, xususan, mehnat bozori va ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat "raqamli transformatsiya" atamasi bilan ifodalanadi va bugungi kunda nafaqat texnologik jarayon, balki global ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida qaralmoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u mavjud kasblar tarkibiga ta'sir qilibgina qolmay, balki butunlay yangi kasbiy yo'nalishlarni paydo qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud kasblarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislardan yangi ko'nikmalar va zamonaviy kompetensiyalarni talab qilmoqda. Bu o'zgarishlar kasbiy tayyorgarlik tizimiga yangicha qarashni, an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion metodlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Bugungi mehnat bozori shiddat bilan o'zgarib borar ekan, har bir shaxsdan zamon bilan hamnafas bo'lish, o'z kasbiy salohiyatini doimiy yangilab borish, yangi texnologiyalarni o'zlashtira olish va raqamli savodxonlik darajasini doimiy oshirib borish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kasbiy mahoratni rivojlantirish endi bir martalik emas, balki uzluksiz, dinamik va moslashuvchan o'quv jarayoniga aylanmoqda. Ayniqsa, "hayot davomida o'qish" (lifelong learning) konsepsiyasi bugungi raqamli davrda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion yondashuvlar, xususan, onlayn o'quv platformalari (Coursera, EdX, Udemy kabi), raqamli treninglar, interaktiv simulyatsiyalar, VR (virtual reality) va AR (augmented reality) texnologiyalaridan foydalanish orqali kasbiy tayyorgarlik jarayonini yanada moslashuvchan va individuallashtirilgan shaklda tashkil etish

imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modelining joriy etilishi orqali o'quvchi yoki xodimning real kasbiy salohiyatiga e'tibor qaratish imkoniyati ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2025 yillarga mo'ljallangan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi doirasida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy kasb-hunar maktablarini tashkil etish, IT yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu esa mamlakatda raqamli transformatsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ta'limiy va ijtimoiy jihatlari ham izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Shunday ekan, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirish — bu nafaqat dolzarb vazifa, balki milliy raqobatbardoshlik, innovatsion taraqqiyot va zamonaviy fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim asosidir. Ushbu maqolada aynan raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari, ularning afzalliklari, joriy etilish mexanizmlari hamda mavjud muammolar tahlil etiladi.

Global iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga, xususan, kasbiy faoliyat va ta'lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, 4.0 sanoat inqilobi, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), bulutli texnologiyalar va virtual haqiqat kabi texnologiyalar zamonaviy kasb egalaridan mutlaqo yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shu sababli, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Mazkur masalani ilmiy jihatdan o'rganishda tizimli yondashuv, interdisiplinar tahlil va innovatsion ta'lim metodologiyalaridan foydalanish talab etiladi.

- Tizimli tahlil — kasbiy mahoratni tashkil etuvchi asosiy komponentlar (bilim, ko'nikma, kompetensiya) hamda ularning raqamli transformatsiya sharoitida o'zaro ta'sirini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

- Komparativ (taqqoslama)— an'anaviy va zamonaviy ta'lim yondashuvlarini solishtirish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish orqali innovatsion yondashuvlarning afzalliklarini aniqlashga xizmat qildi.

- Empirik (so'rovnoma, intervyu, kuzatuv) — raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishda mehnat bozorida turli kasb egalari duch kelayotgan real muammolarni aniqlash uchun qo'llanildi.

- Model yaratish— zamonaviy kasbiy rivojlanish tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida shakllantirishga doir konseptual model ishlab chiqishga asos bo'ldi.

- Statistik tahlil — ta'limda raqamli vositalardan foydalanish darajasi, onlayn kurslarga qatnashish ko'rsatkichlari, raqamli savodxonlik bo'yicha xalqaro reytinglar kabi faktik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun foydalanildi.

Mavzuni ilmiy jihatdan o'rganishda zamonaviy nazariyalar, jumladan konnektivizm, uzluksiz o'qish nazariyasi (lifelong learning), kompetensiyalarga asoslangan yondashuv, raqamli pedagogika va transformatsion ta'lim nazariyasi asosiy tayanch kontsepsiyalar sifatida qabul qilindi. Bu yondashuvlar kasbiy rivojlanishning yangi paradigmalarni anglash va raqamli transformatsiya davridagi mehnat bozorining ehtiyojlariga mos yechimlar ishlab chiqish imkonini berdi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi, “Yoshlar – 1+1” dasturi va boshqa davlat dasturlarining tahlili asosida milliy kontekstdagi raqamli transformatsiyaning o'ziga xos jihatlari ochib berildi.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirishga yondashishda faqat texnik omillar emas, balki innovatsion ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish metodlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kasb-hunar ta'limi tizimida, oliy ta'lim muassasalarida, ishchi-xodimlar malakasini oshirish dasturlarida va individual kasbiy rivojlanish rejalari tuzishda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Ushbu ilmiy tadqiqot raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirishning zamonaviy va innovatsion yondashuvlarini o'rganishga bag'ishlandi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlillar, empirik kuzatishlar va metodologik asoslar negizida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

### 1. Raqamli transformatsiyaning kasbiy mahorat tarkibiga ko'rsatuvchi ta'siri

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahorat nafaqat an'anaviy bilim va amaliy ko'nikmalar majmuasini anglatadi, balki raqamli kompetensiyalar, moslashuvchanlik, mustaqil o'qish qobiliyati va ko'p funktsiyali texnologiyalar bilan ishlash kabi komponentlar bilan boyiydi. Kasbiy mahorat endilikda statik holat emas, balki doimiy rivojlanadigan, raqamli muhitga moslashuvchan tizim sifatida talqin qilinmoqda.

## **2. Kasbiy mahoratni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar turlari va samaradorligi**

Tahlil natijasida kasbiy malakani rivojlantirishga xizmat qiluvchi quyidagi innovatsion yondashuvlar ajratib ko'rsatildi:

- Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish (Coursera, EdX, Udemy, Khan Academy va boshqalar);
- Gamifikatsiya va simulyatsiya metodlari – murakkab ish muhitlarini virtual tarzda o'rgatish orqali kasbiy ko'nikmalarni kuchaytirish;
- MOOC (Massive Open Online Courses) orqali ommaviy va ochiq o'quv resurslaridan foydalanish;
- Sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari yordamida individual o'quv yo'llarini shakllantirish;
- Hayot davomida o'qish (lifelong learning) konsepsiyasi asosida shaxsiy rivojlanish strategiyalarini tuzish.

Tadqiqot davomida ushbu yondashuvlarning samaradorligi so'rovnomalar, fokus-guruhlar va kuzatuv metodlari orqali baholanib, ularning aksariyati an'anaviy usullarga qaraganda yuqori motivatsiya va tezroq natija berishi aniqlangan.

## **3. Kompetensiyalarga asoslangan kasbiy rivojlanish modeli**

Ilmiy tadqiqotda zamonaviy mehnat bozori talablari va raqamli transformatsiya sharoitida kompetensiyalarga asoslangan yondashuv asosida kasbiy mahoratni baholash va rivojlantirish modeli taklif qilindi. Bu modelda quyidagi yo'nalishlar asosiy o'rin egalladi:

- Asosiy texnik va raqamli ko'nikmalar (ICT savodxonligi, texnik moslashuvchanlik);
- Kognitiv va ijtimoiy kompetensiyalar (tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatda qaror qabul qilish, jamoada ishlash);
- O'z-o'zini boshqarish va individual rivojlanish kompetensiyalari (tashabbuskorlik, vaqtni boshqarish, mustaqil o'qish);
- Moslashuvchan ta'lim yo'llari – an'anaviy, onlayn va aralash ta'limning kombinatsiyalangan shakllari.

Mazkur model, ayniqsa, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va malaka oshirish tizimlarida amaliyotga tadbiiq etilishi mumkin bo'lgan amaliy vosita sifatida taklif etiladi.

## **4. Raqamli transformatsiyaga mos kasbiy rivojlanish strategiyasi**

Kasbiy tayyorgarlik va professional rivojlanishga zamonaviy yondashuvda quyidagi tamoyillar asosiy strategik yo'nalishlar sifatida aniqlab berildi:

- Uzluklilik – kasbiy o'sishning bosqichma-bosqich, doimiy davom etishi;
- Moslashuvchanlik – mehnat bozorida o'zgaruvchan ehtiyojlarga tez javob qaytarish;
- Individuallashtirish – har bir shaxsga mos o'qitish yo'nalishini shakllantirish;
- Integratsiya – ta'lim, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarining uzviy bog'liqligini ta'minlash.

Bu strategiya asosida kasbiy mahoratni raqamli vositalar orqali uzluksiz rivojlantirish imkonini beruvchi "raqamli rivojlanish yo'llanmasi" (Digital Skills Roadmap) konsepsiyasi ishlab chiqildi.

## **5. Milliy va xalqaro tajribalar asosida takliflar**

Rivojlangan davlatlar (Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Estoniya) ta'lim tizimlarining tahlili asosida O'zbekiston sharoitida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Raqamli pedagogika tamoyillarini kasb-hunar ta'limi tizimiga tatbiq etish;
- Ta'lim muassasalarida raqamli kompetensiyalarni baholash bo'yicha mustaqil reyting tizimlarini joriy etish;
- O'qituvchilar va trenerlar uchun raqamli metodikani o'qituvchi tayyorlash dasturlariga kiritish;

- Ixtisoslashtirilgan raqamli o'quv markazlari tashkil etish.

Zamonaviy ta'lim va mehnat bozori sharoitida raqamli transformatsiyaning kasbiy rivojlanish jarayonlariga ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi an'anaviy kasbiy tayyorgarlik tizimlarini qayta ko'rib chiqishni, mavjud metodlar va mazmuni zamon talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu sharoitda kasbiy mahorat tushunchasi yangicha mazmun kasb etib, faqat nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar bilan cheklanmasdan, keng kompetensiyalar majmuasini o'z ichiga oladigan ko'p qatlamli tizim sifatida qaralmoqda. Innovatsion yondashuvlar, jumladan, onlayn ta'lim platformalari, aralash ta'lim, sun'iy intellekt asosidagi o'quv tizimlari va interaktiv simulyatsiyalar kasbiy mahoratni rivojlantirishda sezilarli natijalar berayotganini kuzatish mumkin. Biroq bu yondashuvlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Aynan shu jihatlar orqali innovatsion metodlar an'anaviy yondashuvlardan ustun keladi. Kasbiy mahoratni shakllantirishda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modelining afzalligi shundaki, u o'quvchi yoki xodimning real ish faoliyatiga yaqin bo'lgan muammoli vaziyatlarda qanday harakat qilish salohiyatini baholaydi. Bu esa bilimdan ko'ra faoliyatga tayyorgarlikni birinchi o'ringa qo'yadi. Raqamli transformatsiya sharoitida bunday yondashuv ayniqsa muhim, chunki zamonaviy kasblarda bilim tez eskiradi, lekin yangilanishga tayyorlik — doimiy ehtiyoj sifatida qoladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli savodxonlik, axborotni tahlil qilish qobiliyati, jamoada masofaviy ishlash, o'z-o'zini boshqarish va shaxsiy rivojlanishga doimiy intilish kabi kompetensiyalar zamonaviy kasbiy mahoratning ajralmas tarkibiy qismlariga aylangan. Bu esa o'qitish jarayonida faqat bilim berish emas, balki o'rgatishni, ya'ni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni shakllantirishni taqozo etadi. Muhokama davomida aniqlangan muhim masalalardan biri – raqamli transformatsiyaning o'zi turli qatlamdagi muammolarni ham yuzaga chiqarayotganidir. Jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi tengsizlik, raqamli vositalarni boshqarishdagi metodik kamchiliklar, o'qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmasligi bu jarayonning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning ustiga, ba'zi ta'lim muassasalarida raqamli yondashuvlar faqat formal darajada, ya'ni texnologiyalar mavjud, biroq ulardan samarali foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda. Shu sababli, kasbiy mahoratni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon — murakkab pedagogik, tashkiliy va ijtimoiy o'zgarishlarni talab etadi. Eng muhimi, o'quvchi va mutaxassislarining raqamli transformatsiyaga psixologik tayyorligi, o'z ustida ishlashga bo'lgan ichki motivatsiyasi va yangilikka ochiqligi aniqlovchi omil bo'lib qolmoqda.

Natijada, raqamli transformatsiya davrida kasbiy mahoratni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar nafaqat zaruriyat, balki yagonalik darajasiga ko'tarilmoqda. Ammo bu yondashuvlarning muvaffaqiyati ularni puxta rejalashtirish, pedagogik jihatdan asoslash va amaliyotga uzviy integratsiya qilishga bog'liq.

Raqamli transformatsiya inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib borar ekan, bu jarayon ayniqsa kasbiy rivojlanish va mehnat bozori uchun tubdan o'zgarishlar olib keldi. An'anaviy kasbiy tayyorgarlik uslublari bugungi kunda zamonaviy ish sharoitlariga to'liq javob bera olmay qolmoqda. Shu sababli kasbiy mahoratni zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va uzluksiz ta'lim tamoyillari asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Kasbiy mahorat endilikda faqat bilim va amaliy ko'nikmalardan iborat bo'lib qolmay, balki shaxsning raqamli muhitda ishlashga tayyorgarligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyati, ijodiy yondashuvi va hayot davomida o'rganishga bo'lgan intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan ta'lim modullari, onlayn platformalar va interaktiv vositalar bu borada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo ularning samaradorligi faqat texnik vositalar mavjudligi bilan emas, balki ular to'g'ri metodik asosda qo'llanilishiga, o'quvchi va o'qituvchining raqamli madaniyat darajasiga va ta'lim mazmunining real ehtiyojlarga mosligiga bog'liq. Maqola davomida olib borilgan tahlillar shuni anglatadiki, raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy mahoratni rivojlantirish uchun faqat texnologiyalarni joriy qilish yetarli emas; bu – kompleks, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va barqaror metodik yondashuvlarni talab qiladigan

uzluksiz pedagogik jarayondir. Shu boisdan, raqamli davrga mos kasbiy tayyorgarlik tizimini yaratish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning ustuvor vazifasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedov, B. A., & Turaev, N. A. (2021). *Raqamli transformatsiya sharoitida kasbiy ta'limning yangi shakllari va innovatsion yondashuvlar*. Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti ilmiy ishlari, 3(14), 45–58.
2. Karimov, S. R. (2020). *Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida kasbiy mahoratni rivojlantirish metodologiyasi*. O'zbekiston ta'lim tizimi, 2(9), 22–37.
3. Mamatqulov, E. M. (2019). *Kasbiy tayyorgarlikda raqamli vositalarni samarali qo'llash*. O'zbekiston Respublikasi Fan va ta'lim jurnali, 4(12), 68–79.
4. Nig'matov, J. S. (2022). *Innovatsion ta'lim tizimlarida raqamli transformatsiyaning roli*. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, 1(7), 14–27.
5. *O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Kasbiy ta'limda raqamli transformatsiya strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi matbuoti. (pp. 10–45)*

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Dilova Nargiza Gaybullayevna**

Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Hakimova Nargiza Supxanovna,**

Buxoro davlat pedagogika institute dotsenti (PhD)

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

## OLIV TA'LIM TALABALARIDA PRAGMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSONOMIYASI INTEGRATSIYASI



**Mustafayeva Nilufar Ulashovna**  
*Termiz davlat universiteti, Termiz shahri*

### **Annatatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rgatishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati va Blum taksonomiyasi, asoschisi Benjamin Bloom nazariyasi haqidagi ilmiy fikrlar atroflicha muhokama qilindi. Pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda ilmiy muloqot shakllari, to'g'ri ilmiy muloqotga kirisha olish, Blum taksonomiyasining integratsiyasi orqali ilmiy pragmatic muloqot shakllarini rivojlantirish muhokama qilindi. Taksonmiya darajalari, darajalarga muvofiq savol turlarida foydalanish ilmiy muloqotni shakllantiruvchi nutqiy aktlarning pragmatik kompetensiyani takomillashuviga xizmat qilishi ilmiy o'rganildi.

**MAQSAD:** Oliy ta'lim talabalarida pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda blum taksonomiyasi integratsiyasini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Taksonomiyaning bosqichlarini kengroq tahlil qilsak, *bilish* - dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarini, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstrakt bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. Mazkur darajada talabalarining fikrlashi past bo'ladi. *Tushunish* - darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi, mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Mazkur bosqichda talaba axborotni "o'z so'zlari bilan", qisqacha tavsif qila oladi.

**XULOSA:** Umuman aytganda, kommunikativ kompetensiyaning tarkibiga kiruvchi pragmatik kompetensiyani rivojlantirish tilning C1 darajada produktiv va reseptiv nutqiy ko'nikmalarining rivojlanganligini kafolatlaydi. Ayniqsa bunda ilmiy muloqot shakllarini tushunish, aniq va to'g'ri ishlata olish qobiliyatining rivojlanganligini tekshirish taksonomiya bosqichlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan o'quv materiallari xorijiy tilni tezroq o'zlashtirishdan tashqari, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda ham ulkan hissasini qo'shadi.

**Kalit so'zlar:** taksonomiya, Blum, pragmatika, kommunikativ kompetensiya, til o'rgatish, nutqiy aktlar, etiket.

## ИНТЕГРАЦИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В РАЗВИТИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

**Мустафаева Нилюфар Улашовна**  
*Термезский государственный университет, г. Термез*

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье подробно рассматривается важность развития прагматической компетенции в обучении иностранным языкам, научные идеи о таксономии Блума, теория ее основателя Бенджамина Блума. Обсуждалось развитие форм научной коммуникации в развитии прагматической компетенции, умение вести корректную научную

коммуникацию, а также развитие форм научной прагматической коммуникации посредством интеграции таксономии Блума. Использование уровней таксономии и типов вопросов в соответствии с уровнями способствовало совершенствованию прагматической компетенции в речевых актах, формирующих научную коммуникацию.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ интеграции таксономии BLUMA в развитие прагматической компетентности у студентов высших учебных заведений

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Если проанализировать этапы таксономии в более широком плане, то знание — это начальный уровень мышления, на котором студент знает, помнит, повторяет термины, конкретные правила, понятия, факты, критерии, направления, категории, классификации, а также абстрактные знания: принципы, аксиомы, теоремы, обобщенные идеи, структуры и т. д., и может описывать события произведения. На этом уровне мышление студентов находится на низком уровне. При мышлении на уровне понимания студент понимает, может реконструировать, изменять факты, правила, рисунки, таблицы и может прогнозировать будущие последствия на основе имеющейся информации. На этом этапе студент может кратко описать информацию «своими словами».

**ВЫВОД:** В целом развитие прагматической компетентности, которая является частью коммуникативной компетентности, гарантирует развитие продуктивных и рецептивных языковых навыков на уровне C1. В частности, развитие способности понимать научные формы общения, четко и правильно их использовать отражается в этапах таксономии. Таким образом, учебные материалы, основанные на таксономии Блума, помимо более быстрого овладения иностранным языком, вносят также существенный вклад в развитие прагматической компетенции.

**Ключевые слова:** таксономия, Блум, прагматика, коммуникативная компетенция, обучение языку, речевые акты, этикет.

## INTEGRATION OF BLOOM'S TAXONOMY IN DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION STUDENTS

**Mustafayeva Nilufar Ulashovna**  
*Termez State University, Termez city*

### **Annatation.**

**INTRODUCTION:** This article discusses in detail the importance of developing pragmatic competence in teaching foreign languages, the scientific ideas about Bloom's taxonomy, the theory of its founder Benjamin Bloom. The development of forms of scientific communication in the development of pragmatic competence, the ability to engage in correct scientific communication, and the development of forms of scientific pragmatic communication through the integration of Bloom's taxonomy were discussed. The use of taxonomy levels and question types in accordance with the levels served to improve pragmatic competence in speech acts that form scientific communication.

**GOAL:** Scientific analysis of the integration of Bloom's taxonomy in the development of pragmatic competence in higher education students

**MATERIALS AND METHODS:** If we analyze the stages of the taxonomy in a broader way, knowledge is the initial level of thinking, in which the student knows, remembers, repeats terms, specific rules, concepts, facts, criteria, directions, categories, classifications, as well as abstract knowledge: principles, axioms, theorems, generalized ideas, structures, etc., and can describe the events of the work. At this level, students' thinking is low. When thinking at the level of understanding, the student understands, can reconstruct, change facts, rules, drawings, tables, and can

predict future consequences based on available information. At this stage, the student can briefly describe the information "in his own words.

**CONCLUSION:** In general, the development of pragmatic competence, which is part of communicative competence, guarantees the development of productive and receptive language skills at the C1 level. In particular, the development of the ability to understand scientific forms of communication, to use them clearly and correctly is reflected in the taxonomy stages. Thus, educational materials based on Blum's taxonomy, in addition to faster mastery of a foreign language, also make a significant contribution to the development of pragmatic competence.


**Keywords:** taxonomy, Blum, pragmatics, communicative competence, language teaching, speech acts, etiquette.

Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion texnologiya va yondashuvlardan foydalanish o'zining sezilarli natijlarini ko'rsatmoqda. Xuddi shunday texnologiyalardan biri Blum taksonomiyasidir, mazkur taksonomiyaning oltita darajalaridan til o'qitish tizimida samarali foydalanish muhimdir. Pragmatik kompetensiyaning ilmiy muloqot shakllarini va bunda yuqori kurs talabalarining ilmiy maqola yoza olish, maqolani taqdimot qilish jarayonida zaruriy ilmiy muloqot shakllaridan foydalanish bugungi kunda nozik etiket tamoyili hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitishda dominant yondashuv hisoblangan kommunikativ yondashuvning prinnsiplari D.Hymes, M.Canale singari olimlar tomonidan o'rganilgan, bo'lsa pragmatik kompetensiyani rivojlantirish jihatlari Kasper, K. Bardovi-Harlig, Sh,Safarov va b., ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan “o'quv maqsadlari taksonomiyasi” zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. Blum taksonomiyasi o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilish hisoblanadi. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir. Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez, baholash singari bosqichning har birida pragmatik kompetensiya takomillashib boradi.

Kommunikativ kompetensiya tarkibi uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartiga k'ora chet o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Mazkur standartda kommunikativ kompetensiya quyidagi turlarni 'z ichiga oladi<sup>1</sup>: Lingistik kompetensiya ya'ni fonetika, leksika, grammatika haqida bilimlar va nutq faoliyat turlari tinglash, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiya tarkibiga kiruvchi pragmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo b'olganda takroran so'rash, uzr so'rash, va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritiladi. Mazkur kompetensiya o'gzaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi o'gzaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va inerpreatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi. Shu kabi pragmatik aspektlarni takomillashtirishda Blum taksonomiyasi ahamiyatlidir. Yuqorida aytilganidek Blum taksonomiyasi olti bosqichdan iboratdir:

<sup>1</sup>Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti.



Yuqorida keltirilgan taksonomiya darajasi ingliz tili o'qitish maqsadlarini va kompetentlik darajasini ierarxik strukturada namyon etgan ya'ni osondan qiyinga, shu asosda o'qitish prinsiplarini mujmalligini ochish imkoniyati yaratilgan, bu esa, kognitiv qoidalar asosida qulay o'qitish loyihasini yaratish, o'quv materiallarini tuzish imkoniyatini hosil qiladi<sup>2</sup>. Ko'p yillar davomida xorijiy tillarni o'qitish negizida faqatgina lingvistik kompetensiyani egallash, batafsil aytilganda grammatika va lug'at-so'zni o'rganish bilan kifoyalangan. Biroq, kommunikativ yondashuv kirib kelgandan so'ng, huddi shu til birliklarining funksiyasini ham bilish, til o'qitishning vazifasi qilib belgilangan, bu esa ijtimoiy va pragmatik kompetensiyalarning produktiv nutqda faol namoyon bo'lishini talab qiladi. Shu tariqa kommunikativ muloqotdagi tushunmovchiliklarning oldi olindi, shunigdek madaniyatlaraaro muloqot stereotiplari ham keng rivojlandi<sup>3</sup>. Blum taksonomiyasi huddi shu kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy o'quv vositasi hisoblanadi.

Taksonomiyaning bosqichlarini kengroq tahlil qilsak, **bilish** - dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstrakt bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. Mazkur darajada talabalarning fikrlashi past bo'ladi. **Tushinish** - darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi, mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. Mazkur bosqichda talaba axborotni "o'z so'zlari bilan", qisqacha tavsif qila oladi. **Qo'llash** - darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir model, formula, ko'rsatma asosida to'g'ri qo'llaydi. O'qitish maqsadining asosiy kategoriyalari bilim va fikrlash darajasi o'rtacha hisoblanadi. Bosqichning kognitiv jihatlari o'quv materiallarini haqiqiy vaziyatda va mutlaqo yangi vaziyatda qo'llay olish kiradi. **Tahlil qilish** - darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. O'qitish maqsadining asosiy kategoriyalari Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining mazmunini idrok etishdan tashqari, uning ichki tuzilishi qanday shakllanganligini ham anglatadi. **Sintez** - umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini

<sup>2</sup> Jiao Chen, Yuxuan Zhang, Wenjun Zhong. Application of Bloom's taxonomy to teaching design of English for Specific purpose. BCP Education & Psychology ESS 2022. Volume 7.

<sup>3</sup> Yined Tello Rueda. Developing pragmatic competence in a Foreign language. Thoritical discussion paper. 15.05.06.

tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. **Baholash** - mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi.

Talabalarning til o'rganish jarayonida Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi. Xorijiy tillarni kommunikativ yondashuv asosida o'qitilishi va bunda tildan kommunikatsiyada samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Ingliz tadqiqotchisi Bardovi-Harlig ta'kidlashicha tildagi nutqiy aktlardan to'g'ri foydalangan holda axborotni qabul qilish va etkazish zarur bu esa, tillararo pragmatikani kuchliroq rivojlantirishni talab qiladi<sup>4</sup>. Boshqa bir tadqiqotchi Kasperning so'zlariga ko'ra pragmalinvistika ko'chirma va o'zlashtirma gaplar singari lingvistik shakllarning kommunikativ aktlarda muloyim etiketda ishlatilshidir<sup>5</sup>. Tilshunoslik sohasida, xususan pragmalingvistika ustida keng tadqiqot ishlarini olib borayotgan Sh. Safarov, o'zining ilmiy asarida pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lishi ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga masalan, pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradilar. Ushbu fe'llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o'ynaydilar, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajaralayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar. Masalan, «Kumuishi ertaga kiioga olib boramai» gapining talaffuzi vositasida va'da berish nutqiy harakati bajariladi, ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun illokutiv fe'lni qo'llash imkoni ham bor: «Kumuishi ertaga kiioga olib borishga va'da beramai». Xuddi shuningdek, «Dars silmaysanmi?» sintaktik birligi so'roq, talab, ogohlantirish, taklif kabi nutqiy harakatlarni ifodalashi quyidagi yo'sinda aniqlashtirilishi mumkin: «Dars qilmaysaimi, deb surayapman (sendan)»; «Dars qilmaysanmi? Buni sendan talab silaman» (o'qituvchining so'zi); «Dars qilmaysanmi? Seni ogohlantiryapman»; «Dars qilmaysanmi? (kel, birgalikda qilishga taklif qilyapman), sinagri keng ilmiy misollar bilan tahlil qilgan<sup>6</sup>.

Umuman aytganda, kommunikativ kompetensiyaning tarkibiga kiruvchi pragmatik kompetensiyani rivojlantirish tilning C1 darajada produktiv va reseptiv nutqiy ko'nikmalarining rivojlanganligini kafolatlaydi. Ayniqsa bunda ilmiy muloqot shakllarini tushunish, aniq va to'g'ri ishlata olish qobiliyatining rivojlanganligini tekshirish taksonomiya bosqichlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Blum taksonomiyasi asosida tuzilgan o'quv materiallari xorijiy tilni tezroq o'zlashtirishdan tashqari, pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda ham ulkan hissasini qo'shadi. Taksonomiya darajalari ko'magida tuzilgan o'quv materiallari nutqiy aktlar, pragmatik vaziyatlarda ravonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. L.W.E. Anderson. Bloom's Taxonomy of Educational Objectives (Complete edition): Learning and Teaching and Assessment from a Taxonomic Perspective.2009-67p.
2. Beijing Foreign Language Teaching and Research Press. Design of College Oral English Teaching from the perspective of Bloom's Taxonomy and its flipped model. Course Education Research.2023. 46-47.
3. K. Bardovi-Harlig, K. Empirical evidence of the need for instruction in pragmatics. 2001.-98p.
4. K. R. Rose & G. Kasper (Eds), Pragmatics in language teaching. Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139524797.005>
5. K. Bardovi-Harlig. & R.Mahan-Taylor. Introduction to teaching pragmatics. English Teaching Forum.2003. 41(3), 37-39.

<sup>4</sup> Bardovi -Harlig K., Input in an institutional settings. Studies in second language acquisition. 15. 279-304.

<sup>5</sup> Kasper, G. (2001). Classroom research on interlanguage pragmatics. Cambridge University Press. P33-60.

<sup>6</sup> Sh. Safarov. Pragmalingvistika. Monografiya.-Toshkent nashriyoti. 2008 yil. -77 bet.

6. CEFR. Common European framework of reference for languages: learning, teaching, assessment. Council of Europe. 2001.
7. G. Kasper, G. Pragmatic transfer. Second Language Research. 1992. 8(3), 203-231. <https://doi.org/10.1177/026765839200800303>
8. G. Kasper. Classroom research on interlanguage pragmatics. Cambridge University Press.
9. Jiao Chen, Yuxuan Zhang, Wenjun Zhong. Application of Bloom's taxonomy to teaching design of English for Specific purpose. BCP Education & Psychology ESS 2022. Volume 7.
**KIRISH:** Ushbu maqolada ta'lim tizimini takomillashtirishda qadriyatlarning integratsiyasiga asoslangan nazariy-metodologik hamda amaliy asoslar chuqur tahlil qilingan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish strategiyalari ilmiy asosda yoritilgan. Hamda, ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani mustahkamlash hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning metodologik ahamiyati asoslangan. Shuningdek, qadriyatlarga asoslangan ta'lim modelini shakllantirish orqali ijtimoiy barqarorlik va madaniy merosni saqlab qolish masalalari tahlil qilingan.

**MAQSAD:** Qadriyatlarning integratsiyasi asosida ta'lim tizimini takomillashtirishning dolzarb masalalarini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ta'lim mazmunida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarni ham singdirish, yosh avlodning ma'naviy etukligi va fuqarolik ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki ma'naviy boyluk va odob-axloq me'yorlari har qanday jamiyatning mustahkamligi va barqaror taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, o'quv dasturlariga milliy madaniyat, an'analar, tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi va milliy qahramonlar hayotini o'rganish bilan birga, inson huquqlari, tinchlik, bag'rikenglik, ekologik ong va ijtimoiy mas'uliyat kabi global mavzularni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy dunyoda ta'lim faqatgina bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki yosh avlodni dunyoviy tafakkurga ega bo'lgan, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, yangilikka intiluvchan, o'zining va atrofdagilarning manfaatini himoya qila oladigan inson sifatida tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**XULOSA:** Kelajakda ta'lim tizimini takomillashtirishda global va milliy tamoyillarni uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa milliy ta'lim dasturlarini boyitish, pedagoglarning malakasini oshirish va o'quv jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Natijada, ta'lim tizimi nafaqat milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda rivojlanadi, balki umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan, global raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy ta'lim tizimi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, integratsiya, globallashtirish, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, o'quv dasturlari, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, bag'rikenglik, inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy mas'uliyat, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sifatini oshirish.

### АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ЦЕННОСТЕЙ

**Сидиков Шахбоз Набиханович**

*Студент 1 курса магистратуры*

*Азиатского Международного Университета, г. Бухара*

**Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье дается глубокий анализ теоретических, методологических и практических основ совершенствования системы образования на основе

интеграции ценностей. Научно освещены стратегии повышения качества образования путем гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей. Также обоснована методологическая значимость усиления духовно-нравственного воспитания в образовательном процессе и внедрения инновационных педагогических технологий. Также проанализированы вопросы социальной стабильности и сохранения культурного наследия через формирование ценностной модели образования.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ актуальных вопросов совершенствования системы образования на основе интеграции ценностей

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Внедрение общечеловеческих ценностей, наряду с национальными ценностями, в содержание образования играет важную роль в развитии духовной зрелости и гражданственности подрастающего поколения. Потому что духовное богатство и нравственные нормы являются одними из главных факторов, определяющих прочность и устойчивое развитие любого общества. Поэтому целесообразно включать в учебные программы наряду с изучением национальной культуры, традиций, исторических памятников, фольклора и жизни национальных героев такие глобальные темы, как права человека, мир, толерантность, экологическое сознание и социальная ответственность.

В современном мире образование не должно ограничиваться только передачей знаний, но и должно быть направлено на воспитание подрастающего поколения как людей со светским складом ума, умеющих находить свое место в обществе, стремящихся к инновациям, умеющих защищать свои и чужие интересы. С этой точки зрения гармония национальных и общечеловеческих ценностей имеет большое значение в формировании молодых людей как личностей.

**ВЫВОД:** В перспективе следует разработать стратегические подходы по гармонизации глобальных и национальных принципов в совершенствовании системы образования. Этого можно достичь путем обогащения национальных образовательных программ, повышения квалификации педагогов и широкого внедрения современных инновационных технологий в образовательный процесс. В результате система образования не только развивается, сохраняя национальную идентичность, но и служит воспитанию глобально конкурентоспособной личности, глубоко усвоившей общечеловеческие ценности.

**Ключевые слова:** Современная система образования, национальные ценности, общечеловеческие ценности, интеграция, глобализация, духовно-нравственное воспитание, педагогические технологии, инновационный подход, учебные программы, самостоятельное мышление, критическое мышление, толерантность, права человека, межкультурный диалог, социальная ответственность, научные исследования и повышение качества образования.

## CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE EDUCATION SYSTEM BASED ON VALUES INTEGRATION

Sidikov Shahboz Nabikhan o'g'li

*1st ear master's student of the Asian International University, Bukhara city*

### Annatation.

**INTRODUCTION:** This article provides an in-depth analysis of the theoretical, methodological and practical foundations of improving the education system based on the integration of values. Strategies for improving the quality of education by harmonizing national and universal values are scientifically covered. Also, the methodological importance of strengthening spiritual and moral education in the educational process and introducing innovative pedagogical technologies is based. Also, the issues of social stability and preserving cultural heritage through the formation of a value-based education model are analyzed.

**GOAL:** Scientific analysis of the current issues of improving the education system based on the integration of values

**MATERIALS AND METHODS:** The inculcation of universal values, along with national values, in the content of education plays an important role in the development of the spiritual maturity and civic consciousness of the younger generation. Because spiritual wealth and moral standards are one of the main factors determining the strength and sustainable development of any society. Therefore, it is advisable to include in the curricula, along with the study of national culture,

traditions, historical monuments, folklore and the lives of national heroes, such global topics as human rights, peace, tolerance, environmental awareness and social responsibility.

In the modern world, education should not be limited only to imparting knowledge, but should also be aimed at educating the younger generation as people with a secular mindset, able to find their place in society, striving for innovation, and able to protect their own and others' interests. From this point of view, the harmony of national and universal values is of great importance in the formation of young people as individuals.

**CONCLUSION:** In the future, strategic approaches should be developed to harmonize global and national principles in improving the education system. This can be achieved by enriching national educational programs, improving the skills of teachers and widely introducing modern innovative technologies into the educational process. As a result, the education system not only develops while preserving national identity, but also serves to educate globally competitive individuals who have deeply assimilated universal values.

**Keywords:** Modern education system, national values, universal values, integration, globalization, spiritual and moral education, pedagogical technologies, innovative approach, curricula, independent thinking, critical thinking, tolerance, human rights, intercultural dialogue, social responsibility, scientific research and improving the quality of education.

Zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Har bir xalqning tarixi, madaniy merosi va an'analari o'ziga xos bo'lishiga qaramay, umuminsoniy qadriyatlar barcha jamiyatlar tomonidan qabul qilingan axloqiy, ijtimoiy va huquqiy normalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham ta'lim tizimi shaxsni har tomonlama etuk inson sifatida tarbiyalashda milliy qadriyatlarni mustahkamlash bilan birga, dunyoviy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, yosh avlodni dunyo miqyosidagi o'zgarishlarga tayyorlash zarur. Ta'lim nafaqat bilim berish vositasi, balki yoshlarning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi va shaxsiyati shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, ta'lim tizimida milliy g'urur va o'zligini anglash, hurmat, bag'rikenglik va inson huquqlariga rioya qilish kabi tamoyillar uyg'unlashishi kerak.

Ta'lim tizimini takomillashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi bo'yicha tadqiqotlar so'nggi yillarda dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Zamonaviy ilmiy manbalar, xalqaro va milliy tajribalar ushbu masalaning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan.

Xususan, Masalan, professor Abdurashid Jo'raev milliy qadriyatlarni yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida markaziy o'rinda qo'yish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ta'kidlashicha, "Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy ongida ifodalanib, ularning dunyoqarashi, ma'naviyati va axloqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omildir"[1]. Professor Jo'raevning fikricha, milliy qadriyatlar yosh avlodni o'z milliy merosiga hurmat bilan qarash va uni asrab-avaylashga undaydi. Shuningdek, professor Oybek Hamroev milliy qadriyatlar asosida shaxs tarbiyasining nazariy asoslarini tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, milliy qadriyatlar tarbiya jarayonining muhim elementlaridan biri sifatida shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda, jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim rol o'ynaydi [2]. Professor Hamroyev ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya jarayoni o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning milliy o'zligini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqa bir olim, professor Muhammad Aliev, milliy qadriyatlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlab, ularning ijtimoiy munosabatlar va inson kamolotiga ta'sirini yoritadi. Uning ta'kidlashicha, "Milliy qadriyatlar shaxsning ma'naviy kamoloti uchun poydevor bo'lib, o'quvchilarni o'z xalqining tarixi, madaniyati va an'analari bilan bog'lab turadi"[3]. Professor Aliyevning fikricha, milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya yoshlarni milliy merosga hurmat bilan yondashish va uni kelajak avlodga etkazishga undaydi. Shunday qilib, yuqoridagi olimlarning fikrlari milliy qadriyatlar asosida o'quvchilar shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslarini yoritishda turlicha yondashuvlarga ega bo'lganini ko'rsatadi. Milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishda muhim omil bo'lib, ularning milliy o'zligini shakllantirishda, ijtimoiy mas'uliyatini oshirishda va jamiyatda o'z o'rnini topishida asosiy ahamiyatga ega [4].

UNESCO tomonidan 2020 yilda e'lon qilingan "Education for Sustainable Development" hisobotida esa ta'lim tizimini takomillashtirishda madaniy xilma-xillik va bag'rikenglik tamoyillariga urg'u berilgan<sup>13</sup>. Hisobotga ko'ra, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlarning global raqobatbardoshlik darajasini oshirish hamda ularni demokratik jamiyat qurishda faol ishtirok etishga tayyorlash muhim hisoblanadi.

Ilmiy manbalar va tadqiqotlar milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning integratsiyasi asosida ta'lim tizimini takomillashtirish dolzarb muammo ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu masala nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida baholanadi.

Ta'lim mazmunida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda umuminsoniy qadriyatlarni ham singdirish, yosh avlodning ma'naviy etukligi va fuqarolik ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki ma'naviy boyluk va odob-axloq me'yorlari har qanday jamiyatning mustahkamligi va barqaror taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, o'quv dasturlariga milliy madaniyat, an'analar, tarixiy yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi va milliy qahramonlar hayotini o'rganish bilan birga, inson huquqlari, tinchlik, bag'rikenglik, ekologik ong va ijtimoiy mas'uliyat kabi global mavzularni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy dunyoda ta'lim faqatgina bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki yosh avlodni dunyoviy tafakkurga ega bo'lgan, jamiyatda o'z o'rnini topa oladigan, yangilikka intiluvchan, o'zining va atrofdagilarning manfaatini himoya qila oladigan inson sifatida tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. O'quvchilarga interfaol metodlar asosida ta'lim berish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, kreativlik va tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ta'lim sifati oshirilishi mumkin. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida xalqaro tajribani o'rganish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va ko'p tilli ta'lim tizimini joriy etish kabi yo'nalishlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi yosh avlodning o'z tarixini, tilini, an'analari va madaniyatini chuqur anglashini ta'minlash bilan bir qatorda, global dunyo bilan hamohang bo'lishiga ko'maklashishi lozim. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida turli madaniyatlar, dunyoqarashlar va qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchaymoqda. Bu jarayonda milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish bilan birga, yoshlarning dunyoviy tafakkurini rivojlantirish, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida inson huquqlari, ijtimoiy adolat, ekologik barqarorlik va barqaror taraqqiyot tamoyillariga e'tibor qaratish yoshlarning mas'uliyatli fuqaro sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ayniqsa, interfaol o'qitish usullari, loyiha asosida ta'lim berish, xalqaro hamkorlik dasturlari va akademik almashinuvlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligini ta'minlash yanada samarali bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar fonida yosh avlodning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni global muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga tayyorlash ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi faqat ta'lim tizimining emas, balki butun jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim tizimi yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ularni jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchan qilib tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mustaqil izlanish va amaliy bilimlarni egallashga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash

<sup>13</sup> <https://www.unesco.org/en/sustainable-development/education>

yoshlarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularni kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lishlariga tayyorlaydi.

Madaniyatlararo muloqot va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bugungi globallashuv sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlarning tarixi, an'analari va madaniyatini o'rganish, ularning qadriyatlariga hurmat bilan yondashish yoshlarda bag'rikenglik, hamkorlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi faqatgina an'anaviy bilim berish vositasi bo'lib qolmasdan, balki shaxsni har tomonlama etuk inson sifatida tarbiyalashda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu sababli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi asosida qurilgan ta'lim jarayoni nafaqat yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, mustaqil fikrlovchi va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qilishi zarur.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash, har bir o'quvchining individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, o'z qarashlarini asoslab bera olishga o'rgatish mumkin. Shuningdek, ta'lim mazmunini amaliyot bilan bog'lash, kasbiy yo'nalishdagi dasturlarni kuchaytirish, o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish ham zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida ekologik madaniyat, sog'lom turmush tarzi, huquqiy bilimlar va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mumkin. Milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un tarzda singdirish esa ta'lim jarayonining uzviy qismi bo'lib, bu yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlar egasi sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'z oldiga nafaqat bilim berish, balki yoshlarni mustaqil va tanqidiy fikrlovchi, ma'naviy etuk, jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shishga tayyor shaxs sifatida shakllantirish vazifasini qo'yishi lozim. Bu esa milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish bilan birga, umuminsoniy tamoyillarni singdirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixi, madaniyati va an'alariga asoslangan bo'lib, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar xalqning o'ziga xosligi, urf-odatlarini, ma'naviy merosi va ijtimoiy hayot tarzini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar esa butun insoniyat uchun muhim bo'lgan axloqiy va ijtimoiy tamoyillarni o'z ichiga olib, inson huquqlari, tenglik, adolat, bag'rikenglik va hurmat kabi universal tushunchalarga asoslanadi.

Ta'lim jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuviga xizmat qilishi, yosh avlodda milliy g'urur bilan birga dunyoqarashning kengligi, insonparvarlik va tolerantlik kabi fazilatlarini shakllantirishi kerak. Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish lozim:

1. **Dars jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un holda o'rgatish.** Ta'lim jarayonida tarix, adabiyot va ijtimoiy fanlar orqali o'quvchilarga o'z xalqining an'analari bilan bir qatorda umumjahon tamoyillarini ham anglatish muhimdir. Masalan, milliy qahramonlar hayoti, xalq og'zaki ijodi va tarixiy voqealar orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, shu bilan birga, boshqa xalqlar madaniyati va tarixini o'rganish orqali ularning qadriyatlariga hurmat bilan yondashish, dunyoviy qarashlarni rivojlantirish lozim.

2. **Tarbiya tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash.** Ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash bilan birga, umuminsoniy axloq me'yorlarini singdirish zarur. Bunda oilaviy tarbiya, maktab muhitining o'rni va jamiyatning ta'siri katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda inson huquqlari, hurmat, adolat, birdamlik kabi fazilatlarini shakllantirish uchun maxsus tarbiyaviy dasturlar va tadbirlarni tashkil etish lozim.

3. **Innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish.** Zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilarga etkazish jarayoni yanada samarali bo'lishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv dars usullari,

*muammoli ta'lim va loyihaviy yondashuv orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida ta'lim almashinuv dasturlarini tashkil etish orqali o'quvchilarga turli madaniyatlarni tushunish va qadrlash imkoniyatini yaratish lozim.*

---

*Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, yosh avlodning ma'naviy va intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu integratsiyani ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, millatlararo hamjihatlik va tolerantlik muhitini mustahkamlash mumkin. Shu bois, ta'lim tizimini rivojlantirishda milliy o'ziga xoslikni saqlagan holda, global tendensiyalarni inobatga olish va ta'lim mazmunini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.*

Ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish pedagogik jihatdan puxta o'ylangan yondashuvlarni talab etadi. Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyotida ushbu qadriyatlarni samarali integratsiya qilishning asosiy metodologik asoslari quyidagilar bilan belgilanadi:

**1. Madaniyatga yo'naltirilgan ta'lim.** Madaniyatga yo'naltirilgan ta'lim – bu o'quv jarayoniga milliy madaniyat elementlarini singdirish orqali amalga oshiriladigan pedagogik yondashuv bo'lib, o'quvchilarning o'z xalqining madaniy merosi va an'alariga hurmat bilan qarashiga yordam beradi. Bu uslub o'quv dasturlariga folklor, milliy badiiy asarlar, tarixiy voqealar, urf-odatlar va an'analarni kiritish orqali milliy o'ziga xoslikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni anglash uchun boshqa xalqlarning madaniyati bilan tanishtirish ham muhimdir. Ushbu yondashuv Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga asoslanib, o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy tajribalar orqali shaxsiy kamolotga erishishini ta'kidlaydi.

**2. Kompetensiyaviy yondashuv.** Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, o'quvchilar bilimlarni hayotiy tajriba bilan bog'lay olishi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyasiga ega bo'lishi kerak. Kompetensiyaviy yondashuv Jon Dyui va Benjamin Blumning pedagogik nazariyalariga asoslanib, ta'lim jarayonini faollashtirish, refleksiya va tajriba orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**3. Integrativ yondashuv.** Integrativ yondashuv turli fanlarni uyg'unlashtirish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni birgalikda singdirishni nazarda tutadi. Bu uslub ko'p tarmoqli ta'lim tizimida samarali qo'llaniladi, chunki o'quvchilarga bir vaqtning o'zida turli sohalar bo'yicha bilimlarni to'liq tushunish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, tarix va adabiyot fanlarini uyg'unlashtirib o'qitish orqali o'quvchilar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yaxlit tizim sifatida tushunishi mumkin. Integrativ yondashuv interfaol ta'lim metodlari, masalan, loyiha ishlari, munozaralar, kross-fanli tadqiqotlar va kooperativ o'qitish orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv Jerom Brunerning konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslanib, o'quvchilarning bilimni o'z tajribasi asosida shakllantirishini qo'llab-quvvatlaydi.

Milliy qadriyatlar insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda va uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilashda muhim omil hisoblanadi. O'zbek olimlari orasida professor Saidov Bahrom milliy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini yoritishda alohida o'ringa ega. U o'z tadqiqotlarida milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonning negizi sifatida baholagan. Saidovning fikriga ko'ra, milliy qadriyatlar yoshlarda vatanparvarlik, axloqiy barkamollik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga katta hissa qo'shadi [4]. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligi ta'lim tizimida ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi lozim. Madaniyatga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar ushbu jarayonning eng samarali usullari hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarning har biri yosh avlodning nafaqat bilim olishiga, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, milliy va global qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida shakllanishiga

xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim dasturlarini shakllantirish va yangilashda ushbu metodologik tamoyillarni e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarining integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-pedagogik asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy etuk, axloqiy tamoyillarga sodiq va ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish o'quvchilarning global fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu jarayonda pedagoglarning roli beqiyos bo'lib, ular nafaqat bilim beruvchilar, balki ijtimoiy-madaniy vositachilar sifatida ham faoliyat olib borishlari kerak. Zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan qaralganda, ta'lim jarayonida innovatsion metod va uslublardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Xususan, interfaol ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar, loyihaviy ta'lim hamda refleksiv pedagogika kabi usullar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga hamda ularni ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ta'lim tizimini takomillashtirishda global va milliy tamoyillarni uyg'unlashtirishga qaratilgan strategik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa milliy ta'lim dasturlarini boyitish, pedagoglarning malakasini oshirish va o'quv jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Natijada, ta'lim tizimi nafaqat milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda rivojlanadi, balki umuminsoniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan, global raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jo'rayev A. "Milliy tarbiya nazariyasi", Toshkent. Fan nashriyoti, 2018, 45-bet.
2. Hamroyev O. "Ma'naviyat va qadriyatlar nazariy asoslar", Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti 2020 67- bet.
3. Aliyev M. "Tarbiya nazariyasi va amaliyoti" Toshkent yoshlar nashriyoti 2019. 103- bet.
4. Saidov B. "Milliy qadriyatlar va tarbiya", Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2018. 45-47-betlar.

#### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Sidikov Shahboz Nabixon o'g'li**

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Manzil: O'zbekiston, Buxoro shahri.



**Abdumutalipov Nodirbek Abdulazizovich**  
Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri

**Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni va bu jarayonga ta'sir etuvchi ta'limiy imkoniyat va muhitlar tahlil qilinadi. Shuningdek, akmeologiyaga asoslangan metodika asosida o'qituvchilarning professional o'sishi uchun zarur omillar va metodlar ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning professional o'sishi jarayonida akmeologiyaga asoslangan metodika muhim rol o'ynaydi. Akmeologiya insonning eng yuqori rivojlanish nuqtasiga erishish jarayonini o'rganadi va o'qituvchilik amaliyotida bu tushuncha o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan.

**MAQSAD:** Maqola bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ta'limiy imkoniyat va muhitlarni aniqlash va ularning samaradorligini oshirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Mazkur tadqiqotda pedagogik akmeologiya, ta'lim psixologiyasi va metodikasi sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Pedagogik jarayonda akmeologiyaga asoslangan metodikaning o'rnini aniqlash maqsadida mavjud nazariy konsepsiyalar o'rganildi va taqqoslandi.

Empirik tadqiqotlar asosida kelajak pedagoglarning professional o'sish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilindi. So'rovnomalar, intervyular va eksperimentlar yordamida kasbiy ko'nikmalarning rivojlanish bosqichlari o'rganildi.

Shuningdek, kuzatuv usuli orqali o'qituvchilarning o'quv jarayonida o'zlashtirish darajasi va o'qituvchilik amaliyoti samaradorligi baholandi. Olingan natijalar tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**XULOSA:** Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Pedagogik shart-sharoitlar va zamonaviy o'qitish uslublarining uyg'unligi o'qituvchilarni yuqori kasbiy mahoratga ega mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Akmeologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning reflektiv va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning professional o'sish darajasini oshirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Akmeologiya, ta'limiy imkoniyat va muhitlar, kasbiy ko'nikmalar, o'qituvchi tayyorlash, zamonaviy o'qitish uslublari, o'z-o'zini tahlil qilish, hissiy aql.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ АКМЕОЛОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

**Абдумуталипов Нодирбек Абдулазизович**  
*Азиатский международный университет, Бухара*

**Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье анализируется процесс формирования акмеологических профессиональных качеств будущих учителей и педагогические условия, влияющие на этот процесс. Также на основе акмеологического подхода рассматриваются необходимые факторы и методы профессионального развития педагогов.

В настоящее время подготовка высококвалифицированных педагогических кадров является актуальной проблемой в сфере образования. Акмеологический подход играет важную роль в профессиональном становлении будущих учителей. Акмеология изучает процесс достижения человеком высшей точки развития, а в педагогической деятельности это понятие направлено на повышение профессионального мастерства учителей.

**ЦЕЛЬ:** Целью статьи является выявление педагогических условий, необходимых для развития акмеологических профессиональных качеств будущих учителей, и разработка практических рекомендаций по повышению их эффективности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В исследовании проанализирована научная литература в области педагогической акмеологии, педагогической психологии и методики. С целью определения места акмеологического подхода в педагогическом процессе были изучены и сопоставлены существующие теоретические концепции.

На основе эмпирического исследования проанализированы факторы, влияющие на процесс профессионального развития будущих учителей. Этапы развития профессиональных навыков изучались с помощью анкетирования, интервью и экспериментов.

Уровень освоения педагогического процесса и эффективность педагогической деятельности учителей также оценивались путем наблюдения. Результаты были проанализированы и разработаны практические рекомендации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Необходим комплексный подход к формированию акмеологических профессиональных качеств будущих педагогов. Сочетание педагогических условий и инновационных методов способствует подготовке учителей как высококвалифицированных специалистов. Результаты исследований, проведенных на основе акмеологического подхода, показывают, что развитие рефлексивных и творческих способностей педагогов способствует повышению уровня их профессионального развития.

**Ключевые слова:** Акмеология, педагогические условия, профессиональное мастерство, подготовка учителей, инновационные методы, рефлексия, эмоциональный интеллект.

## PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING ACMEOLOGY PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE TEACHERS

**Abdumutalipov Nodirbek Abdulazizovich**  
*Asian International University, Bukhara*

**Annatation.**

**INTRODUCTION:** This article analyzes the process of developing acmeological professional skills of future teachers and the pedagogical conditions that influence this process. It also examines the factors and methods necessary for the professional development of teachers based on the acmeological approach.

Currently, the training of highly qualified teachers is an urgent issue in the field of education. The acmeological approach plays an important role in the professional development of future teachers. Acmeology studies the process of reaching the highest point of human development, and in pedagogical activity this concept is aimed at improving the professional skills of teachers.

**GOAL:** The article aims to identify the pedagogical conditions necessary for the development of acmeological professional skills of future teachers and to develop practical recommendations for increasing their effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS:** This study analyzed the scientific literature in the field of pedagogical acmeology, educational psychology and methodology. In order to determine the place of the acmeological approach in the pedagogical process, existing theoretical concepts were studied and compared.

Based on empirical research, factors influencing the professional development process of future teachers were analyzed. The stages of development of professional skills were studied using questionnaires, interviews and experiments.

Also, the level of mastery of teachers in the educational process and the effectiveness of pedagogical activity were assessed through observation. The results obtained were analyzed and practical recommendations were developed.

**CONCLUSION:** A comprehensive approach is necessary to develop the acmeological professional skills of future teachers. The combination of pedagogical conditions and innovative methods serves to train teachers as specialists with high professional skills. The results of research conducted on the basis of the acmeological approach show that the development of reflective and creative abilities of teachers helps to increase the level of their professional development.

**Key words:** Acmeology, pedagogical conditions, professional skills, teacher training, innovative methods, reflection, emotional intelligence.

Zamonaviy pedagogika kelajak pedagoglarning professional o'sishiga katta e'tibor qaratadi.

Xususan, akmeologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, o'qituvchilik amaliyotining samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorati va individual rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Ushbu maqolada kelajak pedagoglarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning ta'limiy imkoniyat va muhitlari tahlil qilinadi.

Akmeologik kasbiy ko'nikmalar - bu o'qituvchi sifatida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy xususiyatlarning uyg'unligi. Bu ko'nikmalar pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiyalar, ijodiy yondashuv va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar o'qituvchining ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Akmeologik kasbiy ko'nikmalar shaxsiy rivojlanish va kasbiy o'sish jarayonida shakllanadi. Bunda insonning intellektual, axloqiy va kasbiy jihatdan mukammallikka intilishi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'l boshchi va motivator sifatida ham namoyon bo'lishi kerak. Shu bois, uning kasbiy mahorati doimiy takomillashtirilishi lozim.

Ushbu ko'nikmalar o'qituvchining ijodiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonda turli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, zamonaviy usullarni qo'llash va individual yondashuv asosida ta'lim berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muammolarni hal qilish, psixologik barqarorlik va moslashuvchanlik ham akmeologik kasbiy ko'nikmalarning ajralmas qismidir.

Akmeologik kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlash, kasbiy faoliyatda o'z-o'zini tahlil qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirish zarur. O'qituvchi o'qituvchilik amaliyotiida yuqori natijalarga erishish uchun amaliy sinovlarni tahlil qilish, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirish ustida ishlashi lozim. Buning uchun turli treninglar, seminarlar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish muhim sanaladi.

Shuningdek, akmeologik kasbiy ko'nikmalar pedagogik madaniyatni shakllantirishga ham xizmat qiladi. O'qituvchi nafaqat o'qituvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, balki ta'lim jarayonini sifatli tashkil etishi, jamiyat ehtiyojlariga mos holda o'qituvchilik amaliyotiini yo'naltirishi kerak. Shu tariqa, pedagog o'z ustida muntazam ishlash orqali kasbiy mukammallikka erishadi va ta'lim tizimining sifatini oshirishga hissa qo'shadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik professional salohiyatini oshirishning samarali amalga oshirilishi uchun maxsus ta'limiy imkoniyat va muhitlarni yaratish zarur. Ushbu shart-sharoitlar o'qituvchilarning kasbiy o'sishi va o'qituvchilik amaliyotiga tayyorlanish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Quyida bu shart-sharoitlarning asosiy jihatlari keltirilgan.

Birinchiidan, ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik muhitni shakllantirish zarur. Bu muhitda talabalar zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan tanishib, ularni amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Ta'lim muhitining zamonaviy didaktik tamoyillarga asoslangan bo'lishi kelajak pedagoglarning kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, interfaol o'qitish usullarini keng qo'llash lozim. Masalan, loyihaviy ta'lim, muammoli ta'lim, rolli o'yinlar va kouching texnikalaridan foydalanish talabalarni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu metodlar orqali bo'lajak o'qituvchilar tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin.

Uchinchiidan, kasbiy tayyorgarlik jarayonida amaliy sinovviy faoliyat muhim o'rin tutadi. Pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonlari bo'lajak o'qituvchilarga o'z bilimlarini real sharoitda sinab ko'rish, muammolarni hal qilish va kasbiy mahoratlarini oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun maktablar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim.

To'rtinchiidan, o'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tahlil qilish qilishga yo'naltirilgan faoliyatlarini rag'batlantirish zarur. Bu maqsadda pedagogik portfoliolar yuritish, o'z-o'zini baholash metodikalaridan foydalanish va o'z ustida ishlashga doimiy intilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchiidan, bo'lajak o'qituvchilar uchun psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish lozim. Mentoring va tutoring dasturlarini ishlab chiqish, malakali pedagoglar tomonidan maslahat berish hamda ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish kelajak pedagoglarning professional o'sishini tezlashtirishga yordam beradi.

O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish

O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish o'qituvchilik amaliyotining ajralmas qismidir. Ushbu jarayon orqali o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, kasbiy kamchiliklarini tahlil qiladi va rivojlanish strategiyalarini belgilaydi.

Refleksiya - bu pedagogning o'z faoliyatiga nazar tashlab, natijalarini baholash va kelajakdagi yaxshilanish yo'nalishlarini aniqlash jarayonidir. Bu jarayon pedagogning amaliy sinovlaridan saboq chiqarish va kelajakdagi ish usullarini optimallashtirish imkonini beradi.

O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Kundalik yuritish va professional o'sish jurnali olib borish;

Hamkasblar bilan fikr almashish va baholash;

Kasbiy o'sish uchun shaxsiy reja tuzish;

Trening va seminarlar orqali malaka oshirish.

Jadval: O'z-o'zini baholash va o'z-o'zini tahlil qilishning asosiy jihatlari

Bo'lajak o'qituvchilarning akmeologik kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limiy imkoniyat va muhitlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol usullardan foydalanish, amaliy sinovviy faoliyatni rivojlantirish va o'z-o'zini tahlil qilish jarayonlarini yo'lga qo'yish o'qituvchi shaxsining yuqori kasbiy darajaga erishishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, akmeologiyaga asoslangan metodika orqali bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash ularning kelgusidagi o'qituvchilik amaliyotiining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Avezov O.R. Psychological relations between family members. *Scientific Journal Impact Factor*. VOLUME 2 | ISSUE 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 . P-945-949
2. Avezov O.R. Favqulotda va ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish. "XXI asr psixologiyasi". //Xalqoro ilmiy–amaliy anjumani materiallari// Buxoro, 2021 y.
3. Avezov O.R. Turli ekstremal vaziyatlarda aholiga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. *Psixologiya fani va yoshlarning rivojlanishi*. //Xalqaro ilmiy–amaliy onlayn konferensiya materiallari// Toshkent, 2020 y. B. 77 -80.
4. Авезов О.Р. Психологическая служба в экстремальных ситуациях. *Вестник интегративной психологии*. № 79. Ярославл. 2019. С. 23-26.

5. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda stressbardoshlik tushunchasi. International Conference on Developments in Education. Hosted from Amsterdam, Netherlands <https://econferencezone.org> 22nd Feb. 2023. B. 63-67

6. Avezov O.R., To'ymurodov A.SH. Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. Science And Education Scientific Journal Issn 2181-0842 Volume 3, Issue 4 April 2022. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) P.717-725

7. Avezov O.R. Masofaviy ta'limda o'quv faoliyatini tashkil qilishda ekstremal vaziyatlarning psixologik tahlili. "Masofaviy ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari". //Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Toshkent, 2021 y. B. 501 - 504.

8. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Psixologiya. № 1 son (2021) Buxoro. 2021. B. 21-27.

#### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ][AUTHORS INFO]**

Abdumutalipov Nodirbek Abdulazizovich  
Osiyo xalqaro universiteti magistanti  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri



**Turg'unov Ma'murjon Mamadjonovich,**  
*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya.**

**KIRISH:** Bugungi kunda har bir jamiyatning mustahkamligi, uning farovonligi va rivojlanishi avvalo yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni boy tarixiy merosimizga hurmat bilan qarashga, Vatanga muhabbat, demokratiya va istiqloq g'oyalariga sadoqatli bo'lishga undash eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Yoshlar – kelajagimizning asosiy poydevori, millatimizning g'ururi va davomchisi sifatida ana shu qadriyatlarni chuqur anglab, o'zida mujassamlashtirishi zarur. Shu sababli, milliy tariximizda o'zining betakror asarlari va yuksak ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan ajralib turgan buyuk allomalarimizning merosi, qadimiy diniy va falsafiy manbalarimiz – “Avesto”, Qur'oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas kitoblar yoshlarning ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu manbalar va tarixiy ildizlarga tayangan holda yoshlarni shakllantirish, ularni oilaviy qadriyatlar, insoniylik, vatanparvarlik va mas'uliyat ruhida tarbiyalash zamonning eng katta chaqirig'idir. Ushbu maqolada yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ahamiyati, buning kelajak uchun qanday muhimligi hamda bunga erishish yo'llari haqida kengroq fikr yuritiladi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ushbu maqolada yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalasi o'rganildi. Material sifatida O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, zardushtiylik davriga oid “Avesto” asarlari, buyuk allomalar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlarning ma'naviy-axloqiy ta'limotlari, shuningdek, Qur'oni karim va hadisi sharif kabi muqaddas manbalar olinib, tahlil qilindi. Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy, adabiy-tahliliy va komparativ usullar qo'llanildi. Tarixiy metod yordamida milliy qadriyatlarning shakllanishi va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni o'rganildi. Adabiy-tahliliy metod bilan allomalar asarlaridagi ma'naviy g'oyalar va falsafiy qarashlar tahlil qilindi. Komparativ metod yordamida turli diniy va falsafiy manbalardagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, yoshlar tarbiyasiga qo'llanilish imkoniyatlari baholandi.

**XULOSA:** Yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kunda jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy tariximiz, buyuk allomalarimizning asarlari va muqaddas diniy manbalar yoshlarda vatanparvarlik, insoniylik, mas'uliyat va ma'naviy poklik kabi yuqori fazilatlarini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Oilaviy an'analar, urf-odatlar va milliy madaniyat yoshlar qalbida mustahkam poydevor yaratib, ularni global axborot makonining salbiy ta'sirlaridan himoya qiladi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar jamoat birdamligini mustahkamlashda, yoshlarning o'z tarixi va ajdodlariga bo'lgan hurmatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun yoshlarni ma'naviy barkamol, vatanparvar va mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda milliy merosimizdan samarali foydalanish, ota-ona, maktab, mahalla va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi juda muhimdir. Bu esa kelajakka qaratilgan eng katta sarmoyadir va sog'lom, barkamol, ma'naviyatli avlodni shakllantirishning kafolatidir.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik, milliy meros, oila qadriyatlari, tarixiy an'analar

## РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕОБЩЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Тургунов Маъмурджон Мамаджонович

Магистратура Азиатского Международного Университета

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** Сегодня сила любого общества, его процветание и развитие тесно связаны, прежде всего, с духовно-нравственными ценностями молодого поколения. Особенно в условиях независимого Узбекистана воспитание молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей, поощрение ее к уважению нашего богатого исторического наследия, любви к Родине, верности идеалам демократии и независимости стало одной из самых актуальных задач. Молодежь – главная основа нашего будущего, гордость и продолжательница нашей нации, необходимо глубоко понимать и воплощать эти ценности. Поэтому наследие наших великих ученых, отличающихся своими уникальными трудами и высокими духовно-нравственными взглядами в нашей национальной истории, наши древние религиозно-философские источники – священные книги, такие как «Авеста», Священный Коран, Хадис Шариф, играют важную роль в духовном развитии молодежи. Опираясь на эти источники и исторические корни, формировать молодежь, воспитывать ее в духе семейных ценностей, гуманизма, патриотизма и ответственности – величайшая задача современности. В статье рассматривается важность воспитания молодежи на основе национальных и духовных ценностей, насколько это важно для будущего и пути достижения этого.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В данной статье изучается вопрос воспитания молодежи на основе национальных и духовных ценностей. В качестве материала послужило богатое историко-культурное наследие Узбекистана, произведения «Авесты», восходящие к эпохе зороастризма, духовно-нравственные учения таких великих ученых, как Абу Наср аль-Фараби, Абу Райхан аль-Беруни, Абу Али ибн Сина, Алишер Навои, а также священные источники, такие как Священный Коран и Хадис Шариф. В качестве методов исследования использовались исторический, литературно-аналитический и сравнительный методы. С помощью исторического метода изучалось формирование национальных ценностей и их роль в воспитании молодежи. С помощью литературно-аналитического метода анализировались духовные идеи и философские взгляды в трудах ученых. С помощью сравнительного метода выявлялись сходства и различия в различных религиозно-философских источниках и оценивались возможности их применения в воспитании молодежи.

**ВЫВОД:** Воспитание молодежи на основе национальных и духовных ценностей является одной из важнейших задач нашего общества сегодня. Наша национальная история, труды наших великих ученых, священные религиозные источники служат важным фактором формирования у молодежи таких высоких качеств, как патриотизм, гуманность, ответственность, духовная чистота. Семейные традиции, обычаи, национальная культура создают прочную основу в сердцах молодых людей и защищают их от негативного воздействия мирового информационного пространства. В то же время национальные ценности играют ключевую роль в укреплении общественного единства и повышении уважения молодежи к своей истории и предкам. Поэтому эффективное использование нашего национального наследия, сотрудничество родителей, школы, дворов и СМИ в воспитании молодежи как духовно зрелых, патриотичных и ответственных личностей очень важны. Это величайшая инвестиция в будущее и гарантия формирования здорового, зрелого и духовного поколения.

**Ключевые слова:** национальные ценности, духовное воспитание, воспитание молодежи, патриотизм, национальное наследие, семейные ценности, исторические традиции.

## THE ROLE OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN THE EDUCATION OF YOUTH

**Turgunov Ma'murjon Mamadjonovich**

*Master's student at Asian International University*

### **Annatation.**

**INTRODUCTION:** Today, the strength of any society, its prosperity and development are closely related, first of all, to the spiritual and moral values of the younger generation. Especially in the conditions of independent Uzbekistan, educating young people in the spirit of national and universal values, encouraging them to respect our rich historical heritage, love for the Motherland, loyalty to the ideals of democracy and independence has become one of the most urgent tasks. Youth is the main foundation of our future, the pride and successor of our nation, it is necessary to deeply understand and embody these values. Therefore, the heritage of our great scholars, distinguished by their unique works and high spiritual and moral views in our national history, our ancient religious and philosophical sources - sacred books such as "Avesta", the Holy Quran, Hadith Sharif, play an important role in the spiritual development of young people. Building on these sources and historical roots, shaping young people, educating them in the spirit of family values, humanity, patriotism and responsibility is the greatest challenge of our time. This article discusses the importance of educating young people on the basis of national and spiritual values, how important this is for the future, and ways to achieve this.

**MATERIALS AND METHODS:** This article studies the issue of educating young people on the basis of national and spiritual values. The material used was the rich historical and cultural heritage of Uzbekistan, the works of the "Avesta" dating back to the Zoroastrian era, the spiritual and moral teachings of such great scholars as Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Beruni, Abu Ali Ibn Sina, Alisher Navoi, as well as sacred sources such as the Holy Quran and Hadith Sharif. Historical, literary-analytical and comparative methods were used as research methods. The formation of national values and their role in the education of young people were studied using the historical method. The spiritual ideas and philosophical views in the works of scholars were analyzed using the literary-analytical method. Using the comparative method, similarities and differences in various religious and philosophical sources were identified and the possibilities of their application to the education of young people were assessed.

**CONCLUSION:** Educating young people on the basis of national and spiritual values is one of the most important tasks of our society today. Our national history, the works of our great scholars, and sacred religious sources serve as an important factor in the formation of such high qualities as patriotism, humanity, responsibility, and spiritual purity in young people. Family traditions, customs, and national culture create a solid foundation in the hearts of young people and protect them from the negative effects of the global information space. At the same time, national values play a key role in strengthening public unity and increasing young people's respect for their history and ancestors. Therefore, the effective use of our national heritage, the cooperation of parents, schools, neighborhoods, and the media in educating young people as spiritually mature, patriotic, and responsible individuals, is very important. This is the greatest investment in the future and a guarantee of forming a healthy, mature, and spiritual generation.

**Keywords:** national values, spiritual education, youth education, patriotism, national heritage, family values, historical traditions

**B**ugungi kunda yoshlarni boy ma'naviy merosimiz, milliy va tarixiy an'alarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, demokratiya va istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bunda milliy tariximizda aks etgan qimmatli g'oyalari bilan o'z hissalarini qo'shgan allomalarimizning merosini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, zardushtiylarning muqaddas kitobi – "Avesto"da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy

asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o'rinni egallagan. Ma'lumki, o'zbek oilasi o'zida millatimizga xos ko'p asrlik ma'naviy qadriyat va an'analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy merosimizni saqlab keladi. Oilada shakllangan o'zbek millatiga xos bo'lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-axloqqa oid his-tuyg'ular nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo'lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o'zaro mehr-muhabbati, dunyoqarashi, ma'naviy saviyasi, qiziqishi, e'tiqodi, jamiyatdagi mavqeyi, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go'zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag'ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo'lib o'sadilar.

Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi. Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, non ustiga narsa qo'yima, nonning uvog'i ham non, yoshi ulug'larning yo'lini kesib o'tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo'lma kabi nasihatlarini eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan, mas'uliyatli va sog'lom kishilarni tushunamiz. Jumladan, "Avesto"dagi "Ezgu fikr – ezgu so'z – ezgu amal" g'oyasi bo'yicha fikr yuritish; Qur'oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma'naviy-ma'rifiy o'gitlar orqali yoshlar ongida ruhiy poklik, e'tiqod tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoki Alisher Navoiy o'z asarlarida ota-onaga hurmat va yaxshilik qilish g'oyalarini chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmun bilan boyitib, ularni insoniy kamolotning eng asosiy shartlaridan biri sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, ota-onani hurmat qilish va ularga yaxshilik qilish ikki dunyo saodati uchun kalit hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarida ota-onaga hurmat va yaxshilik qilish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, ota-onaga yaxshilik qilish nafaqat insoniy burch, balki Alloh taoloning roziligiga erishishning muhim yo'li hamdir. Navoiy o'zining nasihat va hikmatlarga boy asarlarida bu mavzuni turli misollar bilan yoritib bergan. "Hayrat ul-abror" dostonida shoir yoshlarni ota-onaga doim mehr-muhabbatli bo'lishga chaqirar ekan, shunday deydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a...  
Tun-kunungga aylagali nurposh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Bu misrada ota va onaning farzand hayotidagi o'rni quyosh va oy kabi beqiyos ekanligi ta'kidlanadi. Quyosh va oy tun-kunni yoritgani kabi, ota-ona ham farzand hayotini nurga to'ldiradi, unga yo'l ko'rsatadi. Bu esa farzanddan ularga joni va jismidan ham aziz bo'lgan hurmatni talab etadi. Navoiyning qarashlariga ko'ra, ota-onaga hurmat ularning har bir gapini quloq solish, ularga itoat qilish, ularni ranjitmaslik va har doim duolarini olishga intilishdan iborat. Bu, shuningdek, ularning qadrini bilish va ularga nisbatan doimiy minnatdorlik tuyg'usini saqlashni ham anglatadi.

"Mahbub ul-qulub" asarida esa Navoiy ota-onaga xizmat qilishning savobli ish ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ota-onaning xizmatida bo'lish, ularga moddiy va ma'naviy jihatdan yordam berish insonning dunyo va oxiratdagi saodatiga sabab bo'ladi. Navoiy ushbu asarida turli hikmatlar va nasihatlar orqali farzandlarni ota-onaga mehr-shafqatli bo'lishga, ularni ulug'lashga chaqiradi.

Masalan, Navoiy aytadiki: "Kimki ota-onasining duosini olsa, uning ishlari doim rivojlanadi va u har qanday qiyinchilikdan osonlikcha o'tadi". Bu hikmat ota-ona roziligining hayotdagi barakaga qanchalik ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Milliy qadriyatlar deganda, avvalo, asrlar davomida xalqimizning ma'naviy-axloqiy asosini tashkil etgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan urf-odatlarimiz, an'analarimiz, axloqiy me'yorlarimiz, milliy o'zligimizni belgilovchi tushunchalar majmuini tushunamiz. Bular ona vatanga

muhabbat, uning ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilish, halol mehnat orqali rizq topish, yaratuvchanlikka intilish, kattalarga ehtirom, oila muqaddasligini anglash, insonparvarlik, odamlarga yaxshilik qilish, o‘zaro yordam, bilim olishga intilish, hayot sinovlarida bardoshli bo‘lishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tabiiy savol tug‘iladi: Nega aynan milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasida bu qadar muhim? Birinchidan, milliy qadriyatlar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Bu qadriyatlar ularga to‘g‘ri va noto‘g‘rini ajratishga, hayotda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi. Har bir yosh o‘zining kimligini, qaysi millatga mansubligini anglab yetishi, ajdodlarining boy merosini qadrlashi kerak. Bu uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va mustahkam ma’naviyat egasi bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, globallashuv davrida yoshlarni turli xil salbiy ta’sirlardan himoya qilishda milliy qadriyatlar qalqon bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda axborot maydoni juda keng. Turli g‘oyalar, ma’naviyatimizga yot bo‘lgan madaniyatlar yoshlar ongiga kirib kelmoqda. Mana shunday sharoitda, o‘z milliy qadriyatlarini mustahkam bilgan va ularni qalbida saqlagan yoshgina to‘g‘ri yo‘ldan og‘maydi, turli buzg‘unchi g‘oyalarga berilmaydi.

Uchinchidan, milliy qadriyatlar jamoat birligini mustahkamlaydi. Umumiy qadriyatlarga ega bo‘lgan jamiyat mustahkam va barqaror bo‘ladi. Yoshlarimizni bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishga, Vatani uchun yagona jamoa bo‘lib ishlashga chorlashda milliy qadriyatlarimiz muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, milliy qadriyatlar yoshlarda tarixiy xotirani shakllantiradi. O‘z tarixi, ajdodlari, ularning jasorati va bunyodkorlik ishlaridan xabardor bo‘lish yoshlarda faxr tuyg‘usini uyg‘otadi, ularni buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lishga undaydi.

Bizning vazifamiz – ushbu milliy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirish, ularni hayotining ajralmas qismiga aylantirishdir. Buning uchun ota-onalar farzandlariga o‘zbekona urf-odatlar, an’analar, milliy qadriyatlarni bevosita o‘rgatishi, shaxsiy namuna bo‘lishi lozim. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlar targ‘ibotiga alohida e’tibor qaratilishi, darsliklar va o‘quv jarayonida bu jihatlarni aks ettirilishi shart. Mahallalar milliy qadriyatlarni saqlovchi va targ‘ib etuvchi markazlar bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bu kelajakka yo‘naltirilgan sarmoyadir. Bu sarmoya bizga sog‘lom, ma’naviyatli, vatanparvar va bunyodkor avlodni shakllantirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Avesto” — Zardushtiylik diniy manbasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2015. – 320 bet.
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Sharq, 2000. – 256 bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1998. – 312 bet.
4. Abu Nasr Forobiy. Falsafa asarlari. – Toshkent: Fan, 2010. – 400 bet.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tarix va madaniyat haqida asarlar. – Toshkent: Sharq, 2005. –

### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Tug‘unov Ma’murjon Mamadjonovich**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahri

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MILLIY TARBIIYASI VA AXLOQIY TUSHUNCHALARI SHAKILLANISHIDA O'ZBEK MILLIY ERTAKLARINING TA'SIRI MASALALARI



**Xalikova Guli Toshtemirovna**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti,  
"Umumiy pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarni axloqiy va ma'naviy yuksak etib tarbiyalash dolzarb muammo ekanligi qayd etilgan. Bu borada o'zbek milliy ertaklarining ta'siri masalalari yoritib berilgan.

**MAQSAD:** Maktabgacha yoshdagi bolalar milliy tarbiyasi va axloqiy tushunchalari shakillanishida o'zbek milliy ertaklarining ta'siri masalalarini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Milliy tarbiyaning bosh maqsadi – kishilarni har tomonlama yetuk, axloqiy va ma'naviy pok inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Milliy tarbiya ma'lum bir etnik tarkibning faqat o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlarini: odat, an'ana, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini keyingi avlodga qoldirish jarayonidir. Mazkur jarayon turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunda eng asosiy rolni katta avlod vakillarining kichik avlodga qoldirayotgan bilimlar yig'indisi muhim bo'lib, ular o'z navbatida milliy tarbiyani aks ettiradi.

**XULOSA:** Bolalarining milliy tarbiyasida uning muomala odobi, etika qoidalariga rioya qilishi, boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiyani tarkib toptirish jarayonida bolalarining axloqiy ko'nikma va malakalari tarkib topadi va inson uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bolalar multfilm namoyishidan so'ng barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga baho berishga o'rgatishini angladilar.

**Kalit so'zlar:** milliy tarbiya, ma'naviyat, axloqiy tushunchalar, shaxs xususiyatlari, tarbiya an'analari, ijtimoiy ta'sir, taqlidchanlik.

## ВОПРОСЫ ВЛИЯНИЯ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ И НРАВСТВЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

**Халикова Гули Таштемировна**

*Преподаватель кафедры "Общая педагогика"  
Национального Педагогического Университета имени Низами*

**Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье отмечается, что нравственно-духовное воспитание детей дошкольного возраста является актуальной проблемой. В этой связи освещаются вопросы влияния узбекских национальных сказок.

**ЦЕЛЬ:** Научно проанализировать вопросы влияния узбекских национальных сказок на формирование национального воспитания и нравственных представлений детей дошкольного возраста

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Основная цель национального воспитания - воспитание людей как всесторонне развитых, нравственно и духовно чистых людей. Национальное

воспитание - это процесс передачи следующему поколению свойственных исключительно им черт определенного этноса: обычаев, традиций, образа жизни, социально-экономических знаний. Этот процесс осуществляется посредством различных средств. Главную роль в этом играет сумма знаний, которые представители старшего поколения оставляют младшему поколению, которые, в свою очередь, отражают национальное воспитание.

**ВЫВОД:** В национальном воспитании детей проявляются их этикет, соблюдение правил этики, все проявления их взаимоотношений с окружающими. В процессе развития народного воспитания формируются нравственные навыки и умения детей, формируются необходимые человеку моральные качества. После просмотра мультфильма дети поняли, что их учат различать хорошее и плохое поведение во всех людях, оценивать собственное поведение и поведение товарищей.

**Ключевые слова:** народное воспитание, духовность, нравственные понятия, черты личности, традиции воспитания, социальное влияние, подражание.

## THE INFLUENCE OF UZBEK FOLK TALES ON THE FORMATION OF NATIONAL EDUCATION AND MORAL CONCEPTS OF PRESCHOOL CHILDREN

**Khalikova Guli Tashtemirovna**

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami,  
teacher of the department of "General Pedagogy"

### *Annatation.*

**INTRODUCTION:** *This article notes that the moral and spiritual upbringing of preschool children is an urgent problem. In this regard, the issues of the influence of Uzbek national fairy tales are highlighted.*

**GOAL:** *To scientifically analyze the issues of the influence of Uzbek national fairy tales on the formation of national education and moral concepts of preschool children*

**MATERIALS AND METHODS:** *The main goal of national education is to educate people as fully developed, morally and spiritually pure people. National education is the process of passing on to the next generation the characteristics of a certain ethnic group that are exclusively their own: customs, traditions, lifestyle, socio-economic knowledge. This process is carried out through various means. The main role in this is played by the sum of knowledge that representatives of the older generation leave to the younger generation, which, in turn, reflect national education.*

**CONCLUSION:** *In the national education of children, their etiquette, compliance with the rules of ethics, and all manifestations of their relationship with others are manifested. In the process of developing national education, the moral skills and abilities of children are formed and the moral qualities necessary for a person are formed. After watching the cartoon, children realized that they are taught to distinguish between good and bad behavior in all people, to evaluate their own behavior and the behavior of their comrades.*

**Keywords:** *national education, spirituality, moral concepts, personality traits, upbringing traditions, social influence, imitation.*

*Ma'lumki, hamma zamonlarda yaxshi xulqli, oliyjanob, shirin so'z, go'zal fazilatli insonlar jamiyatning ko'rki, odamlarning a'losi bo'lib kelgan.*

*Bilamizki, insonning ziynati uning tashqi ko'rinishida yoki boyligida emas balki, uning chiroyli odobidadir. Odob - bu insonning xulq-atvori go'zal muomalasi halolligi o'zini toza pokiza tutishligi hamda insoniyligidadir, mazkur masalalari dolzarb ahamiyatlidir.*

*Milliy tarbiyaning bosh maqsadi – kishilarni har tomonlama yetuk, axloqiy va ma'naviy pok inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Milliy tarbiya ma'lum bir etnik tarkibning faqat o'ziga tegishli bo'lgan xususiyatlarini: odat, an'ana, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarini keyingi avlodga qoldirish jarayonidir. Mazkur jarayon turli vositalar orqali amalga oshiriladi. Bunda eng asosiy*

rolni katta avlod vakillarining kichik avlodga qoldirayotgan bilimlar yig'indisi muhim bo'lib, ular o'z navbatida milliy tarbiyani aks ettiradi.

Tadqiqotimizda maktabgacha yosh davridagi bolalarga o'zbek milliy ertaklari asosida suratga olingan «Zumrad va Qimmat», «Egrivoy va To'g'rivoy», «Uch og'ayni botirlar», «No'hat polvon» multfilmlari namoyish qilindi. Tadqiqotda ishtirok etgan barcha bolalar multfilmni tomosha qilganlaridan so'ng ular bilan suhbat olib borildi va olingan natijalar kontent-tahlil qilindi, olingan natijalar 1-jadvalda berilgan.

Olib borgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, milliy tarbiyaga ta'sir etuvchi omillar va qadriyatlarni bolalar qiziqish bilan qabul qilisha olshar ekan,

«Axloqiy tushunchalar»ga mansub bo'lgan odoblilik, mehnatsevarlik, sabrlilik xususiyatlarining tanlanishida 1-o'rinda odoblilik tushunchasi ustunligi ko'rindi. Afsuski, farzand tarbiyasida ajdodlardan meros bo'lib kelgan ana shunday katta tajribaga ega bo'linsa-da, keyingi yillarda ayrim muammolar kuzatilayotganligi sir emas.

1-jadval.

**«Zumrad va Qimmat» multfilmi asosida bolalar axloqiy tushunchalarining kontent-tahlil natijalari**

Kategoriya	Axloqiy tushunchalar	4-5-yosh		6-7-yosh	
		Takrorlanish chastotasi	Nisbiy takrorlanish chastotasi, %	Takrorlanish chastotasi	Nisbiy takrorlanish chastotasi, %
1. Axloqiy tushunchalar	Odoblilik	432	87	365	75
	Mehnatsevarlik	42	8,5	46	9,4
	Sabrlilik	18	3,6	77	16
2. Boshqalarga nisbatan munosabat	Mehribon	245	52	182	48
	Oq ko'ngillilik	28	6	54	14
	Xushmuomala bo'lish	20	4,3	35	10
	G'amxo'rlik qilish, yordam berish	172	36,9	106	28
3. Qadriyatlar	Yaxshilik va yomonlik	139	63,4	96	53
	Kattaga hurmat, kichikka izzat	48	22	30	16
	Sadoqat, sodiqlik	32	14,6	56	31
4. Shaxs fazilati	Aqllilik	55	19	50	20
	Saxiylik	35	12	70	29
	Sarinjom sarishta, tartiblilik	73	25	42	17
	Yaxshi bola bo'lish	126	43,5	84	34
	Zumrad	75	55,5	68	60
	Sehrgar kampir	51	37,7	15	13
	Zumradni otasi	9	6,6	30	27
	Qimmat yomon	42	54,5	49	51
	Ochko'z	10	13	23	24
Odobsiz	25	32,4	24	25	

Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganishi, kuzatishi va o'zini turli hil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganishi shart. Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoiy kishisi qilib tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha yosh davridagi bolalarda milliy tarbiyaning rivojlanishida qanday roli borligini tahlil davomida mehribonlik, g'amxo'rlik va yordamlashish tushunchalari salmoqli o'rin egallagan.

*Milliy tarbiya va milliy madaniyat bola uchun dunyo madaniyatini boyliklarini rivojlantirish, umumbashariy qadriyatlarini o'zlashtirish, ulardan foydalanishini talab etadi. Bolalarning tarbiyalashning o'ziga xos xususiyati atrofida gilar bilan o'zaro munosabatlar jarayonining yunalishi bilan bog'liq.*

1-jadvalda «Qadriyatlar» kategoriyasi bo'yicha ham natijalar berilgan. Milliy tarbiyaning kuchli vositasi bu kattalar bilan bo'lgan munosabat jarayonidir. Bolalar yaxshilik va yomonlikni milliy tarbiyada asosiy qadriyat sifatida baholaganlar. Mazkur kategoriyada 4-5-yoshlilar uchun kattaga hurmat kichikka izzat tushunchasi, 6 va 7-yoshlilar uchun esa, sadoqat, sodiqlik tushunchasi salmoqli o'rin egallagan. «Zumrad va Qimmat» erdagida kattalar bilan munosabatlarda muhimi hurmat, kichiklar bilan munosabatlarda g'amxo'rlik va mas'uliyat, yordam bergan hamda himoya qilganlar bilan munosabatda kattalarga quloq solish va shu bilan birga, o'z-o'ziga ishonchning obyektivlashishi yuz beradi.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda qanday shaxs xususiyatlarining milliy tarbiyada ustunlikka ega ekanligini o'rganishga harakat qildik. Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, «Shaxs fazilati» kategoriyasini yaxshi ekanligini bolalar ta'kidlaganlar.

Ertalarda emotsional va etnik baholashning mavjudligi etnopsixologik stereotiplarning namoyon bo'lishidan darak beradi. Masalan, sabr-toqatlilik, og'ir mehnatga xotirjamlik bilan munosabatda bo'lish, halol mehnat va xatti-harakat bilan munosib mukofotga erishish pozitiv baholashni yuzaga keltiradi hamda munosabat modellarida tanlash yuqori bo'ldi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ertaklar vositasida etnopsixologik stereotiplar shakllanadi va bolalardagi tarbiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «Zumrad va Qimmat» erdagida qizlar tarbiyasi, «Yoriltosh» erdagida opa-singillar ahilligi, «Uch og'ayni botirlar»da tasvirlangan o'gil bolalar, yigitlarga xos mardlik, jasurlik gender etnopsixologik xususiyatlar shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqotda «To'g'rivoy va Egrivoy» multfilmi ham bolalar e'tiborlariga taqdim etildi, bolalar doim sevib tomosha qiladigan multfilmlarning syujetlari va ularning bolalarga bo'lgan ta'siri aniqlandi. Bolalar mazkur multfilmni ham katta qiziqish bilan tomosha qildilar va savollarga samimiy javob berdilar. Suhbat asosida quyidagi kategoriya va kategoriya osti tushunchalari tahlil qilindi.

2-jadvalda «To'g'rivoy va Egrivoy» multfilmi asosida bolalarning fikrlarini tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, milliy tarbiyaga ta'sir etuvchi omillar va qadriyatlarining ustunlikka ega ekanligini ko'rish mumkin. Mazkur multfilm materiallarini «Axloqiy tushunchalar» kategoriyasida 4-5-yoshlilar uchun kattaga hurmat kichikka izzat tushunchasi, 6 va 7-yoshlilar uchun odoblilik tushunchasi ustunligini ko'rishimiz mumkin. Odob-axloq orqali, tarbiyani, tafakkurni, milliy yuksak ongni shakllantirar ekanmiz, komil insonda faqat yaxshi munosabatni yo'lga qo'yish, yaxshi muomala qilishga o'rgatiladi. Insonning qanday kishi bo'lib kamolotga yetishishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiyaga, ota-onaning ma'suliyatiga, bola tarbiyasining umumiy qonuniyatlarini yaxshi bilib, hayotda ularga qanchalik amal qilishiga ham bog'liq.

Tadqiqotda «To'g'rivoy va Egrivoy» erdagida ham milliy tarbiyamizning asoslari bosh g'oya sifatida talqin qilinganini bolajonlar tomonidan anglab yetilganini va ularning bildirgan fikrlari asosida «Qadriyatlar» kategoriyasi bo'yicha tahlillarga erishildi.

**2-jadval.**

**«To'g'rivoy va Egrivoy» multfilmi asosida bolalar axloqiy tushunchalarining kontent-tahlil natijalari**

Kategoriyalar	Axloqiy tushunchalar	Bolalar yoshi			
		4-5-yosh		6-7-yosh	
		Takrorlanish chastotasi	Nisbiy takrorlanish chastotasi, %	Takrorlanish chastotasi	Nisbiy takrorlanish chastotasi, %

<i>Axloqiy tushunchalar</i>	<i>Odoblilik</i>	345	58	340	68
	<i>Mehnatsevarlik</i>	129	22	71	14
	<i>Sabrlilik</i>	118	20	87	18
<i>Atrofdagilarga nisbatan axloqiy munosabatda bo'lish</i>	<i>Mehribon</i>	145	38	142	38
	<i>Oq ko'ngil</i>	58	15	54	14
	<i>Xushmuomala</i>	29	10	55	15
	<i>G'amxo'rlik, yordamlashish</i>	142	37	116	33
<i>Qadriyatlar</i>	<i>Yaxshilik va yomonlik</i>	120	51	90	50
	<i>Kattaga hurmat, kichikka izzat</i>	58	25	36	20
	<i>Sadoqat, sodiq</i>	57	24	53	30
<i>Shaxs fazilati</i>	<i>Aqlli</i>	49	17	53	22
	<i>Saxiy</i>	33	11	60	25
	<i>Saranjom-sarishta, tartibli</i>	75	27	52	21
	<i>Yaxshi o'qish</i>	126	45	81	32
	<i>Kim to'g'ri ish qildi</i>				
	<i>To'g'rivoy</i>	75	55	70	60
	<i>To'g'rivoyning onasi</i>	60	45	46	40
	<i>Kim odobsiz</i>				
	<i>Egrivoy yomon</i>	47	57	51	53
	<i>O'g'ri, qo'rqoq</i>	15	18	22	23
<i>Odobsiz</i>	20	25	23	24	

Milliy tarbiyaning kuchli vositasi bu kattalar bilan bo'lgan munosabat jarayonidir. Bolalar yaxshilik va yomonlikni milliy tarbiyada asosiy qadriyat sifatida baholaganlar. Mazkur kategoriyada 4-5-yoshli bolalar uchun kattaga hurmat, kichikka izzat tushunchasi, 6-7-yoshlilar uchun esa, sadoqat, sodiqlik tushunchasi salmoqli o'rin egallagan. «To'g'rivoy va Egrivoy» ertagida kattalar bilan munosabatlarda muhimi hurmat, kichiklar bilan munosabatlarda g'amxo'rlik va mas'uliyat, yordam bergan hamda himoya qilganlar bilan munosabatda kattalarga quloq solish va shu bilan birga, o'z-o'ziga ishonchning obyektivlashishi yuz beradi.

*Kim to'g'ri ish qildi va kim odobsiz deb fikrlashlari orqali tarbiyaning asosiy mag'ziga yetib borildi. Bolalar To'g'rivoy obrazi orqali va uning xatti-harakatlari, insoniy fazilatlarini, munosabatlari orqali har bir yaxshi tarbiyali insonda shunday fazilatlar bo'lishi kerakligini anglab yetadilar. Egrivoy obrazi orqali esa xudbin, ochko'z, dangasa inson bu juda tarbiyasiz inson ekanligini anglab yetganlar.*

Milliy tarbiyani bolalar rivojlanishi jarayonida multfilmlarning roli ham katta ekanligini tadqiqotda isbotlandi. Hayotdagi turli narsa va hodisalarga munosabatlar, idrokning ijobiy va salbiy darajasi multfilmlarlar orqali ham namoyon bo'ladi. Milliy tarbiyaning kuchli vositasi bu kattalar bilan bo'lgan munosabat jarayonidir. Bolaning mazkur yoshiga munosib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan milliy urf-odatlar bolalarda milliy tarbiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarining milliy tarbiyasida uning muomala odobi, etika qoidalariga rioya qilishi, boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Milliy tarbiyani tarkib toptirish jarayonida bolalarining axloqiy ko'nikma va malakalari tarkib topadi va inson uchun zarur bo'lgan axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bolalar multfilm namoyishidan so'ng barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga baho berishga o'rgatishini angladilar. Bular: odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, oliyjanoblik, oliyhimmatlilik, baynalminallik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi muomala. Mana shu sifatlarni bolalarda shakllantirish uchun turli xil usul va vositalarni ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, unga mos ishlanmalar yaratish, milliy tarbiyalashda bolalarning yoshini hisobga olish va ularning yoshlariga mos holda pedagogik va psixologik ta'sir ko'rsatish usullarini tanlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik

ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Tadqiqot maqsadidan ma'lum bo'ldiki, bolalarni tarbiyalash jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish ham ular xulqida ijobiy fazilatlarni shakllantirishda milliy asar qahramonlarining roli ta'sirli ekanligi aniqlandi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040 qarori <https://lex.uz/docs/-5344692>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorih [tps://lex.uz/docs/-4676839](https://lex.uz/docs/-4676839)
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
4. Abdulla Avloniy turkey guliston yohud axloq/ - T.: «O'qituvchi», 1992 - 14-b.
5. Божович, Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте СПб Питер, 2008,
6. Gaynutdinov R.Z. O'qituvchiga tarbiya psixologiyasi haqida. – T.: Fan, 2007. – 88 b.
7. Маргарет Мид. Культура и мир детства. – М.: Глав. ред. восточ. литературы, 1988.
8. Mamatov M. "Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari" – T.: "O'zbekiston",
9. Mavrulov A. "Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi". – Toshkent: O'zbekiston, 2008, – 80
10. Musurmonova O. Oilada bola tarbiyasining aktual masalalari. –Toshkent, 1988. – 174
11. Nishonova Z.T. "Oquvchilarda milliy xususiyatlarni tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari". T.: Adabiyot uchqunlari.2018.-B.125

#### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Xalikova Guli Toshtemirovna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti,  
 "Umumiy pedagogika" kafedrasini o'qituvchisi  
 Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

## EKSTREMAL VAZIYATL ARDA MADANIY FARQLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH



**Avezov Olmos Ravshanovich**  
*Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Tadqiqotda madaniyatlararo psixologiya, travmadan keyingi rehabilitatsiya va krizis holatlarida yordam ko'rsatish metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, turli etnik va dini guruhlarga mansub shaxslar bilan ishlashda ehtiyotkorlik, empatiya va kommunikatsiya uslublarini sozlash zarurati asoslanadi. Amaliy jihatdan, ushbu mavzu favqulodda vaziyatlarda faoliyat yurituvchi psixologlar, ijtimoiy ishchilar hamda tibbiy xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot ekstremal vaziyatlarda (tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, pandemiya va boshqa favqulodda holatlar) psixologik yordam ko'rsatish jarayonida madaniy farqlarning rolini o'rganishga bag'ishlangan. Har bir jamiyat o'ziga xos ijtimoiy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy normalarga ega bo'lib, bu omillar insonlarning stressga bo'lgan munosabati va uni yengib o'tish strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, psixologik yordam jarayonida madaniy kontekstni inobatga olish - yordamning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

**MAQSAD:** Ekstremal vaziyatlarda (tabiiy ofatlar, ijtimoiy zo'riqishlar, urush, migratsiya kabi holatlar) psixologik yordam ko'rsatish jarayonida insonlarning madaniy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlari va ijtimoiy xulq-atvoriga xos xususiyatlarni hisobga olish orqali samarali va empatik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda turli madaniyat vakillarining psixologik barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan tizimli yordam ko'rsatish usullarini shakllantirish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Ushbu tadqiqotda ekstremal vaziyatlarga tushgan shaxslar bilan ishlashda madaniy farqlarni hisobga olish orqali psixologik yordam ko'rsatishning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlar asosida olib borildi:

1. *Tadqiqotda turli millat va madaniyatga mansub, ekstremal vaziyatlarni (tabiiy ofat, ijtimoiy mojarolar, zo'ravonlik, qochqinlik holatlari) boshidan kechirgan 100 nafar ishtirokchi (yosh oralig'i 18–60) jalb etildi. Ishtirokchilar jins, yoshi, diniy e'tiqodi va ijtimoiy holatiga ko'ra turlicha guruhlarga ajratildi.*

2. *Tadqiqot O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan favqulodda vaziyatlarga qarshi kurashish markazlari, qochqinlar lagerlari va rehabilitatsiya markazlarida olib borildi. Har bir mintaqada mahalliy madaniyatga moslashgan tarzda muomala va interv'yu uslublari tanlandi.*

3. *Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:*

o *Suhbat va yarim strukturalangan intervyular* – Ishtirokchilarning boshidan kechirgan holatlari, ehtiyojlari va madaniy jihatdan sezgirlik darajasi aniqlash maqsadida;

o *Psixologik testlar va so'rovnomalalar* – *Travma darajasi, stressga chidamlilik, madaniy kompetensiya darajasini aniqlovchi standartlashtirilgan testlar (masalan, "Brief COPE", "Cultural Intelligence Scale");*

o *Kuzatuv va holat tahlili* – *Psixologik yondashuvlar samaradorligini real sharoitda baholash.*

4. *Madaniy farqlarni hisobga olishda Hofstede modeli (madaniy o'lchovlar), Berry'ning madaniy moslashuv modeli hamda interkultural kompetensiya tamoyillariga asoslanildi. Har bir*

guruhga mos, til, din, urf-odat va gender sezgirligini inobatga oluvchi psixologik yondashuvlar ishlab chiqildi.

5. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida baholandi. Statistik tahlil SPSS dasturi yordamida amalga oshirildi. Suhbatlardan olingan matnlar kontent-tahlil orqali tizimlashtirildi.

6. Tadqiqot davomida barcha ishtirokchilarning shaxsiy roziligi olindi. Ularning shaxsiy axboroti maxfiy saqlanishi va psixologik xavfsizlik kafolatlandi. Madaniy jihatdan sezgir yondashuv qo'llanildi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, ekstremal vaziyatlarda samarali psixologik yordam ko'rsatish uchun madaniy farqlarga hurmat bilan yondashish, madaniy kompetentlikni oshirish va individual yondashuvni qo'llash psixologik barqarorlikni tiklashda muhim omil hisoblanadi. Bu esa nafaqat yordam olayotgan shaxsning ruhiy sog'ligiga, balki umumiy ijtimoiy tiklanish jarayoniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Ekstremal vaziyatlar, psixologik yordam, madaniy farqlar, madaniyatlararo kommunikatsiya, stress va travma, favqulodda holatlar psixologiyasi, madaniyatga mos yondashuv, inson psixikasi, empatiya va tushunish, xalqaro psixologik yordam, mahalliy mentalitet, psixologik moslashuv, madaniyatlararo sezgirlik, yordamga bo'lgan ehtiyoj, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar, xatarli holatlarda muomala, travmadan keyingi rehabilitatsiya, qochqinlar va ko'chkinlarga yordam, jamiyatga integratsiya, individual va guruhviy yondashuvlar.

## ОКАЗАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ С УЧЕТОМ КУЛЬТУРНЫХ РАЗЛИЧИЙ

**Авезов Олмос Равшанович**

*Азиатский международный университет, Бухара*

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В исследовании анализируются межкультурная психология, посттравматическая реабилитация и методы оказания помощи в кризисных ситуациях. Обосновывается необходимость осторожности, эмпатии и корректировки стилей общения при работе с лицами разных этнических и религиозных групп. На практике данная тема позволяет разрабатывать методические рекомендации для психологов, социальных работников и медицинского персонала, работающих в чрезвычайных ситуациях.

Данное исследование посвящено изучению роли культурных различий в процессе оказания психологической помощи в экстремальных ситуациях (стихийные бедствия, вооруженные конфликты, пандемии и другие чрезвычайные ситуации). Каждое общество имеет свои социальные ценности, обычаи и культурные нормы, и эти факторы напрямую влияют на реакцию людей на стресс и стратегии его преодоления. Поэтому учет культурного контекста в процессе оказания психологической помощи является важным фактором повышения эффективности помощи.

**ЦЕЛЬ:** Разработать эффективные и эмпатические подходы к оказанию психологической помощи в экстремальных ситуациях (стихийные бедствия, социальная напряженность, война, миграция) с учетом культурных ценностей, религиозных убеждений, традиций и особенностей социального поведения людей, а также сформировать системные методы оказания помощи, направленные на обеспечение психологической устойчивости представителей разных культур.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В данном исследовании был использован комплексный подход для определения эффективности оказания психологической помощи с учетом культурных различий при работе с лицами, находящимися в экстремальных ситуациях. Исследование проводилось по следующим этапам:

1. В исследовании приняли участие 100 человек (возрастной диапазон 18–60 лет) разных национальностей и культур, переживших экстремальные ситуации (стихийные бедствия,

социальные конфликты, насилие, ситуации беженцев). Участники были разделены на разные группы по полу, возрасту, религиозным убеждениям и социальному статусу.

2. Исследование проводилось в центрах реагирования на чрезвычайные ситуации, лагерях беженцев и реабилитационных центрах, расположенных в разных регионах Узбекистана. В каждом регионе методы лечения и интервьюирования выбирались с учетом местной культуры.

3. В исследовании использовались следующие методы:

о Интервью и полуструктурированные интервью — для определения опыта, потребностей и уровня культурной чувствительности участников;

о Психологические тесты и анкеты — стандартизированные тесты для определения уровня травмы, стрессоустойчивости, культурной компетентности (например, «Краткий СОРЕ», «Шкала культурного интеллекта»);

о Наблюдение и анализ случаев — для оценки эффективности психологических подходов в реальных условиях.

4. При учете культурных различий использовались модель Хофстеда (культурные измерения), модель культурной адаптации Берри и принципы межкультурной компетентности. Были разработаны психологические подходы, соответствующие каждой группе, с учетом языка, религии, обычаев и гендерной чувствительности.

5. Полученные данные оценивались на основе качественного и количественного анализа. Статистический анализ проводился с помощью программы SPSS. Полученные в ходе интервью тексты систематизировались с помощью контент-анализа.

6. В ходе исследования от всех участников было получено личное согласие. Конфиденциальность их личной информации и психологическая безопасность были гарантированы. Использовался культурно-чувствительный подход.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** В заключение следует отметить, что для оказания эффективной психологической помощи в экстремальных ситуациях важными факторами восстановления психологической устойчивости являются уважение культурных различий, повышение культурной компетентности и применение индивидуального подхода. Это оказывает положительное влияние не только на психическое здоровье человека, получающего помощь, но и на общий процесс социального восстановления.

**Ключевые слова:** Экстремальные ситуации, психологическая помощь, культурные различия, межкультурная коммуникация, стресс и травма, психология чрезвычайных ситуаций, культурно-соответствующий подход, психика человека, эмпатия и понимание, международная психологическая помощь, местный менталитет, психологическая адаптация, межкультурная чувствительность, потребность в помощи, этические и нормативные ценности, поведение в опасных ситуациях, посттравматическая реабилитация, помощь беженцам и перемещенным лицам, интеграция в общество, индивидуальные и групповые подходы.

## PROVIDING PSYCHOLOGICAL SUPPORT IN EXTREME SITUATIONS TAKING INTO ACCOUNT CULTURAL DIFFERENCES

Avezov Olmos Ravshanovich  
*Asian International University, Bukhara*

### Annatation.

**INTRODUCTION:** The study analyzes intercultural psychology, post-traumatic rehabilitation and methods of providing assistance in crisis situations. It also substantiates the need for caution, empathy and adjustment of communication styles when working with individuals of different ethnic and religious groups. In practical terms, this topic allows developing methodological recommendations for psychologists, social workers and medical personnel working in emergency situations.

This study is devoted to studying the role of cultural differences in the process of providing psychological assistance in extreme situations (natural disasters, armed conflicts, pandemics and

other emergencies). Each society has its own social values, customs and cultural norms, and these factors directly affect people's reactions to stress and strategies for overcoming it. Therefore, taking into account the cultural context in the process of psychological assistance is an important factor in increasing the effectiveness of assistance.

**GOAL:** To develop effective and empathetic approaches to providing psychological assistance in extreme situations (such as natural disasters, social tensions, war, migration) by taking into account the cultural values, religious beliefs, traditions and characteristics of people's social behavior, and to form systematic methods of providing assistance aimed at ensuring the psychological stability of representatives of different cultures.

**MATERIALS AND METHODS:** In this study, a comprehensive approach was used to determine the effectiveness of providing psychological assistance by taking into account cultural differences when working with individuals in extreme situations. The study was conducted based on the following stages:

1. The study involved 100 participants (age range 18–60) of different nationalities and cultures who had experienced extreme situations (natural disasters, social conflicts, violence, refugee situations). Participants were divided into different groups according to gender, age, religious beliefs and social status.

2. The study was conducted in emergency response centers, refugee camps and rehabilitation centers located in different regions of Uzbekistan. In each region, treatment and interview methods were selected in a manner adapted to the local culture.

3. The following methods were used in the study:

- o Interviews and semi-structured interviews - to determine the experiences, needs and level of cultural sensitivity of the participants;
- o Psychological tests and questionnaires - standardized tests to determine the level of trauma, stress tolerance, cultural competence (for example, "Brief COPE", "Cultural Intelligence Scale");
- o Observation and case analysis - to assess the effectiveness of psychological approaches in real conditions.

4. In taking into account cultural differences, the Hofstede model (cultural dimensions), Berry's cultural adaptation model and the principles of intercultural competence were used. Psychological approaches were developed that were appropriate for each group, taking into account language, religion, customs and gender sensitivity.

5. The data obtained were evaluated based on qualitative and quantitative analysis. Statistical analysis was carried out using the SPSS program. The texts obtained from the interviews were systematized through content analysis.

6. Personal consent was obtained from all participants during the study. Confidentiality of their personal information and psychological safety were guaranteed. A culturally sensitive approach was used.

**CONCLUSION:** In conclusion, in order to provide effective psychological assistance in extreme situations, respecting cultural differences, increasing cultural competence and applying an individual approach are important factors in restoring psychological stability. This has a positive effect not only on the mental health of the person receiving assistance, but also on the overall social recovery process.

**Keywords:** Extreme situations, psychological assistance, cultural differences, intercultural communication, stress and trauma, psychology of emergency situations, culturally appropriate approach, human psyche, empathy and understanding, international psychological assistance, local mentality, psychological adaptation, intercultural sensitivity, need for assistance, ethical and normative values, behavior in dangerous situations, post-traumatic rehabilitation, assistance to refugees and displaced persons, integration into society, individual and group approaches.

Ekstremal vaziyatlar inson psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan holatlardir. Bunday holatlarga tabiiy ofatlar, urushlar, pandemiyalar va texnogen falokatlar kiradi. Insonlar bunday vaziyatlarda stress, xavotir va depressiya holatlariga duch keladilar. Psixologik yordam bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, madaniy xilma-xillikka ega jamiyatlarda bu yordamni ko'rsatishda

ehtiyotkorlik zarur. Har bir madaniyatning stressga bo‘lgan munosabati va yechim uslubi farq qiladi. Shu bois, psixologlar individual yondashuvga tayanishlari kerak. Madaniy tafovutlar yordamning qabul qilinishi va samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Xalqaro tajribalar ham bu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ekstremal vaziyatlarda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari ham zarur bo‘ladi.

Insonlar turli madaniy muhitda ulg‘ayganligi sababli, ularning stressga bo‘lgan javoblari ham farq qiladi. Ba‘zi jamiyatlarda his-tuyg‘ularni yashirish odat bo‘lsa, boshqalarda ularni ochiq ifoda etish normal hisoblanadi. Shu sababli, bir xil psixologik yordam usuli barcha guruhlar uchun samarali bo‘lmaydi. Psixologik intervensiyalar madaniy kontekstni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Bu yondashuv madaniyatga mos va hurmatli bo‘lishi zarur. Masalan, jamoaviy madaniyatlarda guruhli terapiya ko‘proq foydali bo‘ladi. Yakkahollikka moyil madaniyatlarda esa individual yondashuv afzal ko‘riladi. Madaniyatlararo farqlarni hisobga olmaslik yordam jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Shu bois, psixologlar madaniy kompetensiyani rivojlantirishlari zarur. Ushbu ko‘nikmalar xalqaro tashkilotlar tomonidan ham alohida urg‘u bilan o‘rganilmoqda.

1-jadval

### Ekstremal vaziyatlardagi psixologik salomatlik

Mamlakat	Ekstremal holatlardan keyingi PTSD foizi (%)
Afg‘oniston	42
Ukraina	35
AQSh	18
Yaponiya	14
Pokiston	33

Ushbu jadvalda ko‘rinib turibdiki, turli madaniy va siyosiy sharoitga ega mamlakatlarda ekstremal vaziyatdan so‘ng stress buzilishlari darajasi turlicha. Bu farqlar nafaqat holat og‘irligiga, balki psixologik yordam tizimining ishlashi va madaniy munosabatlarga bog‘liq. Afg‘oniston va Pokistonda yuqori ko‘rsatkichlar notinchlik va resurslar tanqisligi bilan bog‘liq. Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatda esa yordam tizimi kuchli bo‘lgani sababli darajalar past. Psixologik yondashuvlarda bu farqlarni hisobga olish zarur. Har bir jamiyat o‘z qadriyatlarini asosida ruhiy salomatlikni boshqaradi. Shu bois, madaniy moslashuv yondashuvi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa psixologlar uchun ko‘proq tayyorgarlikni talab qiladi. Ular har bir jamiyatning ruhiy ehtiyojlarini chuqur tushunishlari kerak.

Madaniy kompetensiya – bu psixologning turli madaniy guruhlariga nisbatan sezgirlik va tushunish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma yordamni professional va foydali qiladi. Madaniyatni tushunmay turib, yordam jarayoni yuzaki bo‘lib qoladi. Masalan, diniy qadriyatlar yoki an‘anaviy urf-odatlar psixoterapiya usullariga ta‘sir qilishi mumkin. Shuningdek, ba‘zi guruhlar ruhiy muammolarni “sharmanda” deb bilishi mumkin. Bunday holatda yordam so‘rash kechikadi yoki rad etiladi. Psixologlar madaniy ta‘sir omillarni chuqur o‘rganishlari zarur. Madaniyatga moslashtirilgan terapiya usullari yuqori natija beradi. Bu esa psixologik yordamning universal emas, balki moslashtirilgan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Har bir intervensiya doirasida madaniy kontekst muhim o‘rin tutadi.

2-jadval

### Madaniy kompetensiyaga ega mutaxassislar soni

Mamlakat	Madaniy kompetensiyaga ega psixologlar foizi (%)
AQSh	76
Germaniya	64
O‘zbekiston	29
Hindiston	35

Mamlakat	Madaniy kompetensiyaga ega psixologlar foizi (%)
Braziliya	41

Mazkur jadvalda ko'rsatilganidek, rivojlangan davlatlarda madaniy kompetensiyaga ega psixologlar soni yuqoriroq. Bu esa psixologik yordam sifatining oshishiga olib keladi. O'zbekiston va Hindiston kabi davlatlarda bu ko'rsatkich pastroq. Bu kamchiliklar mahalliy psixologik ta'lim tizimida madaniy yondashuvga yetarlicha e'tibor berilmasligi bilan bog'liq. Shu sababli, bu yo'nalishda islohotlar zarur. Yangi avlod psixologlarini tayyorlashda bu kompetensiyalarga e'tibor kuchaytirilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ham bu borada ko'plab treninglar tashkil etmoqda. Shuningdek, transmilliy muammolar oldida madaniy kompetensiya yana-da muhim bo'lmoqda. Global muammolarga javob topish mahalliy madaniy kontekstni hisobga olishni talab qiladi.

Ishonchni tiklash ekstremal vaziyatdan so'ng ruhiy barqarorlik uchun zarur. Psixologik yordam faqat maslahat bilan emas, balki empatiya bilan boyitilishi kerak. Madaniyatlarda empatiya ifodasi ham turlicha bo'lishi mumkin. Ba'zilar tana harakati bilan ifoda etilsa, boshqalarda og'zaki ifoda ustuvor bo'ladi. Madaniy empatiya — bu boshqa madaniyatdagi insonning his-tuyg'usini tushunish va hurmat qilishdir. Ishonchni tiklashda bu yondashuv yordamning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, jamiyat yetakchilari bilan hamkorlik ishonchni tezroq shakllantirishga yordam beradi. Mahalliy liderlar yordamni “o'zlari tomonidan ma'qullangan” deb e'lon qilishlari foydali bo'ladi. Bu esa madaniy qulaylik va ruhiy himoyani mustahkamlaydi. Madaniyatga mos yondashuv — bu ishonchga olib boruvchi eng muhim omildir.

Tillar va ifoda vositalari psixologik yordamda markaziy o'rin tutadi. Har bir tilda muammolarni ifodalash shakli har xil bo'ladi. Ba'zi tillarda ruhiy salomatlikka oid so'zlar kam yoki noaniq bo'ladi. Bu esa muammolarni tushunishda psixolog uchun qiyinchilik tug'diradi. Madaniyatlarda og'zaki bo'lmagan aloqa (mimika, tana harakati) ko'proq ma'lumot beradi. Psixologlar bu signallarni to'g'ri talqin qila olishlari kerak. Tarjimonlar yordamida olib borilgan terapiyalar ham o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Tarjimonda ham madaniy sezgirlilik bo'lishi zarur. Aks holda, ma'lumot noto'g'ri yoki yuzaki yetkazilishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot bo'yicha maxsus treninglar shartdir. Bu treninglar psixologlarning samaradorligini oshiradi.

Mahalliy sharoitda psixologik yordamni yo'lga qo'yish ekstremal vaziyatlarda dolzarbdir. Tashqi yordam har doim mavjud emas, shu bois mahalliy mutaxassislar tayyorlanishi zarur. Psixologik yordam tizimi madaniyatga mos shakllantirilgan bo'lishi kerak. Mahalliy tillarda resurslar yaratish foydali bo'ladi. Shuningdek, an'anaviy davolash uslublari bilan hamkorlik qilinishi mumkin. Masalan, ruhoniylar, tabiblar va oqsoqollar bilan ishlash samarali natijalar beradi. Mahalliy yordam tizimi aholining ishonchini qozonishga yordam beradi. Bu tizimga jamoatchilikni jalb qilish kerak. Yoshlarni psixologiya sohasiga jalb etish ham uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Bu boradagi islohotlar ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

Ayollar va bolalar ekstremal vaziyatlarda eng ko'p ta'sirlanadigan guruhlardir. Ularning psixologik ehtiyojlari alohida ko'rib chiqilishi zarur. Madaniyatlarda ayollarning ovozi kamroq eshitaladi, bu holat yordam olishda to'siq bo'ladi. Bolalar esa travmani tushunishga va ifoda etishga qiynaladilar. Madaniyatlarda bolalarga nisbatan munosabat ham turlicha. Ba'zi jamiyatlarda bolalar hissiy ifodaga undirilmaydi. Psixologlar bu holatni inobatga olib ish yuritishlari kerak. Genderga oid stereotiplar yordam olishga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, erkaklar “kuchli bo'lishi shart” degan qarash yordam so'rashni cheklaydi. Bunday madaniy to'siqlarni aniqlab, yo'q qilish zarur. Har bir yosh va jins vakiliga mos yondashuv ishlab chiqilishi shart.

Ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatishda madaniy farqlarni hisobga olish zaruriy ehtiyojdir. Bu nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki yordamning samaradorligini oshirishdir. Madaniy kompetensiyaga ega bo'lgan psixologlar ko'proq foydali bo'lishadi. Yordamning madaniy mosligi ishonchni mustahkamlaydi va natijani tezlashtiradi. Psixologik ta'limda madaniyatlararo yondashuv keng joriy etilishi kerak. Psixologlar doimiy ravishda treninglarda ishtirok etib, tajriba almashishlari lozim. Mahalliy va xalqaro tashkilotlar bu borada hamkorlikni kuchaytirishlari kerak. Madaniy farqlarni inobatga olish ekstremal sharoitda ijtimoiy barqarorlikning kafolatidir. Har bir

insonning madaniyati va qadriyatlari inobatga olingan yondashuv — insonparvarlikning asosi hisoblanadi. Shu bois bu yo‘nalish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishda davom etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT KORSATISH PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI. *MASTERS*, 2(1), 52-55.
2. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 747-752.
3. АВЕЗОВ, О. Р. (2023, March). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА СТРЕССБАРДОШЛИЛИК ТУШУНЧАСИ. In *E Conference Zone* (pp. 63-67).
4. Ravshanovich, A. O. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING ASOSIY YO‘NALISHLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(28), 18-22.
5. Ravshanovich, A. O., & Tavakkal o‘g‘li, S. S. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA TA‘LIM–TARBIYA BERISHDA IJODIY O‘YINLARNING AMALIY AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 2(14), 344-347.
6. Gafurova, F. O., & Avezov, O. R. (2024). PSIXOLOGIYADA SHAXS IDENTIVLIGI MUAMMOSINI TADQIQ QILISH. *Ta‘lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 19(2), 33-37.
7. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o‘rni. *Science and Education*, 3(4), 753-759.
8. Avezov, O. R., & To, A. S. O. G. L. (2022). Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 3(4), 717-724.
9. Avezov, O. R. (2024). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PSYCHOLOGICAL EFFECTS ON PERSONS IN EXTREME AND EMERGENCY SITUATIONS. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(1), 85-90.

#### MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

##### Avezov Olmos Ravshanovich

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

olmosavezov9@gmail.com

ORCID: 0000-0003-0622-3419

## REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA HAYOT SIFATI KO'RSATKICHLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI



**Latipova Umida Yusufboyevna**

*Ma'mun unuversiteti "Psixologiyik xizmat" ilmiy-o'quv tadqiqot markazi boshlig'i (PhD) dotsent,*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada reproduktiv davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida shakllanadigan hayot sifati ko'rsatkichlarining psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda ayollarning jismoniy, emotsional va psixik salomatlikka oid ko'rsatkichlari baholandi. Sog'lom va kasalligi bor ayollar guruhlarini o'rtasida hayot sifati shkalalari bo'yicha ishonchli tafovutlar aniqlanib, reproduktiv salomatlik buzilishlari sharoitida hayot sifati ko'rsatkichlarining pasayishi kuzatildi.

**MAQSAD:** Reproductive davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida shakllanadigan hayot sifati ko'rsatkichlarining jismoniy, emotsional va psixik salomatlik aspektlari bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash hamda sog'lom va kasalligi bor ayollar guruhlarini o'rtasida hayot sifati shkalalari bo'yicha ishonchli tafovutlarni baholashdan.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Tadqiqotda reproduktiv davrdagi 406 nafar ayol ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga bo'lindi: 110 nafar ayol — reproduktiv salomatlik bilan bog'liq turli kasalliklari mavjud bo'lgan ayollar (asosiy guruh) 296 nafar ayol — shartli sog'lom ayollar (nazorat guruhi) Tadqiqot davomida ayollarning hayot sifati The Medical Outcomes Study 36-Item Short Form Health Survey (SF-36) — "36 savoldan iborat Hayot sifati umumiy so'rovnomasi" asosida baholandi.

Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish uchun Mann–Whitney U testi qo'llanildi. Statistik tahlillar orqali sog'lom va kasalligi bor ayollar guruhlarini o'rtasida hayot sifati shkalalari bo'yicha ishonchli tafovutlar mavjudligi aniqlashga qaratildi.

**XULOSA:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida hayot sifati ko'rsatkichlarining barcha asosiy shkalalari bo'yicha ishonchli pasayishi kuzatiladi. Sog'lom ayollar guruhida hayot sifati shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan bo'lsa, kasalligi mavjud bo'lgan ayollar guruhida ushbu ko'rsatkichlarning sezilarli darajada pasayganligi aniqlandi. Jismoniy harakatchanlik, hayotiy faollik va ijtimoiy faollikning cheklanishi, shuningdek, og'riqning intensivligi va salomatlikning umumiy holatining pasayishi ayollarning kundalik faoliyati va ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, emotsional holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik va psixik salomatlik ko'rsatkichlarining pastligi, kasalliklar fonida emotsional beqarorlik, tashvishlanish va psixologik izolyatsiya holatlarining ortishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Reproductive davr, hayot sifati, jismoniy salomatlik, emotsional holat, psixik salomatlik, hayotiy faollik, og'riq intensivligi, ijtimoiy faollik, salomatlikning umumiy holati.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

**Латипова Умида Юсуфбоевна**

*Руководитель научно-образовательного исследовательского центра «Психологическая служба» Университета Маъмуна (PhD) доцент*

**Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье изучены психологические особенности показателей качества жизни, сформированных на фоне различных заболеваний у женщин репродуктивного возраста. В ходе исследования оценивались показатели физического, эмоционального и психического здоровья женщин. Выявлены значимые различия по шкалам качества жизни между группами здоровых и больных женщин, а также отмечено снижение показателей качества жизни в условиях нарушения репродуктивного здоровья.

**ЦЕЛЬ:** Определить изменения показателей качества жизни, сформированных на фоне различных заболеваний у женщин репродуктивного возраста по аспектам физического, эмоционального и психического здоровья, и оценить значимые различия по шкалам качества жизни между группами здоровых и больных женщин.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В исследовании приняли участие 406 женщин репродуктивного возраста. Участницы исследования были разделены на две группы: 110 женщин - женщины с различными заболеваниями, связанными с репродуктивным здоровьем (основная группа) 296 женщин - условно здоровые женщины (контрольная группа) В ходе исследования качество жизни женщин оценивалось на основе 36-пунктного краткого опросника здоровья (SF-36) The Medical Outcomes Study - «Общий опросник качества жизни, состоящий из 36 вопросов».

Для статистического анализа результатов исследования использовался U-критерий Манна-Уитни. Статистический анализ был направлен на выявление наличия достоверных различий по шкалам качества жизни между группами здоровых и больных женщин.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Результаты исследования показали, что у женщин репродуктивного возраста на фоне различных заболеваний наблюдается достоверное снижение всех основных шкал показателей качества жизни. В то время как у здоровых женщин были более высокие баллы по шкалам качества жизни, в группе женщин с заболеванием наблюдалось достоверное снижение данных показателей. Ограничение физической подвижности, жизнедеятельности и социальной активности, а также интенсивность боли и снижение общего самочувствия негативно влияют на повседневную деятельность и социальную жизнь женщин. Кроме того, низкий уровень ролевой подвижности и показателей психического здоровья, обусловленный эмоциональным состоянием, свидетельствует о нарастании эмоциональной неустойчивости, тревожности и психологической изоляции на фоне заболеваний.

**Ключевые слова:** Репродуктивный период, качество жизни, физическое здоровье, эмоциональное состояние, психическое здоровье, жизнедеятельность, интенсивность боли, социальная активность, общее самочувствие.

## PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF QUALITY OF LIFE INDICATORS IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

**Latipova Umida Yusufboyevna**

Head of the Scientific and Educational Research Center  
"Psychological Service" of Mamun University (PhD), Associate Professor

**Annotation.**

**INTRODUCTION:** This article studies the psychological characteristics of quality of life indicators formed against the background of various diseases in women of reproductive age. The study assessed the indicators of physical, emotional and mental health of women. Significant differences were found in the quality of life scales between groups of healthy and sick women, and a decrease in quality of life indicators was observed in conditions of reproductive health disorders.

**GOAL:** To determine changes in the quality of life indicators formed against the background of various diseases in women of reproductive age in terms of physical, emotional and mental health aspects, and to assess significant differences in the quality of life scales between groups of healthy and sick women.

**MATERIALS AND METHODS:** The study involved 406 women of reproductive age. The study participants were divided into two groups: 110 women - women with various diseases related to reproductive health (main group) 296 women - conditionally healthy women (control group)

During the study, the quality of life of women was assessed based on The Medical Outcomes Study 36-Item Short Form Health Survey (SF-36) - "General Quality of Life Questionnaire consisting of 36 questions".

The Mann–Whitney U test was used to statistically analyze the results of the study. Statistical analysis was aimed at identifying the presence of reliable differences in the quality of life scales between the groups of healthy and diseased women.

**CONCLUSION:** The results of the study showed that women of reproductive age, against the background of various diseases, have a reliable decrease in all main scales of quality of life indicators. While the healthy women had higher scores on the quality of life scales, the group of women with the disease showed a significant decrease in these indicators. The limitation of physical mobility, vital activity and social activity, as well as the intensity of pain and the decrease in the general state of health, negatively affect the daily activities and social life of women. In addition, the low level of role mobility and mental health indicators, conditioned by the emotional state, indicates an increase in emotional instability, anxiety and psychological isolation against the background of diseases.

**Keywords:** Reproductive period, quality of life, physical health, emotional state, mental health, vital activity, intensity of pain, social activity, general state of health.

Ayollarning reproduktiv davridagi salomatligi inson salomatligi va farovonligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi ayollarda hayot sifati ko'plab omillar, jumladan, fiziologik, psixologik va ijtimoiy holatlar bilan chambarchas bog'liqdir [1]. Reprodukativ davr mobaynida organizmda yuz beradigan biologik va gormonal o'zgarishlar ayollarning hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1],[3]. Hayot sifati tushunchasi hozirgi davrda integral ko'rsatkich sifatida qaraladi va insonning jismoniy, emotsional, psixik holati, shuningdek, ijtimoiy faolligi va umumiy sog'liq holati kabi jihatlarni o'z ichiga oladi [2]. Reprodukativ salomatlik buzilishlari mavjud bo'lgan ayollarda esa ushbu ko'rsatkichlarning pasayishi, hayotiy faollikning kamayishi va psixologik beqarorlikning kuchayishi kuzatiladi [3]. Santa-Maria F.D.O. tadqiqotlarida qayd etilganidek, metabolik va gormonal o'zgarishlar fonida reproduktiv yoshdagi ayollarda hayot sifati ko'rsatkichlarining sezilarli pasayishi, emotsional beqarorlik va psixologik salomatlikning buzilishi kuzatiladi[3],[6]. Shuningdek, Urazbaeva D.A. va Ibodullaev Z.R. ilmiy asarlarida ta'kidlanishicha, somatik salomatlikning buzilishi ko'pincha psixik salomatlik va hayot sifati ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanadi [4],[5]. Bundan tashqari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, hayot sifati ko'rsatkichlarining pasayishi nafaqat jismoniy harakatchanlik, balki og'riqning intensivligi, hayotiy faollik, ijtimoiy faollik, emotsional va psixik salomatlik darajalari orqali ham aks etadi [4],[5],[7]. SF-36 asosida o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar (Coons S.J. va boshqalar; Kontodimopoulos N. va boshqalar) natijalari ham shuni ko'rsatmoqdaki, salomatlik bilan bog'liq kasalliklar fonida hayot sifati ko'rsatkichlarining barcha asosiy shkalalari bo'yicha pasayish tendensiyasi mavjud [7],[8]. Ushbu ilmiy asoslar shuni ko'rsatadiki, reproduktiv yoshdagi ayollarda kompleks psixologik yondashuv va psixoprofilaktik tadbirlar ishlab chiqish uchun hayot sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishlarini chuqur o'rganish zarurdir. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda reproduktiv davrdagi ayollarda hayot sifati ko'rsatkichlarining jismoniy, emotsional va psixik salomatlik aspektlari bo'yicha tahlil qilindi hamda sog'lom va kasalligi bor guruhlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlashga qaratildi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — reproduktiv davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida shakllanadigan hayot sifati ko'rsatkichlarining jismoniy, emotsional va psixik salomatlik aspektlari bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash hamda sog'lom va kasalligi bor ayollar guruhlar o'rtasida hayot sifati shkalalari bo'yicha ishonchli tafovutlarni baholashdan iborat.

Tadqiqotda reproduktiv davrdagi 406 nafar ayol ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga bo'lindi: 110 nafar ayol — reproduktiv salomatlik bilan bog'liq turli kasalliklari mavjud bo'lgan ayollar (asosiy guruh) 296 nafar ayol — shartli sog'lom ayollar (nazorat guruhi) Tadqiqot davomida ayollarning hayot sifati The Medical Outcomes Study 36-Item Short Form Health Survey (SF-36) — "36 savoldan iborat Hayot sifati umumiy so'rovnomasi" asosida baholandi[2].

Tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish uchun Mann–Whitney U testi qo‘llanildi. Statistik tahlillar orqali sog‘lom va kasalligi bor ayollar guruhlarida hayot sifati shkalalari bo‘yicha ishonchli tafovutlar mavjudligi aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot natijalari ayollarning hayot sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha sog‘lom va reproduktiv salomatlik bilan bog‘liq kasalliklari mavjud bo‘lgan ayollar guruhlarida o‘rtasida ishonchli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi.

1-jadval

**Reproduktiv yoshdagi ayollarda hayot sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalari (Manni Uitni mezon n=406)**

Shkalalar	Holati	N	O‘rtacha rang	U	p
<b>Jismoniy harakatchanlik</b>	Kasal	110	140,52	9352,00	0,004**
	Sog	296	<b>226,91</b>		
	Jami:	406			
<b>Jismoniy holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik</b>	Kasal	110	174,77	13120,00	0,002**
	Sog	296	<b>214,18</b>		
	Jami:	406			
<b>Og‘riqning intensivligi</b>	Kasal	110	143,79	9712,00	0,003**
	Sog	296	<b>225,69</b>		
	Jami:	406			
<b>Salomatlikning umumiy holati</b>	Kasal	110	154,94	10938,00	0,001**
	Sog	296	<b>221,55</b>		
	Jami:	406			
<b>Hayotiy faollik</b>	Kasal	110	169,46	12536,00	0,002**
	Sog	296	<b>216,15</b>		
	Jami:	406			
<b>Ijtimoiy harakatchanlik</b>	Kasal	110	183,35	14064,00	0,032*
	Sog	296	<b>210,99</b>		
	Jami:	406			
<b>Emotsional holat bilan shartlangan</b>	Kasal	110	167,06	12272,00	0,001**
	Sog	296	<b>217,04</b>		
	Jami:	406			
<b>Psixik salomatlik</b>	Kasal	110	165,26	12074,00	0,003**
	Sog	296	<b>217,71</b>		
	Jami:	406			

Mazkur so‘rovnoma orqali hayot sifating quyidagi 8 ta shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlari baholandi:

1. Jismoniy harakatchanlik
2. Jismoniy holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik
3. Og‘riqning intensivligi
4. Salomatlikning umumiy holati
5. Hayotiy faollik
6. Ijtimoiy harakatchanlik
7. Emotsional holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik
8. Psixik salomatlik

Hayot sifati metodikasi natijalarini taxlil qilganda ishonchli darajada tafovutlar borligi aniqlandi.

Jismoniy harakatchanlik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=9352,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat jismoniy harakatchanlik yuqori chiqdi.

Jismoniy holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=13120,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat jismoniy holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik yuqori chiqdi.

Jismoniy harakatchanlik va jismoniy holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik ko'rsatkichlari past bo'lishi kasallik fonida harakat faoliyatining cheklanishi, jismoniy imkoniyatlar pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa ayollarning kundalik faoliyatga bo'lgan qobiliyatini cheklaydi va psixologik noqulayliklarni kuchaytiradi.

Og'riqning intensivligi shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=9712,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat og'riqning intensivligi yuqoriligi aniqlandi. Og'riqning intensivligi yuqori bo'lishi ayollarda doimiy og'riq sindromining mavjudligini ko'rsatadi, bu esa hayotiy faollikni pasaytiradi va emotsional barqarorlikni buzadi.

Salomatlikning umumiy holati shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=10938,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat salomatlikning umumiy holati balandligi aniqlandi. Salomatlikning umumiy holati ko'rsatkichining past bo'lishi ayollarda sog'liq bilan bog'liq umumiy tasavvurning salbiylashganligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida psixologik holatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hayotiy faollik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=12536,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat hayotiy faollik yuqori chiqdi.

Ijtimoiy harakatchanlik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=14064,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat ijtimoiy harakatchanlik yuqori chiqdi. Hayotiy faollik va ijtimoiy harakatchanlik ko'rsatkichlarining pasayishi ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy ishtirok darajasining pasayganligini bildiradi. Bu esa o'z-o'zini baholashning pasayishi va psixologik izolyatsiya holatlarining kuchayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Emotsional holat bilan shartlangan shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=12272,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat emotsional holat yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Psixik salomatlik shakalasida ahamiyatli darjada farqlar borligi ma'lum bo'ldi ( $U=12074,00$ ;  $p\leq 0,01$ ). Sog'lom shaxslarda kasalligi bor shaxslarga nisbat psixik salomatlik yuqoriligi aniqlandi. Emotsional holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik va psixik salomatlik ko'rsatkichlarining pasayishi esa ayollarda emotsional beqarorlik, tashvishlanish, depressiv simptomlarning ortishi, psixik barqarorlikning pasayishini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, reproduktiv salomatlik buzilishlari fonida ayollarning hayot sifati ko'rsatkichlarining ham jismoniy, ham emotsional, ham psixik sohalarida pasayishi kuzatiladi. Bu esa kompleks psixologik yondashuv va psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, reproduktiv davrdagi ayollarda turli kasalliklar fonida hayot sifati ko'rsatkichlarining barcha asosiy shkalalari bo'yicha ishonchli pasayishi kuzatiladi. Sog'lom ayollar guruhida hayot sifati shkalalari bo'yicha ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan bo'lsa, kasalligi mavjud bo'lgan ayollar guruhida ushbu ko'rsatkichlarning sezilarli darajada pasayganligi aniqlandi. Jismoniy harakatchanlik, hayotiy faollik va ijtimoiy faollikning cheklanishi, shuningdek, og'riqning intensivligi va salomatlikning umumiy holatining pasayishi ayollarning kundalik faoliyati va ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, emotsional holat bilan shartlangan rolli harakatchanlik va psixik salomatlik ko'rsatkichlarining pastligi, kasalliklar fonida emotsional beqarorlik, tashvishlanish va psixologik izolyatsiya holatlarining ortishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari asosida ayollarda reproduktiv salomatlik buzilishlari mavjud bo'lgan hollarda kompleks psixologik yordamni tashkil etish, hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan psixoprofilaktik va psixokorreksion tadbirlarni ishlab chiqish zarurati ta'kidlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. World Health Organization (WHO). *Women and Health: today's evidence, tomorrow's agenda*. Geneva: WHO Press, 2009.
2. Ware J.E., Sherbourne C.D. *The MOS 36-Item Short-Form Health Survey (SF-36): I. Conceptual framework and item selection*. Medical Care. 1992;30(6):473–483.
3. Santa-Maria F.D.O. *Принципы терапии нарушений менструального цикла у подростков и молодых женщин с ожирением*. Автореферат диссертации. Москва, 2008.
4. Urazbaeva D.A. *Klinik psixologiya*. Toshkent, 2024. — 212 b.
5. Ibodullaev Z.R. *Tibbiyot psixologiyasi*. Toshkent, 2019. — 488 b.
6. Santa-Maria F.D.O. *Принципы терапии нарушений менструального цикла у подростков и молодых женщин с ожирением*. Автореферат диссертации. Москва, 2008. (*Metabolik va psixologik o‘zgarishlar uchun kiritilgan, [3] bilan bir manba*)
7. Coons S.J., Rao S., Keininger D.L., Hays R.D. *A Comparative Review of Generic Quality-of-Life Instruments*. Pharmacoeconomics. 2000;17(1):13–35.
8. Kontodimopoulos N., Pappa E., Niakas D. *Comparative Analysis of SF-36 Scores in Healthy and Chronic Disease Populations: A Population-Based Study in Greece*. Health and Quality of Life Outcomes. 2018;16:136. doi:10.1186/s12955-018-0962-5.

**MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]****Latipova Umida Yusufboyevna**

Ma’mun unversiteti “Psixologiyik xizmat” ilmiy-o‘quv  
tadqiqot markazi boshlig‘i (PhD) dotsent

Manzil: O‘zbekiston, 200100, Urganch shahri

<https://orcid.org/0009-0005-1699-3531>

[ulatipova933@gmail.com](mailto:ulatipova933@gmail.com)

## O'SMIRLADA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



**Rustamov Narzillo Raxmon o'g'li**

*Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi, Buxoro shahri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Mazkur maqolada o'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari nazariya va ilmiy manbalar asosida asoslangan. Shuningdek maqolada o'smirlardagi refleksiv qobiliyatlarning namoyon bo'lishining kasbiy shakllanish bilan bog'liq dinamik xususiyatlari, refleksivlik qobiliyatini rivojlanishida pedagogik va psixologik omillarni o'zaro aloqadorlik jihatlari, refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishiga shaxs xulq-atvorida o'zini-o'zi boshqarish xususiyatining ta'siri kabilar nazariy jihatdan tahlil qilingan.

**MAQSAD:** O'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** O'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida suhbat, kontent-tahlil, kuzatish kabi metodlaridan foydalanish mumkin. Refleksiya masalasida pedagogik yo'nalishda N.V.Ippolitova va N.Sterxovalar o'z tadqiqotlari doirasida quyidagicha ta'riflarni ishlab chiqqanlar.

- 1.Shartlar muayyan obyektlar, tushunchalar, shart-sharoitlarning majmui hisoblanadi.
- 2.Ifodalangan majmualar insonning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.
- 3.Shart-sharoitlarning ta'siri shaxs ta'lim-tarbiyasi va uning rivojlanishini jadallashtirishi va unga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, uning dinamikasi va yakuniy natijasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari psixologik jihatdan o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi baholash, o'ziga va boshqa insonlarga munosabatda "Men" siymosining taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Shuningdek yoshlarning refleksiv qobiliyatlari intellektual soha bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsdagi o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi refleksiya va intellektning o'zaro integrasiyasi asosida xulqda namoyon bo'lishi aniqlangan. Diqqat jarayonining rivojlanishi shaxsdagi o'z-o'ziga yo'nalganlik bilan bog'liq ekan.

**Kalit so'zlar:** xulq-atvor, refleksiya, o'zi obyektiv bilish, o'zini - o'zi anglash, o'zini - o'zi boshqarish va o'zini - o'zi real baholash.

### **ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ**

**Рустамов Нарзилло Рахмонович**

*Преподаватель Бухарского международного университета, г. Бухара*

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье на основе теории и научных источников представлены педагогические и психологические факторы формирования рефлексивных способностей у подростков. В статье также теоретически проанализированы динамические особенности

проявления рефлексивных способностей у подростков, связанные с профессиональным становлением, аспекты взаимосвязи педагогических и психологических факторов в развитии рефлексивных способностей, влияние саморегуляции в индивидуальном поведении на развитие рефлексивных способностей.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ педагогических и психологических особенностей развития рефлексивных способностей у подростков

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В процессе формирования рефлексивных способностей у подростков могут быть использованы такие методы, как интервью, контент-анализ, наблюдение. В педагогическом направлении Н.В. Ипполитова и Н.Стерхова в рамках своих исследований по проблеме рефлексии разработали следующие определения.

1. Условия — это совокупность определенных объектов, понятий, состояний.
2. Выраженные комплексы влияют на воспитание и развитие личности.
3. Влияние условий может как ускорять воспитание и развитие личности, так и тормозить его. Оно также влияет на его динамику и конечный результат.

**ВЫВОД:** В заключение следует отметить, что педагогические и психологические особенности развития рефлексивных способностей у подростка объясняются психологическим развитием самопознания, самосознания, самоуправления, самооценки, развитием образа «Я» по отношению к себе и другим людям. Также установлено, что рефлексивные способности молодых людей напрямую связаны с интеллектуальной сферой, а способность к самоконтролю и самоуправлению у человека проявляется в поведении, основанном на взаимной интеграции рефлексии и интеллекта. Развитие процесса внимания связано с самонаправленностью у человека.

**Ключевые слова:** поведение, рефлексия, объективное самопознание, самосознание, самоуправление и реалистичная самооценка.

## PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF REFLECTIVE ABILITIES IN ADOLESCENCE

**Rustamov Narzillo Raxmon o'g'li**

*Teacher of Bukhara International University, Bukhara city*

### **Annatation.**

**INTRODUCTION:** This article presents the pedagogical and psychological factors of the formation of reflective abilities in adolescents based on theory and scientific sources. The article also theoretically analyzes the dynamic features of the manifestation of reflective abilities in adolescents related to professional formation, the aspects of the interrelationship of pedagogical and psychological factors in the development of reflective abilities, the influence of self-control in individual behavior on the development of reflective abilities.

**GOAL:** Scientific analysis of the pedagogical and psychological features of the development of reflective abilities in adolescents

**MATERIALS AND METHODS:** In the process of forming reflective abilities in adolescents, methods such as interview, content analysis, and observation can be used. In the pedagogical direction, N.V. Ippolitova and N.Sterkhova developed the following definitions within the framework of their research on the issue of reflection.

1. Conditions are a set of certain objects, concepts, conditions.
2. The expressed complexes affect the education and development of a person.
3. The influence of conditions can accelerate the education and development of a person and hinder it. It also affects its dynamics and final result.

**CONCLUSION:** In conclusion, the pedagogical and psychological characteristics of the development of reflexive abilities in a teenager are explained by the psychological development of self-knowledge, self-awareness, self-management, self-assessment, and the development of the image of the "I" in relation to oneself and other people. It has also been established that the reflective abilities of young people are directly related to the intellectual sphere, and the ability to self-control and self-

management in a person is manifested in behavior based on the mutual integration of reflection and intellect. The development of the attention process is associated with self-direction in a person.

**Keywords:** behavior, reflection, objective self-knowledge, self-awareness, self-management and realistic self-assessment.

Jahonda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda refleksiya, refleksivlik, faoliyat yoʻnalishi, tafakkur psixologiyasi, insonlar oʻrtasida muloqot jarayonini tashkil etish, hamkorlikdagi faoliyat tarkibida taʼlim faoliyatini tashkil etish vositasi sifatida, genetik yoʻnalish, “tizimli-tafakkur-faoliyat” yondashuvi, refleksiv jarayonlarni oʻrganishning metakognitiv paradigmasi, oʻzini oʻzi tushunish va oʻzini oʻzi anglashning fundamental mexanizmlari, boshqaruvning refleksiv qonuniyatlari borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Eng avvalo insonning refleksiv qobiliyatlari, oʻzini va tashqi dunyoni anglash, adekvat baholash, oʻzini oʻzi nazorat qilish, tarbiyalash, boshqarish bilan bogʻliq psixologik omillar psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, shaxs oʻzini oʻzi anglashning ijtimoiy mohiyati oʻzi haqida mulohaza yuritish, oʻzini samarali boshqarish, boshqalarning oʻziga boʻlgan munosabatlarini shakllantirishga doir ilmiy xulosalar ishlab chiqish, refleksiya hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy obʼektiv dunyoga nisbatan oʻzini oʻzi boshqarish hamda shaxs oʻzini oʻzi anglash tizimini aniqlashning psixologik usullarini tadqiq etish, refleksivlikning shaxsga qadriyatli–semantik va ontologik taʼsiri boʻyicha psixologik muammolarni aniqlash asosida psixolog mutaxassis faoliyatini takomillashtirish kabi masalalar shular jumlasidandir. Zamonaviy psixologiya tadqiqotlarida refleksiya tushunchasi koʻplab tadqiqotchilarning diqqat-eʼtiborini oʻziga jalb qilib kelgan. Zamonaviy va mumtoz adabiyotlarda “refleksiya” atamasiga nisbatan koʻpgina izoh va tushunchalar keltiriladi. Ilmiy manbalarda refleksiya tushunchasi quyidagi tarzda talqin qilinadi. Refleksiv qobiliyatlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi: Oʻzini anglash va baholash hamda oʻzining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish demakdir. Refleksiya tushunchasiga quyidagicha taʼriflar berilgan: "Refleksiya" (lotincha reflexio – «ortga nazar») dastlab falsafada shakllangan boʻlib, u insonning oʻz ongida sodir boʻlayotganlarni mushohada qilish jarayonidir”. Boshqacha qilib aytganda, “bu insonning ruhiy olami mohiyatini ochishga qaratilgan oʻzini oʻzi bilish faoliyatidir”. Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki refleksiv qobiliyatlarning mohiyatini quyidagilar bilan izohlash mumkin ekan, qilingan harakatlarning samaradorligini baholash va natijalarni oʻrganish, oʻz-oʻzini boshqarish va rivojlantirish, yangi maqsadlarni belgilash va ularni amalga oshirish strategiyalarini ishlab chiqish kabilar. Refleksiya yaʼni aks ettirish jarayonini inson tafakkurining oʻzini oʻzi tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, deb taʼriflasak ham boʻladi. Refleksiya inson maʼnaviy dunyosining ichki tuzilishini ochib beruvchi oʻzini oʻzi anglash faoliyati; bilish metodi va mazmunining tanqidiy tahlili; bilimni predmetli koʻrib chiqish kabi uni tushunish va anglashga yoʻnaltiruvchi tafakkur tamoyili hisoblanadi. Refleksiya – biror voqelikni oʻrganish va taqqoslashda fikrlash, maʼnoni anglash jarayoni sifatida tushunilib, tor maʼnoda – “Men”ni bilishdan keyin inson ruhiyatning “yangi burilishi” (“Men” markaz sifatida) va uning mikro dunyosida anglanganlik (oʻzini oʻzi anglash) demakdir. Refleksiya – inson oʻz xatti-harakatlarini anglashga va tushunishga qaratilgan, uning maʼnaviy dunyosida oʻziga xosligini ochib beradigan oʻzini oʻzi anglash faoliyatining nazariy va amaliy shaklidir. Refleksiya mazmunan predmetli-hissiyotli faoliyat bilan bogʻliq. Umuman olganda, refleksiya madaniyatning predmetli dunyosini anglash, deb tushuniladi. Refleksiya — falsafiy anglashni talab qiluvchi tushuncha boʻlib, inson nazariy faoliyati shaklini tavsiflovchi, oʻz madaniyati va uning asoslarini, xatti-harakatlarini anglashga yoʻnaltirilgan insonning maʼnaviy dunyosini ochib beruvchi oʻzini oʻzi anglash faoliyati sifatida talqin qilinadi. Refleksiya – individ oʻz ongida sodir boʻlayotgan hodisalar ustida fikrlash jarayonini ifodalaydigan falsafiy tushunchadir. bizningcha refleksiyani aks ettirish qobiliyati sifatida tadqiq qilinishi va uning oʻziga xos ifodaviy darajaga egaligi, psixologik jihatdan individual xususiyat sifatida aks ettirishi nafaqat shaxsning ongni ixtiyoriy ravishda oʻziga qarata olish qobiliyati sifatida ishlaydi, balki, faoliyat va shaxsning rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi sifatida tadqiq qilinmoqda. Refleksiya, refleksivlikni rivojlantirish, shaxs faoliyatining motivatsion taʼsiri, shaxslararo munosabatlarda va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishda refleksiv jarayonlarni oʻrganishning oʻziga xosligi, oʻzini oʻzi tushunish va oʻzini oʻzi anglashning mexanizmlari, refleksiv

qonuniyatlari borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bugungi axborotlashgan va shiddatli globallashtirish sharoitida shaxsning refleksiv qobiliyatlari, o'zini va tashqi dunyoni anglash, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash, o'zini o'zi nazorat qilish orqali tarbiyalash va boshqarish bilan bog'liq masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

O'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida suhbat, kontent-tahlil, kuzatish kabi metodlaridan foydalanish mumkin. Refleksiya masalasida pedagogik yo'nalishda N.V.Ippolitova va N.Sterxovalar o'z tadqiqotlari doirasida quyidagicha ta'riflarni ishlab chiqqanlar.

1.Shartlar muayyan obyektlar, tushunchalar, shart-sharoitlarning majmui hisoblanadi.

2.Ifodalanagan majmualar insonning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

3.Shart-sharoitlarning ta'siri shaxs ta'lim-tarbiyasi va uning rivojlanishini jadallashtirishi va unga to'sqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, uning dinamikasi va yakuniy natijasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Psixologik tadqiqotlarda esa refleksiya tushunchasi quyidagicha nuqtai nazardan izohlanadi: kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli; fikrlash, o'zini o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy harakatlari va ularning qonun-qoidalarini fikrlashga yo'naltirilgan inson faoliyatining nazariy shakli; o'z ruhiy holati haqida o'ylash, xayol surish, fikr yuritish, uni tahlil qilishga moyillik. Tadqiqotchilar G.S.Suxobskaya va L.L.Gorbunovalarning ta'kidlashlaricha, refleksiya o'zini o'zi anglashning ifodalanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdoshi tomonidan qanday qabul qilinayotganligini anglashi, muammolar va ularning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi, tahlil va talqin qila olish layoqatidir.

Tadqiqotchilar G.M.Kodjaspirova va A.Y.Kodjaspirov esa o'z tadqiqotlari doirasida refleksiya tushunchasini fikrlash, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, inson nazariy faoliyatining shakli, ya'ni o'tmishdagi voqealarga murojaat qilish imkoniyati sifatida bilishgan. Tadqiqotchi V.I.Slobodchikov refleksiya talabaning o'zini va o'z xatti-harakatlarini obyektiv baholashi, o'quvchilar va boshqa insonlar tomonidan o'zini qanday qabul qilinayotganini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini tushunish qobiliyati, deb ta'kidlashgan. Uning fikricha, refleksiya orqali ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi. Aksariyat tadqiqotlarda refleksiya psixologiyada ikki jihatdan ko'rib chiqiladi: psixologik jarayonning dominantasi- rivojlanish hisoblanadi; psixologik jarayon pedagog hamda ta'lim oluvchilarga o'zini rivojlantirishi uchun sharoit yaratish bilan belgilanadi. Psixologik jarayonda rivojlanishning mohiyati uning ishtirokchilari quyidagi ketmaketlikdagi sifat jihatidan o'zgarishida tavsiflanadi: o'zgarish, faoliyat holati dinamikasi, faoliyat motivi, hissiyot va emotsiyalari, bilim, malaka, ko'nikma, shaxsiy sifatlar va hokazo. Rivojlanish– ichki jarayon, bu haqda rivojlanish subyektining o'zigina faoliyat subyektini sifatida mulohaza yuritish mumkin. Samaradorlikni baholash, rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirish mahsuldorligi subyekt tomonidan o'zini o'zi kuzatish, o'zini o'zi tahlil qilish, tafakkur qilish, ya'ni refleksiya orqali amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari psixologik jihatdan o'zini o'zi bilish, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi boshqarish, o'zini o'zi baholash, o'ziga va boshqa insonlarga munosabatda "Men" siymosining taraqqiy etishi bilan izohlanadi. Shuningdek yoshlarning refleksiv qobiliyatlari intellektual soha bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxsdagi o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi refleksiya va intellektning o'zaro integratsiyasi asosida xulqda namoyon bo'lishi aniqlangan. Diqqat jarayonining rivojlanishi shaxsdagi o'z-o'ziga yo'nalganlik bilan bog'liq ekan. Yoshlarda refleksiv qobiliyatlarni shakllanishi har bir talabada onli xulq-atvor va o'zo'zini boshqarish xususiyati bilan uyg'un holda rivojlanib borar ekan. Refleksiv qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirishdan maqsad yoshlarni psixik taraqqiyoti va ularning o'quv faoliyatida anlangan motivlarni yuzaga keltirish orqali ularni raqobatbardosh kadrlarga sifatida shakllantirishdir

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik atamalar lug'ati. - Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi fan nashriyoti, 2008 yil, 108-bet.
2. Bildanova V.R., Shagivaleeva G.R. Ruhiy asoslar
3. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. A.Zunnunov tahriri ostida. T.: "Fan", 1996 yil. 173-174-betlar
4. Tulenov J. G'ofurov. Z. "Falsafa asoslari" Toshkent o'qituvchi 2007 y. 60-bet
5. Xalilova N.I. O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2010. - 156 b

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Rustamov Narzillo Raxmon o'g'li**  
Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri



**Raximova E'tibor Rustamovna**  
*Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

#### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Maqolada shaxsda muloqotdagi qiyinchilikning asosiy mazmuni, mexanizmlari va omillari ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, muloqotdagi qiyinchilik tushunchasining mazmuni, bu borada xorij olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlillari keltirib o'tilgan. Shuning bilan birga shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarning o'rni ko'rsatib berilgan.

**MAQSAD:** Shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarning asosiy jihatlarini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Bugungi kunda muloqotdagi qiyinchiliklar shaxslararo munosabatlar sohasidagi eng muhim masalalardan biridir. Biz ko'rib chiqayotgan hodisa xorij psixologiyasi va pedagogikasida ko'p qirrali tarzda taqdim etilgan. Bu jihatdan muloqotdagi qiyinchiliklarning asosiy muammolari ijtimoiy va psixologik muammolar hisoblanadi. Jumladan, tushunish muammosining psixolingvistik, ijtimoiy-perseptiv jihatlarini nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, hamkorlikdagi faoliyatni va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy perseptiv jihat ushbu muammoni hal qilishda eng dolzarb masalalardan biri ekanligini hisobga olish muhimdir. Darhaqiqat uni tushunishda muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarning keng doirasini aniqlash imkoniyati ochiladi.

**XULOSA:** Shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishi tomonlarning o'zaro bir-birini tushunmasligi, shaxslararo munosabatlar tizimini optimal boshqarish hamda muloqot ishtirokchilari o'rtasida barqaror samimiy aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning bilan birga inson faoliyatida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish shaxslararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yilishini belgilab beradi.

**Kalit so'zlar:** muloqot, muloqotdagi qiyinchilik, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-perseptiv to'siqlar, xulq-atvor, muloqot mexanizmlari, ijtimoiy tortinchoqlik, konformlik, kommunikativ to'siqlar, shaxslararo ishonchli muloqot.

## **ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ТРУДНОСТЕЙ В ОБЩЕНИИ У ЛИЧНОСТИ**

**Рахимова Эътибор Рустамовна**

*Независимый исследователь Ургенчского государственного университета*

#### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В статье изложены основное содержание, механизмы и факторы возникновения трудностей общения у отдельных лиц. В частности, представлено содержание понятия трудностей общения, анализ научных исследований, проведенных зарубежными учеными по этому поводу. При этом обозначена роль психологических факторов, влияющих на возникновение трудностей общения у отдельных лиц.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ основных аспектов трудностей общения у отдельных лиц

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** На сегодняшний день трудности общения являются одной из важнейших проблем в области межличностных отношений. Рассматриваемое нами явление представлено многогранно в зарубежной психологии и педагогике. В этой связи основными проблемами трудностей общения являются социальные и психологические

проблемы. В частности, анализ проводится с точки зрения психолингвистических, социально-перцептивных аспектов проблемы понимания с учетом организации совместной деятельности и межличностных отношений. При этом важно учитывать, что социально-перцептивный аспект является одним из наиболее актуальных вопросов в решении данной проблемы. Ведь его понимание открывает возможность выявления широкого спектра трудностей в процессе общения.

**ВЫВОД:** Возникновение коммуникативных трудностей у человека служит обеспечению взаимного непонимания сторон, оптимального управления системой межличностных отношений и устойчивых искренних контактов между участниками общения. При этом устранение коммуникативных трудностей в деятельности человека обуславливает эффективное установление межличностных отношений.

**Ключевые слова:** общение, коммуникативные трудности, межличностные отношения, социально-перцептивные барьеры, поведение, механизмы общения, социальная застенчивость, конформизм, коммуникативные барьеры, межличностное доверительное общение.

## MAIN ASPECTS OF DISABILITIES IN PERSONAL COMMUNICATION

**Rakhimova Etibor Rustamovna**

*Is an independent researcher at the Urgentsky State University.*

### Annatation.

**INTRODUCTION:** The article presents the main content, mechanisms and factors of communication difficulties in individuals. In particular, the content of the concept of communication difficulties, the analysis of scientific research conducted by foreign scientists in this regard are presented. At the same time, the role of psychological factors influencing the emergence of communication difficulties in individuals is indicated.

**GOAL:** Scientific analysis of the main aspects of communication difficulties in individuals

**MATERIALS AND METHODS:** Today, communication difficulties are one of the most important issues in the field of interpersonal relations. The phenomenon we are considering is presented in a multifaceted way in foreign psychology and pedagogy. In this regard, the main problems of communication difficulties are social and psychological problems. In particular, the analysis is carried out from the point of view of the psycholinguistic, socio-perceptual aspects of the problem of understanding, taking into account the organization of collaborative activities and interpersonal relations. At the same time, it is important to take into account that the social-perceptual aspect is one of the most relevant issues in solving this problem. Indeed, understanding it opens up the possibility of identifying a wide range of difficulties in the communication process.

**CONCLUSION:** The emergence of communication difficulties in a person serves to ensure mutual misunderstanding of the parties, optimal management of the system of interpersonal relations, and stable sincere contacts between the participants in the communication. At the same time, the elimination of communication difficulties in human activity determines the effective establishment of interpersonal relations.

**Keywords:** Communication, communication difficulties, interpersonal relations, socio-perceptual barriers, behavior, communication mechanisms, social shyness, conformity, communicative barriers, interpersonal trustful communication.

**B**ugungi kunda muloqotdagi qiyinchiliklar shaxslararo munosabatlar sohasidagi eng muhim masalalardan biridir. Biz ko‘rib chiqayotgan hodisa xorij psixologiyasi va pedagogikasida ko‘p qirrali tarzda taqdim etilgan. Bu jihatdan muloqotdagi qiyinchiliklarning asosiy muammolari ijtimoiy va psixologik muammolar hisoblanadi. Jumladan, tushunish muammosining psixolingvistik, ijtimoiy-perseptiv jihatlarini nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, hamkorlikdagi faoliyatni va shaxslararo munosabatlarni tashkil etishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy perseptiv jihat ushbu muammoni hal qilishda eng dolzarb masalalardan biri ekanligini hisobga olish muhimdir. Darhaqiqat uni tushunishda muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarning keng doirasini

aniqlash imkoniyati ochiladi. Suhbatdosh yoki sherik obrazining noadekvatligi; muloqot bo'yicha suhbatdosh rolini qabul qilmaslik; tashqi xulq-atvor belgilari asosida insonning ichki dunyosini qabul qila olmaslik; muloqot mexanizmlarini boshqara olmaslik; suhbatdosh xulq-atvori motivlarining mos kelmasligi; muloqotda sheriklarning psixologik komfortining yo'qligi kabi omillar murakkab muloqotning determinantlari bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda psixologlarning ko'plab ishlari mavjud bo'lib, ularda murakkab muloqot muammosi maxsus tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Ushbu ishlarning nazariy tahlili muammoning qo'yilishida, uni o'rganishning vazifalari va maqsadlarida, o'rganilayotgan hodisaning psixologik tabiati va mexanizmlarini tushunishda, aniq natijalarni amalda qo'llashning mumkin bo'lgan sohalarini ajratishda ma'lum farqlarni ko'rsatadi. Shunday qilib, muloqotdagi qiyinchiliklarining psixologik tabiatini tushunishda bir nechta yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin [1]. Birinchi yondashuv vakillari muloqotdagi qiyinchiliklarini ijtimoiy-perseptiv to'siqlar va muvaffaqiyatli muloqotga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida ko'rib chiqadilar (Ye.V.Zalyubovskaya, L.I.Novikova, Z.A.Noliu, B.D.Parigin) [1].

Ikkinchi yondashuv vakillari uchun muloqotdagi qiyinchiliklar asosan ob'yektiv xususiyatga ega bo'lgan tashqi buzilishlar va asoratlar sifatida namoyon bo'ladi (I.I. Aminov [2], R.A. Abdurahmonov, Ye.V. Sukanova [3]). Uchinchi yondashuv tadqiqotchilari muloqotdagi qiyinchiliklarini muloqot sub'yektlarida psixologik noqulaylikning sub'yektiv, ichki kechinmalari bilan birlashtiradi (N.V. Kunisina, L.A. Povarnisina, I.E. Strelkova, L.N. Staxeyeva). Bunda muloqotdagi qiyinchilik muammosini turli jihatlarini ko'rib chiqilgan va so'nggi davrlardagi tadqiqotlar va nashr ishlarini tahlil qilish mazkur masalani atroflicha tahlil qilishga yordam beradi.

Pedagogik muloqot psixologiyasida murakkab muloqot muammosi har tomonlama ko'rib chiqiladi. Psixologik bilimlarning ushbu sohasida tadqiqotlar davomida boy va xilma-xil empirik materiallar mavjud bo'lib, ularda "o'qituvchi – o'quvchi", "o'quvchi – o'qituvchi" munosabatlari sohasidagi murakkab muloqotning o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgan (S.A.Ambalova [4], M.I.Bekoyeva [5], O.F.Djioyeva [6]); talabalarni chet tiliga intensiv o'qitish jarayonidagi kommunikativ to'siqlar [7-12]; talabalik davridagi muloqotdagi qiyinchiliklari (L.A. Povarnitsina) va ijtimoiy-psixologik trening sharoitida talabalar muloqotidagi ijtimoiy-perseptiv to'siqlar (L.A.Petrovskaya) [13]; shaxslararo ishonchli muloqotning qiyinchiliklari (I.P.Koshevaya) [14]; o'smirlarning kommunikativ qiyinchiliklari (Ye.A.Leshinskaya [15]). Shu bilan birga, mualliflar o'rganilayotgan muammolarning nazariy tamoyillarini turli jihatlardan ko'rib chiqadilar hamda muloqot qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llarini turlicha talqin qiladilar.

O'smirlarda muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaruvchi eng ko'p uchraydigan sabablar shubha, tajovuzkorlik, xavotirli gumonsirash, fobiyalar, ehtiyotkorlik, hissiy beqarorlik, o'zini past baholash, bo'ysunish, guruhga qaramlik, ijtimoiy tortinchoqlik, shaxsning zaif irodaviy komponenti, konformlik, yopiqlik, egosentrizm, asabiylashish, o'zining nomukammalligi hissi, tortinchoqlik, intizomsizlik, o'zini yomon nazorat qilish va boshqalardir.

Bunday xususiyatlarning mavjudligi shaxs ichidagi psixologik nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. O'smir o'z shaxsini baholashga qaratilgan barcha fikrlarni o'ziga singdiradi va shu bilan o'zini o'zi ekstrosseptiv obrazini yaratadi. Ba'zan u yoki bu shaxs bilan qisqa muddatli suhbat yoki kichik axborot almashinuvi ham o'smir shaxsining ruhiy-psixologik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish ko'plab mualliflar muloqotning psixologik qiyinchiliklari deganda "sheriklar o'rtasidagi aloqalarning buzilishi va o'zaro ta'sirning borishi, munosabatlarning rivojlanishiga har qanday to'siqlarning paydo bo'lishi, hatto ularning uzilishi, muloqot jarayoni noqulay bo'lganda va suhbatdoshlar hissiy noqulaylik, zo'riqishni boshdan kechirganda, bu xulq-atvorlarning moslashmasligiga olib kelishi mumkin" [1].

Muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarining psixologik tabiatini tushunishda rus psixologiyasida subektiv hodisa sifatida «... muloqotning real, obektiv qiyinchiliklarini uning qulay modeli bilan aniq muloqotning nisbati asosida o'zgartirish va talqin qilish» tendensiyasi shakllangan [16, s. 95].

Qulay model sifatida asosan kompetentli, optimal, samarali muloqot jarayoni ko'rib chiqiladi. Ushbu muloqotning ahamiyatli juft o'lchovlari, odatda, sub'yektning ma'lum shaxsiy fazilatlarini, shuningdek, qobiliyatlari, ko'nikmalari va malakalari hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotlar muloqotdagi

suhbatdoshlarining belgilangan parametrlarga mos kelmasligini muloqotdagi qiyinchiliklarning sabablariga tenglashtiradi. Muloqotdagi qiyinchiliklarni ko'rib chiqishning ushbu jihatida qulay yoki noqulay muloqotni tahlil qilish zarurati paydo bo'ladi. Shunga muvofiq baholash elementlari yoki mezonlarini ochib berish nazarda tutiladi. Ularning mazmunli talqini shaxs uchun ob'yektiv va sub'yektiv ma'nolarda namoyon bo'lishi mumkin.

Ob'yektiv mezonlar deganda muloqotning mazmuniy jihati, uning shaxsga ma'naviy va shaxsiy ta'siri, axloqiy takomillashuvi tushuniladi. Uning natijalari atrofdegilar tomonidan qayd etiladi. Sub'yektiv mezonlar sifatida shaxsning emosional tomoni, uning muloqotga sub'yektiv-shaxsiy bahosi, shaxslararo aloqalar sohasidagi qulay munosabatlari namoyon bo'ladi. Ushbu mezonlarning uyg'un yoki ziddiyatli kombinatsiyalari to'rtta variantni keltirib chiqaradi:

Birinchi variant individda o'zaro ta'sirning noqulay sharoitlarida, muloqot xarakterining mazmunsizligida, ba'zan esa antisosial yo'nalishda o'z muloqotiga sub'yektiv ijobiy baho berish va undan qoniqishni nazarda tutadi. Bunda muloqot inson uchun muloqotning emosional-ijobiy komponenti hisoblanadi.

Ikkinchi variant, muloqotni ob'yektiv uyg'un, ijobiy baholashda shaxsda muloqotdan ham, o'z-o'zidan ham sub'yektiv qoniqmaslikni keltirib chiqaradi.

Uchinchi variant muloqotning ob'yektiv mohiyatini va uning shaxs ongida sub'yektiv aks etishini noqulay, mazmunsiz o'zaro munosabatlar sifatida tavsiflaydi.

To'rtinchi variant muloqot bo'lib, u ham sub'yektiv, ham ob'yektiv mezonlar bo'yicha qoniqish hosil qiladi va yaxshi, yoqimli muloqot sifatida baholanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan variantlarning har biri o'ziga xos jihatlarga ega va tadqiqotchilarning e'tiboriga loyiqdir. Biroq, o'z tadqiqot tajribasi va o'tkazilgan nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, psixologlar uchun sub'yektiv ravishda o'zining muloqotidan norozi bo'lish hissi muammo hisoblanadi. Bu psixologga murojaat qilishning asosiy sababidir.

Shunday qilib, muloqotning psixologik qiyinchiliklari deganda (birinchi navbatda, sub'yektiv ravishda boshdan kechirilgan qiyinchiliklar nazarda tutiladi) biz turli xil buzilishlarni tushunamiz. Ularning oqibati maqsadlarga to'liq yoki qisman erishmaslik va muloqot ehtiyojlari va motivlarini qondirmaslik bo'lib, bu sub'yektiv muloqot jarayonidan va undagi o'z roolidan qoniqmasligi bilan birga keladi.

Shuni unutmaslik kerakki, murakkab muloqotni nazariy va empirik o'rganish natijasida o'rganilayotgan hodisaning qat'iy ilmiy va ziddiyatsiz tasnifi yaratiladi. Shu bilan birga, murakkab muloqotni o'rganishga turli xil metodologik va nazariy yondashuvlar, qiyinchiliklarning haqiqiy ko'rinishlarining keng doirasi, muammoning ko'p qirraliligi, "muloqotdagi qiyinchilik" tushunchasining mazmuni va hajmining unga kiruvchi elementlarining mazmunli to'ldirilishi bilan yetarli darajada bog'liq emasligi ko'p sonli tipologiya va tasniflarni keltirib chiqaradi.

Muloqot jarayonida ma'lum bir funksiyalar yoki bosqichlarni ajratib ko'rsatishda shaxslararo murakkab o'zaro ta'sir muammolari paydo bo'ladi. Shaxslararo aloqa o'rnatish muammosi, tortinchoqlik, o'zini noto'g'ri taqdim etish, autistiklik birlamchi aloqa bosqichiga kiritilishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlarni barqarorlashtirish bosqichidagi qiyinchiliklar esa o'zaro munosabatlardan qoniqmaslik, egosentrizm, qulay psixologik muhitni yarata olmaslikda namoyon bo'ladi. Muloqotdagi qiyinchiliklari klasterlari muloqotning turli shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, ishbilarmonlik muloqoti, rasmiy, shaxsiy, rolli, hissiy va hokazo.

Muloqot qiyinchiliklarining mazmuniy-funksional tavsifi va sababiy bog'liqligi ushbu tushunchaning quyidagi tasnifi bo'lishi mumkin. Mazmuniy-funksional tavsifiga ko'ra, muloqotning sub'yektiv va ob'yektiv qiyinchiliklari ajratiladi. Birinchisi, har doim ham ijtimoiy o'zaro ta'sirda aniq namoyon bo'lmaydi, bu qiyinchiliklar sheriklar uchun ochiq emas. Ob'yektiv qiyinchiliklar esa tashqi sabablar tufayli yuzaga keladi, bevosita aloqa sharoitlarida namoyon bo'ladi. Sababiy shartlanganlik mezonini bo'yicha muloqotdagi qiyinchiliklari birlamchi omillar (insonning tabiiy xususiyatlariga bog'liq) va ikkilamchi omillar (psixogen va sosiogen qiyinchiliklar) ga bo'linadi.

Birgalikdagi faoliyat vaziyatlarida yuzaga keladigan murakkab muloqot va faoliyat jihatiga ko'ra tasniflashni ko'rib chiqadi. Bu holda muloqotdagi qiyinchiliklarining namoyon bo'lishi ikki xil bo'ladi: umumiy xarakterdagi hodisalar va xususiy xarakterdagi hodisalar. Birinchi holatda

muloqotdagi qiyinchiliklar 2 ta omil ta'sirida yuzaga keladi: muloqot sheriklarining individual, psixologik xususiyatlari va shaxslararo munosabatlar. Ular muloqotning xulq-atvor, kognitiv va affektiv komponentlariga ta'sir qiladi.

Ushbu turdagi qiyinchiliklar uchta asosiy shaklga ega:

- 1) shaxslararo o'zaro ta'sirning kommunikativ faolligi ko'rinishidagi birgalikdagi faoliyat vaziyatlarida ifodalanadigan muloqotning to'yinganligi transformatsiyasida;
- 2) aloqani ushlab turish qurilmalarini transformatsiyalashda,
- 3) muloqotning verbal va noverbal vositalarini qo'llash usul va uslublarining transformatsiyasida.

Xususiy xarakterdagi muloqotdagi qiyinchiliklarining ko'rinishlari muloqot sub'yektlarining o'zaro munosabatlarining real vaziyatlarida yuzaga keladi. Ular o'z mazmuniga ko'ra, o'ziga xos o'zaro ta'sir xarakteriga ega. Ushbu ko'rinishlarning ikkita kichik guruhi ajratiladi:

- 1) Birinchi kichik guruh muloqot sheriklarining individual va psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi.
- 2) Ikkinchi kichik guruh muloqotdan qochish, nizolar, kelishmovchiliklar, suhbatdoshni dezinformatsiya qilish vaziyatlarida namoyon bo'ladi va shaxslararo munosabatlar omili bilan shartlanadi.

Ko'rib chiqilgan tasnifda shaxslararo muloqot, o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir bilan belgilanadigan tashqi determinantni va muloqot sheriklarining individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ichki determinantni ajratish kerak.

Bizga murakkab muloqot determinantlarini ajratish muhim ko'rinadi, chunki muloqotdagi qiyinchiliklarini ob'yektiv-vaziyatli (tashqi ko'rinishlar) va sub'yektiv (ichki ko'rinishlar) rejalarda kuzatish imkoniyati paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, "murakkab muloqotning determinantlari yoki omillari psixologik hodisalarni, belgilarni, muloqot qiyinchiliklarining korrelyatlarini aniqlashga imkon beradi. Bu esa ularni tashxislashning uslubiy vositalarini ishlab chiqish uchun zarurdir"[1].

Muloqotdagi qiyinchiliklarini o'rganishdagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilar ekanmiz, shaxslararo muloqotdagi qiyinchiliklar ko'plab psixologik ko'rinishlarini ta'kidlash lozim, ularning xilma-xilligi ikki shaklga to'g'ri keladi:

1. Muloqot sheriklarining xulq-atvorlarida namoyon bo'ladigan tashqi. Bunda o'zaro munosabatlarning noadekvatligi, kelishuvchanlikning buzilishi, nizolar, janjallar, noadekvat xatti-harakatlar belgilovchi korrelyatlar bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonda miqdoriy xususiyatlarni ham ajratib ko'rsatish kerak: muloqotning davomiyligi, jadalligini, hajmi va masofasi.

2. Shaxslar ongida affektiv-emosional va perseptiv-rasional darajalarda sub'yektiv aks etadigan ichki. Bunda shaxs psixologik noqulaylik va muloqotdan hissiy qoniqmaslikni boshdan kechiradi.

Shunday qilib, murakkab muloqotning empirik korrelyantlari xulq-atvor, rasional va hissiy omillardir. Xulq-atvor omillari suhbatdoshlarning kommunikativ xulq-atvorini bevosita harakatlari sifatida namoyon bo'ladi. Rasional faktlar - muloqot sub'yektlarining muloqotdagi qiyinchiliklari omillari va sabablari haqidagi o'z fikrlarini aks ettiradi. Emosional omillar muloqotdan qoniqmaslik, psixologik noqulaylikda namoyon bo'ladi.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini me'yorlashtirish nafaqat muloqotdagi qiyinchiliklarini, balki korreksion-tarbiyaviy ishlarni ham tushunish sabablari va usullarini o'rganishning zaruriy va majburiy shartidir.

Bunday standartlashtirish turli usullar asosida amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, ma'naviy komponent, psixofiziologik, individual va shaxsiy sifatida ta'riflanadigan psixik regulyasiya darajalari haqidagi tasavvurdan foydalanish. Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi sinflarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Birinchi sinf asoslar bo'lib, ular psixik regulyasiya darajasi bilan belgilanadi. Ularga shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, nerv tizimining tipi, xarakteri, temperamenti, emosional-irodaviy sohasi va hokozalar kiradi.

Ikkinchi sinf - bu boshqarishning turli darajalari bilan belgilanadigan va tizimli yoki kompleks xususiyatga ega bo'lgan asoslardir.

Shunday qilib, ushbu muammoni ko'rib chiqib, muloqotdagi qiyinchiliklar muammosini tizimli nazariy ishlab chiqishni amaliy vazifalar bilan bog'lash va tuzatish ishlari usullarini aniqlash zarur.

Muloqot jarayonidagi murakkabliklarning nazariy masalasini tahlil qilib, "murakkab muloqot" fenomeni o'z talqini va psixologik mazmuniga ko'ra, bir xil emas degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu hodisaning nazariy jihatlari turli yondashuvlar va turli mualliflar nuqtai nazaridan ochib berilgan. Shuning bilan birga "muloqotdagi qiyinchiliklar" atamasi psixologik-pedagogik adabiyotlarda "muloqot muammolari", "muloqotdagi qiyinchiliklar", "kommunikativ qiyinchiliklar", "kommunikativ to'siqlar", "muloqotdagi uzilishlar", "kommunikatsiyaning buzilishi" va boshqa tushunchalarning sinonimi hisoblanadi. Ushbu atamalarning mazmuni va talqini ba'zan noaniq bo'lib, bu sohadagi tadqiqot ishlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Keltirilgan fikrlardan ko'rish mumkin, shaxsda muloqotdagi qiyinchiliklarni yuzaga kelishi tomonlarning o'zaro bir-birini tushunmasligi, shaxslararo munosabatlar tizimini optimal boshqarish hamda muloqot ishtirokchilari o'rtasida barqaror samimiy aloqalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning bilan birga inson faoliyatida muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish shaxslararo munosabatlarni samarali yo'lga qo'yilishini belgilab beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Парыгин Б.Д. Анатомия общения: Учеб. пособие. - СПб., 1999. - 301 с
2. Аминов И.И. Психология делового общения: Учебное пособие / И.И. Аминов. -
3. Цуканова Е.В. Психологические трудности меж личностного общения. М. , 2008.
4. Амбалова С.А. Личность и ее приобщение к социальному миру //Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2016. Т. 5. № 1 (14). С. 9-11.
5. Бекоева М.И. Многоуровневая система высшего профессионального образования как объект научно педагогического анализа //Вектор науки ТГУ. Серия: Педагогика, психология. 2012. № 1. С. 352-354.
6. Джюева О.Ф. Социально-педагогические техно логии оптимального решения затрудненного общения в общеобразовательной школе и вузе //автореферат кан. дис. Владикавказ, 2007. - 24с.
7. Метелева Л.А. К вопросу о взаимосвязи социализации и формирования коммуникативной компетентности студентов в процессе обучения иностранному языку // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2014. № 1. С. 49-51.

#### MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

**Raximova E'tibor Rustamovna**

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Manzil: O'zbekiston, 200100, Urganch shahri

## MAHKUM SHAXSLAR O'RTASIDA KRIMINOGEN TRAVMA PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI



**Turdiyev Zafar Erkinovich**

*IV huzuridagi jazoni ijro etish departamenti, 6-mintaqaviy hudud,  
1-son JIEK boshlig'i, podpolkovnik*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada mahkum shaxslar orasida kriminogen travmalarning kelib chiqish sabablari, ularning psixologik oqibatlari hamda profilaktika usullari yoritilgan. Kriminogen omillar shaxsni jinoyatga undovchi asosiy psixosozial omillar hisoblanadi. Mazkur maqolada zamonaviy psixokorreksion yondashuvlar, xalqaro va mahalliy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Statistika jadval va ilmiy faktlar asosida kriminogen travma profilaktikasining psixologik samaradorligi ko'rsatib beriladi.

**MAQSAD:** Mahkum shaxslar o'rtasida kriminogen travma profilaktikasini tashkil etishning psixologik jihatlari ilmiy tahlil qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Jinoiy qasd hosil bo'lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o'rganish ham zarur. Bunga ko'p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o'rtasida hukmronlik qilayotgan o'zaro munosabatlar tarkibini o'rganish, bu shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyofasi ko'p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me'yorlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

**XULOSA:** Zo'ravon jinoyatchilar qadriyatli-motivatsion va ruhiy boshqaruv sohasida bir qator tipik buzilishlarga ega bo'ladilar. Voqelikni ular ijtimoiy taqiqlarga ta'sirchanlik keskin pasaygan sharoitda aks ettiradilar. Har bir zo'ravonlik jinoyatining asosida bir qator sabab va shart-sharoitlar, individualbiologik, ruhiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ulanishi yotadi.

**Kalit so'zlar:** kriminogen travma, psixokorreksiya, mahkum, retsidivizm, profilaktika, CBT, EMDR, rehabilitatsiya.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ КРИМИНОГЕННОЙ ТРАВМЫ У ОСУЖДЕННЫХ

**Турдиев Зафар Эркинович**

*Начальник Управления исполнения наказаний МВД 6-го регионального округа,  
Исправительная колония № 1, подполковник*

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье рассматриваются причины возникновения криминальных травм у осужденных, их психологические последствия и методы профилактики. Криминальные факторы являются основными психосоциальными факторами, мотивирующими человека на совершение преступления. В данной статье они анализируются

на основе современных психокоррекционных подходов, международного и отечественного опыта. На основе статистических таблиц и научных фактов показана психологическая эффективность профилактики криминогенных травм.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ психологических аспектов организации профилактики криминогенных травм у осужденных.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Для определения механизма преступного умысла необходимо знать общие закономерности преступности, а также углубленно изучать личность преступника. Этому во многом способствует знакомство с социальными группами, к которым принадлежит данный индивид. Необходимо изучить структуру межличностных отношений, сложившихся в кругу родственников данного лица, знать психологию социальных групп, в которые входит данный индивид, выяснить взаимоотношения личности и общества, взаимоотношения личности и общественного сознания. Социальный образ любого человека во многом связан с содержанием его микрокосма, а психологическая структура этого микрокосма служит мощным катализатором индивидуального поведения. Во многих случаях характер поведения зависит от содержания моральных норм в окружающей среде.

**ВЫВОД:** У насильственных преступников наблюдается ряд типичных нарушений в сферах ценностно-мотивационной и эмоциональной регуляции. Это выражается в том, что у них резко снижена чувствительность к социальным ограничениям. В основе каждого насильственного преступления лежит комплекс причин и условий, связь индивидуальных биологических, психологических и социально-психологических факторов.

**Ключевые слова:** криминогенная травма, психокоррекция, осужденный, рецидивизм, профилактика, КПТ, ДПДГ, реабилитация.

## PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ORGANIZING THE PREVENTION OF CRIMINOGENIC TRAUMA AMONG CONVICTS

**Turdiyev Zafar Erkinovich**

*Head of the Department of Penal Enforcement under  
the Ministry of Internal Affairs,  
6th regional district, Penalty Colony No. 1, Lieutenant Colonel*

### **Annatation.**

**INTRODUCTION:** This article discusses the causes of criminogenic traumas among convicted persons, their psychological consequences, and methods of prevention. Criminogenic factors are the main psychosocial factors that motivate a person to commit a crime. This article analyzes them based on modern psychocorrectional approaches, international and local experience. The psychological effectiveness of criminogenic trauma prevention is shown based on statistical tables and scientific facts.

**GOAL:** Scientific analysis of the psychological aspects of organizing criminogenic trauma prevention among convicted persons.

**MATERIALS AND METHODS:** In order to determine the mechanism of criminal intent, it is necessary to know the general laws of crime, as well as to study the personality of the criminal in depth. This is largely facilitated by familiarization with the social groups to which this individual belongs. It is necessary to study the structure of the interpersonal relationships that prevail among this person's relatives, to know the psychology of the social groups of which this person is a member, to clarify the relationship between the individual and society, the relationship between individual and social consciousness. The social image of any person is largely connected with the content of his microcosm, and the psychological structure of this microcosm serves as a powerful catalyst for individual behavior. In many cases, the nature of behavior depends on the content of the moral norms in the environment.

**CONCLUSION:** Violent criminals have a number of typical disorders in the areas of value-motivation and emotional control. This is reflected in the fact that they are sharply reduced in their

sensitivity to social restrictions. At the heart of each violent crime is a set of causes and conditions, the connection of individual biological, psychological and socio-psychological factors.

**Key words:** criminogenic trauma, psychocorrection, convict, recidivism, prevention, CBT, EMDR, rehabilitation.

Jinoiy qasd hosil bo'lish mexanizmini aniqlashda jinoyatchilikning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bir qatorda jinoyatchining shaxsini chuqur o'rganish ham zarur. Bunga ko'p jihatdan ushbu individ kiradigan ijtimoiy guruhlar bilan tanishish yordam beradi. Ushbu shaxsning yaqinlari o'rtasida hukmronlik qilayotgan o'zaro munosabatlar tarkibini o'rganish, bu shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar psixologiyasini bilish, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqani, individual va ijtimoiy ong aloqasini aniqlash zarur. Har qanday insonning ijtimoiy qiyo fasi ko'p jihatdan uning mikro olami mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ushbu mikro olamning psixologik tuzilishi individual xulq uchun kuchli katalizator bo'lib xizmat qiladi. Juda ko'p hollarda xulqning xususiyati atrof-muhitdagi axloqiy me'yorlarning mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Kriminogen omillar va ruhiy travmalar shaxsning jinoyat sodir etishiga va jinoyatni takrorlashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jinoyat sodir etgan mahkumlarning aksariyati hayotida og'ir psixologik travmalarga duch kelgan bo'ladi. Ularning ko'pchiligi bolalik yoki o'smirlik davrida jismoniy, ruhiy zo'ravonlikka uchragan. Shu boisdan, jazoni ijro etish muassasalarida psixologik xizmatlarning samaradorligi va tizimligi jinoyatchilikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Mahkumlar orasida kriminogen travmalarni aniqlash, ularning psixologik oqibatlarini o'rganish hamda samarali profilaktika va psixokorreksiya usullarini taklif qilish.

**Mahkum** — bu sud hukmi bilan jinoyatda aybdor deb topilib, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxsdir. U jazoni **jazoni ijro etish muassasasida** (ya'ni, qamoqxona yoki koloniyada) o'tamoqda bo'ladi.

#### **Mahkum tushunchasining huquqiy izohi:**

- Jinoyat kodeksi yoki jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, shaxs sud tomonidan aybdor deb topilib, unga nisbatan jazo tayinlanganidan so'ng **mahkum** maqomiga ega bo'ladi.
- Mahkum — bu **sudlangan**, ammo ayni vaqtda jazoni o'tayotgan shaxsni anglatadi.

#### **Mahkumlar quyidagicha tasniflanadi:**

1. **Birinchi marta sudlangan** – ilgari sudlanmagan va jinoyat sodir etganlar.
2. **Retsivist** – ilgari ham jinoyat sodir etgan va yana jinoyat sodir etgan shaxs.
3. **Alohida tartibli muassasalarda saqlanuvchilar** – og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlar.
4. **Voyaga yetmagan mahkumlar** – 14–18 yosh oralig'idagi jinoyatchilar.

#### **Psixologik nuqtai nazardan:**

Mahkumlar ko'pincha:

- Ruhiy travmalarni boshidan kechirgan;
- Ijtimoiy izolyatsiyada bo'lgan;
- Agressiya, tashvish, depressiya, umidsizlik holatlari kuzatiladi.

**Kriminogen travma** — bu shaxsning jinoyat sodir etishiga yoki jinoyatga moyil bo'lib qolishiga sabab bo'ladigan **ruhiy-psixologik shikastlanish** holatidir.

Kriminogen travma — bu insonda ichki (psixologik) yoki tashqi (ijtimoiy) bosimlar ta'sirida vujudga kelgan, uni jinoyatga undashi mumkin bo'lgan travmatik holat.

### **Kriminogen travmalarning sabablari**

1-jadval

<b>Manba turi</b>	<b>Misollar</b>
<b>Bolalikdagi travma</b>	Zo'ravonlik, e'tiborsizlik, tajovuz
<b>Ijtimoiy omillar</b>	Kambag'allik, ishsizlik, zo'ravon muhit
<b>Tarbiyaviy buzilishlar</b>	Oilaviy nazoratning yo'qligi, otasizlik
<b>Davlat yoki jamiyat bosimi</b>	Sud, militsiya, jazoni o'tayotgan joydagi bosim

Manba turi	Misollar
Ichki ruhiy muammolar	Qo‘rquv, iztirob, depressiya, umidsizlik

#### Psixologik oqibatlari:

- Agressiv xulq;
- Empatiya yo‘qolishi;
- Normativ qadriyatlarga befarqlik;
- Ko‘ngilsizlikka radikal (jinoyatkorona) javob berish;
- Jinoyatni oqlovchi fikrlash shakllanishi.

Kriminologiya va psixologiyada **kriminogen travma** tushunchasi jinoyatning psixologik ildizlarini tahlil qilishda qo‘llaniladi. Ba‘zan bu holat **posttravmatik kriminogen sindrom** deb ham yuritiladi — bu shaxs avvalgi og‘ir tajribalar tufayli jinoyatga nisbatan ichki to‘siqlarini yo‘qotgan bo‘ladi.

#### Metodologiyasi quyidagicha xususiyatga ega.

- Psixodiagnostik testlar (MMPI, Beck depression scale);
- Suhbat va so‘rovnoma metodlari;
- Statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish;
- Empirik ma‘lumotlarni solishtirma tahlil qilish (xalqaro va mahalliy tajribalar asosida).

#### Mahkumlarda uchraydigan kriminogen travmalarning turlari va uchrash chastotasi

2-jadval

Travma turi	Tavsifi	Uchrash chastotasi (%)
Bolalik davridagi ruhiy travma	Zo‘ravonlik, e‘tiborsizlik	62%
Jinoyat sodir etish jarayonidagi travma	Stress, pushaymonlik	48%
Qamoqda olingan zarbalar	Tahqirlanish, izolyatsiya, bosim	57%
Sud-tergov bosqichidagi travma	Adolatsizlik, qo‘rquv	39%
Reintegratsiya xavotiri	Jamiyat tomonidan rad etilish qo‘rquvi	44%

#### Psixologik metodlar samaradorligi

3-jadval

Metod	Maqsad	Qo‘llanish (%)	Samaradorlik
CBT	Fikr va xatti-harakatlarni o‘zgartirish	60%	Yuqori
Relaksatsiya	Emotsional barqarorlik	50%	O‘rtacha–yuqori
Guruhiy terapiya	Tajriba almashinuvi, qo‘llab-quvvatlash	45%	Yuqori
EMDR	Travmatik xotiralarni yengish	15%	Yuqori

1. WHO (2021): Jinoyatchilarning 60–80% bolalikda travmatik tajribalar boshidan kechirgan.

2. NIMH (2022): AQSH qamoqlaridagi 37% mahkumda depressiya, 25% da PTSD aniqlangan.

3. Max Planck (2020): Psixologik yordam olganlarning 68% jinoyatni takrorlamagan.

4. UNODC (2021): Psixoprofilaktika har 1 dollariga jamiyatga 4-5 dollar foyda qaytadi.

5. O‘zbekiston Adliya vazirligi (2023): Mahkumlarning 28% psixologik yordamsiz qolmoqda.

Kriminogen travmalarni aniqlash va davolashda individual yondashuv muhim. CBT, EMDR, guruhiy terapiya va relaksatsiya texnikalari mahkumlar orasida ijobiy psixologik o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Psixologik xizmatlar muntazam va ilmiy asosda olib borilsa, retsivizm sezilarli darajada kamayadi. Bu esa jinoyatchilikni oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mahkumlar bilan psixokorreksiya ishlari — ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish, jinoyat qaytalanishini oldini olish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga qaratilgan kompleks psixologik tadbirlar majmuasidir. Bu jarayon adolat tizimi va jazoni ijro etish muassasalari sharoitida amalga oshiriladi.

### Mahkumlar bilan psixokorreksiyaning tashkil etilish bosqichlari:

4-jadval

Bosqich	Tavsif
<b>1. Diagnostika va baholash</b>	- Psixologik testlar (MMPI, Beck depressiya shkala, PTSD testi va boshqalar) orqali mahkumning ruhiy holati aniqlanadi. - Suhbatlar va anamnez yig‘iladi. - Shaxsning travmatik tajribalarini aniqlash va jinoiy xatti-harakatlar sabablari tahlil qilinadi.
<b>2. Individual reja tuzish</b>	- Aniqlangan muammolar asosida shaxsga mos psixokorreksiya dasturi ishlab chiqiladi. - Maqsadlar, metodlar va davomiylik belgilanadi.
<b>3. Psixokorreksiya tadbirlari</b>	- CBT (Kognitiv-xulqiy terapiya): noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy fikrlarga almashtirish. - EMDR (Ko‘z harakati bilan travmani yengillashtirish). - Stress boshqarish va relaksatsiya usullari. - Guruh terapiyasi va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish mashg‘ulotlari.
<b>4. Monitoring va nazorat</b>	- Terapiya davomida mahkumning holati muntazam baholanadi. - Zaruratga qarab reja o‘zgartiriladi. - Psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash davom ettiriladi.
<b>5. Reintegratsiya tayyorgarligi</b>	- Jamiyatga moslashish ko‘nikmalari shakllantiriladi. - Ish topish, oilaviy munosabatlarni tiklash, ijtimoiy hayotga qaytish bo‘yicha maslahatlar beriladi. - Qayta jinoyatchilik ehtimolini kamaytirish choralarini ko‘rish.

#### Muhim jihatlar:

- **Maxfiylik** va ishonch muhiti yaratilishi kerak.
- Psixokorreksiya faoliyati professional psixologlar va jinoyat psixologlari tomonidan olib boriladi.

- Mahkumning ixtiyori hurmat qilinadi, majburlash bo‘lmaydi.
- Psixokorreksiyaning samaradorligi nazorat qilinadi va natijalar qayd etiladi.
- Dasturlar individual va guruh shaklida tashkil etilishi mumkin.

#### Psixokorreksiyaning samaradorligi:

Tadqiqotlarga ko‘ra, mahkumlarga yo‘naltirilgan psixokorreksiya dasturlari:

- Qayta jinoyatchilik darajasini 30–50% ga kamaytiradi,
- Ruhiy kasallik va depressiya simptomlarini pasaytiradi,
- Ijtimoiy moslashuvni yaxshilaydi.

#### Xulosa va takliflar

- Mahkumlar orasida muntazam psixologik monitoring o‘tkazish;
- Har bir mahkum uchun individual psixoprofilaktika rejasini ishlab chiqish;
- Psixologlarning malakasini oshirish bo‘yicha doimiy treninglar tashkil etish;
- Mahkumlarga jamiyatga moslashishga ko‘mak beruvchi reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. WHO. (2021). *Violence Prevention Report*. Geneva.
2. National Institute of Mental Health. (2022). *Prison Mental Health Survey*.
3. Max Planck Institute for Criminal Law. (2020). *Recidivism and Trauma*.
4. UK Ministry of Justice. (2023). *CBT Intervention Evaluation Report*.
5. UNODC. (2021). *Crime Prevention Through Rehabilitation Report*.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. (2023). *Yillik statistik hisobotlar*.
7. Z.Elov. Zo‘ravonlik jinoyatlarini sodir etuvchi shaxslar toifasi psixologiyasi. "ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1 (9) 2024
8. Z.Elov. Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o‘rganilishi. ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI. Ilmiy konferensiya to‘plami. 2023
9. Z.Elov. Jinoyat sodir etishning ijtimoiy-psixologik sabablar. 2024 PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI 2 (1), 103-107
10. З.Элов. Ўсмир шахсида деликвент ахлоқ–девиант хулқ-атвор шакли сифатида. Та’лим va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy metodik jurnal. –Buxoro 2023
11. З.Элов. Девиант хулқ-атворли ўсмирлар орасида суицидал ахлоқ тушунчаси ва илмий тахлиллар. 2023 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 170-178
12. Z.Elov. Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda suitsidial holatlarning psixologik sabablari. 2024. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice* 2 (10), 53-60
13. Z.Elov. Deviant xulq-atvorni o‘rganishdagi psixologik yondashuvlar. 2025 ИКРО журнал 16 (01), 34-39

#### MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

##### Turdiyev Zafar Erkinovich

IIV huzuridagi jazoni ijro etish departamenti, 6-mintaqaviy hudud,  
1-son JEK boshlig‘i, podpolkovnik  
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri



**Qodirov Jahongir Neymat o'g'li**  
*Qashqadaryo viloyati Kitob tuman  
Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida  
inson resurslarini boshqarish sho'basini inspektor metodisti*

**Annotatsiya.**

**KIRISH:** Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida Talabalarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash orqali ularni ijtimoiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglash, islohotlarga nisbatan dahldorlik hissini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Buyuk Britaniyada 2019-yilda o'tkazilgan tadqiqotda, Talabalarning 78% maktabda o'tilgan vatanparvarlik mavzulari ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishi, Avstraliyada 2020-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Talabalarning 82% maktabda olingan vatanparvarlik ta'limi ularning jamiyatga integratsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan<sup>2</sup>. Shu bilan birga vatanparvarlikning safarbarlik oldi jarayonida namoyon bo'lishidagi ijtimoiy-psixologik muammolar, madaniy va milliy identifikatsiyani saqlash, yosh avlodni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash millat birligi va davlat mustahkamligini ta'minlash dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Maqolada shu kabi masalalar ilmiy tahlil qilingan.

**MAQSAD:** Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslarini ilmiy tahlil qilish va zarur xulosalar ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

**XULOSA:** talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** yosh, vatan, inson, yurt, himoya, xalq, millat, insoniylik, o'tmish, talaba, mustaqillik, qonun, armiya

**ТЕОРЕТИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПАТРИОТИЧЕСКОГО  
ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ**

**Кадыров Джахонгир Нейматович**  
*Кашкадарьинская область Китабский район  
Отдел дошкольного и школьного образования  
Инспектор-методист отдела управления кадрами*

### Аннотация.

**ВВЕДЕНИЕ:** В исследовательских центрах и высших учебных заведениях по всему миру уделяется внимание повышению социальной активности студентов, пониманию ими своей ответственности перед государством и обществом, повышению их чувства приверженности реформам путем воспитания в них духа патриотизма. В исследовании 2019 года в Великобритании 78% студентов заявили, что патриотические темы, преподаваемые в школе, служат укреплению их национальной идентичности, а по результатам исследования 2020 года в Австралии 82% студентов заявили, что патриотическое воспитание, полученное в школе, оказало положительное влияние на их интеграцию в общество<sup>2</sup>. При этом актуальными остаются социально-психологические проблемы проявления патриотизма в предмобилизационном процессе, сохранения культурной и национальной идентичности, воспитания подрастающего поколения в духе уважения к национальным ценностям и традициям, обеспечения национального единства и прочности государства.

В статье дается научный анализ таких вопросов.

**ЦЕЛЬ:** Научно проанализировать теоретические основы воспитания молодежи в духе патриотизма и разработать необходимые выводы.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Будущее каждого общества определяется уровнем развития его системы образования, которая является его неотъемлемой частью и жизненной необходимостью. Сегодня в нашей стране, идущей по пути самостоятельного развития, реформирование и совершенствование системы непрерывного образования, вывод ее на новый качественный уровень, внедрение в нее передовых педагогических и информационных технологий, повышение эффективности образования возведены в ранг государственной политики. С принятием Закона Республики Узбекистан «Об образовании» создана основа для подготовки современных кадров через непрерывное образование.

**ВЫВОД:** Воспитание учащейся и молодёжи в военно-патриотическом духе — это многоэтапная, системная, целенаправленная работа государственных органов, общественных объединений и иных организаций, направленная на формирование у них стойкого чувства уважения к своей национальности, языку и профессии, чувства преданности Родине, воспитание их как личностей, способных выполнять свой гражданский долг и конституционные обязанности, защищать интересы общества и государства. и скоординированная деятельность.

**Ключевые слова:** молодёжь, родина, человек, страна, оборона, народ, нация, человечество, прошлое, студент, независимость, закон, армия

## THEORETICAL PSYCHOLOGICAL BASIS OF PATRIOTICAL EDUCATION OF YOUTH

**Kadirov Jahongir Neymat o'g'li**

*Kashkadarya region Kitab district*

*Inspector methodologist of the human resources management department*

*Department of preschool and school education*

### Annotation.

**INTRODUCTION:** In research centers and higher education institutions around the world, attention is being paid to increasing students' social activity, understanding their responsibility to the state and society, and increasing their sense of commitment to reforms by cultivating a spirit of patriotism. In a 2019 study in the UK, 78% of students said that patriotic topics taught at school served to strengthen their national identity, and according to the results of a 2020 study in Australia, 82% of students said that patriotic education received at school had a positive impact on their integration into society<sup>2</sup>. At the same time, socio-psychological problems in the manifestation of patriotism in the pre-mobilization process, preserving cultural and national identity, educating the younger generation in the spirit of respect for national values and traditions, ensuring national unity and state strength remain urgent problems.

The article provides a scientific analysis of such issues.

**GOAL:** To scientifically analyze the theoretical foundations of educating young people in the spirit of patriotism and develop the necessary conclusions.

**MATERIALS AND METHODS:** The future of each society is determined by the level of development of its education system, which is its integral part and vital necessity. Today, in our country, which is moving towards independent development, the reform and improvement of the system of continuous education, its raising to a new level of quality, the introduction of advanced pedagogical and information technologies into it, and the increase in the efficiency of education have been raised to the level of state policy. With the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", the basis for the training of modern personnel through continuous education has been created.

**CONCLUSION:** Educating students and young people in a military-patriotic spirit is a multi-stage, systematic, purposeful work of state bodies, public associations and other organizations aimed at forming in them a strong sense of respect for their nationality, language and profession, a sense of loyalty to the Motherland, and raising them as individuals capable of fulfilling their civic duty and constitutional obligations, and protecting the interests of society and the state. and coordinated activity.

**Keywords:** youth, homeland, person, country, defense, people, nation, humanity, past, student, independence, law, army

**XX** asrning so‘nggi va XXI asrning yigirma yilida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli millatning asriy orzusi demokratiya, ozodlik, erkinlik, farovon va osoyishta turmush tarzini chuqur anglash fursati etdi. Xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, o‘z taqdirini o‘zi belgilab, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shuningdek, taraqqiyparvar davlatlar tajribasini ijodiy o‘rganib yuksak intilishlar bilan yashay boshladi. Bularning barchasi adabiy ta‘limning maqsadini ham o‘zgartirdi - endi bosh maqsad bolalarni ezgu qadriyatlar asosida bilimli, yuqori salohiyatli, vatani va xalqiga sodiq, jismonan sog‘lom, teran va mustaqil fikrlovchi shaxs etib tarbiyalashdir.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalarida Talabalarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash orqali ularni ijtimoiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat oldidagi mas‘uliyatini anglash, islohotlarga nisbatan dahldorlik hissini oshirishga e‘tibor qaratilmoqda. Buyuk Britaniyada 2019-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda, Talabalarning 78% maktabda o‘tilgan vatanparvarlik mavzulari ularning milliy identifikatsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishi, Avstraliyada 2020-yilda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Talabalarning 82% maktabda olingan vatanparvarlik ta‘limi ularning jamiyatga integratsiyalashuviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan<sup>2</sup>. Shu bilan birga vatanparvarlikning safarbarlik oldi jarayonida namoyon bo‘lishidagi ijtimoiy-psixologik muammolar, madaniy va milliy identifikatsiyani saqlash, yosh avlodni milliy qadriyatlar va an‘analarga hurmat ruhida tarbiyalash millat birligi va davlat mustahkamligini ta‘minlash dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev 2021 yilning 19 yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda, **“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma‘naviyatdir, ... Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyatidir”**,- dedi<sup>14</sup>

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. “Yangi O‘zbekiston” 2021 yil 19 yanvar.

bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi bilan uzluksiz ta‘lim orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Innovasion pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishi talab etiladi.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida zamonaviy kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishidir.

Ta‘lim muassasasi o‘sib kelayotgan shaxsni o‘qitish jarayonida ularga ta‘lim olish sharoitlarini yaratadi. O‘qituvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish hamda rivojlantirishning yo‘naltirilgan bo‘lishi o‘qituvchi ma‘suliyatini yanada oshiradi.

Mazkur muammo yuzasidan mamlakatimiz olimlaridan milliy o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, milliy tarbiya bo‘yicha T.Abdullayeva, Z.Abdurahmonova, N.Egamberdiyeva, M.Inomova, X.Jabborov, Z.Elov, D.Raximboyeva, B.Saidov, G‘.Shoumarov va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan<sup>15</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari pedagog-psixologlaridan A.N.Virshikov, A.Y.Konarjevskiy, L.I.Malenkova, S.V.Matveyeva, A.V.Merenkov, F.YE.Popov, V.I.Polyakova, M.M.Potashnik, V.P.Savenko va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida vatanparvarlik fenomeni psixologiya muammosi sifatida o‘rganilgan bo‘lib, vatanparvarlikning milliy-madaniy xususiyatlari, yosh xususiyatlari va kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi kabi masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Vatanparvarlik – qadimiy tushuncha bo‘lib, uning asosi yunon tilidan («pater») olingan, ya‘ni vatan so‘zidan olingan. Vatanparvarlik deganda, Vatanga muhabbat, uning o‘tmishi va hozirgi kuni uchun g‘ururlanish mazmunidagi ma‘naviy va siyosiy tamoyil, ijtimoiy hissiyot tushuniladi. YOshlarda vatanparvarlik hissi avvalambor oiladan, maktabgacha ta‘lim yoshidan singdirila boshlanadi. Keyinchalik umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida, shakllantirilib, bu jarayon oliy ta‘lim muassasalarida rivojlantiriladi. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida asosan Vatanni tabiiy va ma‘naviy muhit sifatida aks ettiruvchi qadriyatlar interiorizastiyasi, ya‘ni vatanparvarlikning hissiy komponentlari tashkil topadi.

Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma‘naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi - «Vatan» tushunchasini shakllantirish, jonajon o‘lkaga, Vatanga, xalqiga, milliy an‘analari va odatlariga, boshqa millatlarga hurmat va muhabbatni tarbiyalash; millati, Vatanga g‘ururni tarbiyalash; mustaqil O‘zbekiston davlatidagi barcha er usti va er osti moddiy boyliklarini asrab-avaylash; davlat ramzlari: gimn, gerb, bayroq to‘g‘risidagi tushunchalarni kengaytirish, har qanday holatda ham ularni ko‘z qorachig‘iday asrash demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-son qaroriga binoan “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi<sup>16</sup>” ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu konsepsitiyaning 2-bobida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy

<sup>15</sup> J.Qodirov. Talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga globallashuv jarayonining ta‘siri. Dis. 2025-y.

<sup>16</sup> <https://www.lex.uz/docs/-6518238?ONDATE=16.01.2024>

sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

**birinchidan**, yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

**ikkinchidan**, qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

**uchinchidan**, milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

**to'rtinchidan**, yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

**beshinchidan**, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

**oltinchidan**, O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish — bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

Darhaqiqat, vatanparvarlik yoshlarda fuqarolik burchi, shaxsiy mas'uliyat hissi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usini, faol hayotiy pozitsiya va qat'iy e'tiqodini, kasbiy mahoratini shakllantiradigan qudratli vositadir. Bundan unumli foydalangan holda yoshlarimizda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, Ona-yurt taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlash, ularni o'z kasbiga sadoqatli va har tomonlama etuk kadrlar etib tarbiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishimizni taqozo qilmoqda.

### Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning to'rt muhin bosqich.

1-jadval

Birinci bosqich (3-7 yoshdagi bolalar)	Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagi bolalar)	Uchinchi bosqich (16-18 yoshdagi o'smirlar)	To'rtinchi bosqich (18-30 yoshdagi o'smirlar)
atrofdagi olam, Vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo'ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tegishli yo'nalishlar bo'yicha she'rlar, qo'shiqlar o'rgatish, ertak va hikoyalar aytib berish, rasmlar chizdirish, harbiy muzeylar va madaniyat va istirohat bog'lariga	talabalarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, Ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas'uliyat bilan bajarish, ularda Qurolli Kuchlarimizga bo'lgan ishonch va ijobiy fikrlarni yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzini oshirish, yoshlarning jismonan sog'lom, ma'naviy	yoshlarda Vatanga va uning himoyasi uchun munosib xizmat qilishga ruhan va jismonan tayyorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi. Milliy armiyamiz uchun jismonan baquvvat va ma'nan etuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmatning ahamiyati, Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar haqida	yoshlarning jismoniy va ma'naviy qobiliyati, etakchilik ko'nikmalari va intellektual salohiyati, professional malakasini oshirish, egallagan kasbiga sadoqati va fidoyiligi bilan Vatan ravnaqi va yurt taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shish va bunga erishishni nazarda tutadi.

ekskursiyalar, sport musobaqalari tashil etish, davlat ramzlari (bayroq, gerb, madhiya) bilan tanishtirish asosida ularda ona yurtga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni o'z ichiga oladi	etuk, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da'vat etiladi	batafsil ma'lumot berib boriladi	
--	--	----------------------------------	--

Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash o'sib kelayotgan yosh avlodning millati, tili, kasbi va ishtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Vatanga bo'lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitutsiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga aytiladi. Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Sababi yoshlarning asosiy vaqti ta'lim muassasida ta'limtarbiya olishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida beriladi.

## 2-jadval

**"Talabalarda vatanparvarlik xususiyatlarini aniqlovchi so'rovnomma" orqali olingan natijalarining qiyosiy tahlili (n=270)**

№	Komponentlari	Guruhlar	Treningdan oldingi	Treningdan keyingi	Farqlanish	
			M	M	t	p
1.	Vatanparvarlik	Tajriba guruhi (n=110)	4,3	6,9	-2,6	0,05
		Nazorat guruhi (n=160)	4,7	5,3	-1,7	0,14
2.	Mas'uliyatlilik	Tajriba guruhi (n=110)	5,2	7,8	-2,8	0,05
		Nazorat guruhi (n=160)	5,8	6,3	-1,4	0,15
3.	Tashabbuskorlik	Tajriba guruhi (n=110)	4,7	6,5	-2,6	0,05
		Nazorat guruhi (n=160)	5,1	5,4	-1,7	0,16

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan mamlakatimiz harbiy sohadagi davlat siyosati, Qurolli Kuchlarimizning mudofaa salohiyatini oshirish borasida islohotlarning yangi bosqichi boshlab berildi. Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni harbiy xizmatchilar bilan suhbatlashib, mansabdor shaxslarning hisobotlarini eshitar ekan, sohada ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, tizimli muammolarni ham ko'rsatib o'tib, **"Bular – kadrlar masalasi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli muammolardir<sup>17</sup>"**, deb ta'kidlagan.

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 3-soni. - 2017 yil. 10 yanvar.

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyati hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O'RQ-406 «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» Qonuni / <http://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori / <http://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422- son «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori/ <http://lex.uz>.
4. Қодиров У.Д. Ёшларни деструктив гуруҳлар таъсиридан ҳимоялашнинг долзарб муаммолари // Психология. – Бухоро, 2011. – № 1. – Б. 65–70.
5. Солдатова Г.У. Толерантность – норма жизни в мире разнообразия // Вопросы психологии. – М., 2002. – № 1. – С. 132–135.

#### **MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Qodirov Jahongir Neymat o'g'li**

Qashqadaryo viloyati Kitob tuman

Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limida inson resurslarini boshqarish

sho'basi inspektor metodisti

Manzil: O'zbekiston, 200100, Kitob tumani

## YOSH RAHBAR KADRLARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI MISOLIDA)



**Ruziboyev Temur Bahodirovich**  
*Buxoro Xalqaro Universiteti doktoranti*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari davlat hokimiyati organlari misolida o'rganilganda, bu jarayonning murakkabligi va ko'p qirraliligi yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida yosh rahbarlarning yetakchilik qobiliyatlari nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati uchun, balki butun boshqaruv tizimining samaradorligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, yosh rahbarlarning liderlik sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratish, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va rivojlantirish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda. Ushbu maqolada yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**MAQSAD:** Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Yosh rahbarlarning liderlik sifatlarini shakllantirishda o'quv va amaliy faoliyatning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliyotda olingan tajriba rahbarlarga o'zining boshqaruv uslublarini sinab ko'rish, xatolarni tahlil qilish va o'rganish imkonini beradi. Davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlar uchun mentorlik tizimini joriy etish samarali natijalar beradi. Mentorlar yosh rahbarlarga o'z tajribalarini o'rtoqlashish, murakkab vaziyatlarda maslahat berish va shaxsiy o'sishga ko'maklashadi. Mentorlik tizimi yosh rahbarlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni yangi g'oyalar va yondashuvlarga ochiq bo'lishga undaydi hamda ularning boshqaruv madaniyatini rivojlantiradi.

Davlat boshqaruvida halollik, adolat, mas'uliyat va jamoatchilik manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish kabi qadriyatlar rahbarning obro'si va samaradorligini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, jamoaning unga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

**XULOSA:** Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirish davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyati uchun asosiy omillardan biridir. Ushbu jarayonda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ya'ni shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni, psixologik holati, kommunikativ qobiliyatlari va axloqiy-etik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh rahbarlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning amaliy tajribasini oshirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali davlat boshqaruvida yangi avlod liderlarini shakllantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va davlat boshqaruvining yuqori samaradorligiga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kadrlar, liderlik sifatleri, davlat hokimiyati, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, boshqaruv, shaxs, bilim, ko'nikmalar, psixologiya, stress.

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИДЕРСКИХ КАЧЕСТВ У МОЛОДЫХ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАДРОВ (НА ПРИМЕРЕ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ)

Рузибаев Темур Бахадирович

*Докторант Бухарского международного университета*

### **Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** При изучении социально-психологических особенностей формирования лидерских качеств у молодых управленческих кадров на примере органов государственной власти наглядно демонстрируется сложность и многогранность этого процесса. В современной системе государственного управления лидерские способности молодых управленцев важны не только для их личной успешности, но и для эффективности всей системы управления. Поэтому с каждым днем возрастает необходимость уделять внимание формированию лидерских качеств молодых управленцев, глубоко анализировать и развивать их социально-психологические характеристики. В данной статье представлена информация о социально-психологических особенностях формирования лидерских качеств у молодых управленческих кадров.

**ЦЕЛЬ:** Научный анализ социально-психологических особенностей формирования лидерских качеств у молодых управленческих кадров

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** Сочетание образовательной и практической деятельности имеет важное значение в формировании лидерских качеств молодых управленцев. Наряду с теоретическими знаниями, опыт, полученный на практике, позволяет управленцам апробировать свои стили управления, анализировать и учиться на ошибках. Внедрение системы наставничества для молодых руководителей в органах государственной власти дает эффективные результаты. Наставники помогают молодым лидерам делиться опытом, консультируют в сложных ситуациях, способствуют личностному росту. Система наставничества повышает уверенность молодых лидеров в себе, стимулирует их открытость новым идеям и подходам, развивает их управленческую культуру.

В государственном управлении такие ценности, как честность, справедливость, ответственность, приоритет общественных интересов определяют авторитет и эффективность лидера. Это, в свою очередь, укрепляет доверие к нему коллектива и обеспечивает социальную стабильность.

**ВЫВОД:** Формирование лидерских качеств у молодых руководящих кадров является одним из основных факторов эффективного функционирования органов государственной власти. В этом процессе важную роль играют социально-психологические характеристики, а именно роль человека в общественных отношениях, психологическое состояние, коммуникативные способности, морально-этические принципы. Совершенствуя систему подготовки молодых лидеров, увеличивая их практический опыт и усиливая психологическую поддержку, можно сформировать новое поколение лидеров государственного управления. Это, в свою очередь, будет способствовать устойчивому развитию общества и высокой эффективности государственного управления.

**Ключевые слова:** персонал, лидерские качества, публичная власть, социально-психологические характеристики, управление, личность, знания, навыки, психология, стресс.

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF LEADERSHIP QUALITIES IN YOUNG MANAGERIAL PERSONNEL (ON THE EXAMPLE OF STATE AUTHORITIES)

**Ruziboyev Temur Bahodirovich**

*PhD student at Bukhara International University*

### **Annatation.**

**INTRODUCTION:** When studying the socio-psychological characteristics of the formation of leadership qualities in young managerial personnel on the example of state authorities, the complexity and versatility of this process are clearly demonstrated. In the modern system of public administration, the leadership abilities of young managers are important not only for their personal success, but also for the effectiveness of the entire management system. Therefore, the need to pay attention to the formation of leadership qualities of young managers, to deeply analyze and develop their socio-psychological characteristics is increasing day by day. This article provides information on the socio-psychological characteristics of the formation of leadership qualities in young managerial personnel.

**GOAL:** Scientific analysis of the socio-psychological characteristics of the formation of leadership qualities in young managerial personnel

**MATERIALS AND METHODS:** The combination of educational and practical activities is important in the formation of leadership qualities of young managers. Along with theoretical knowledge, the experience gained in practice allows managers to test their management styles, analyze and learn from mistakes. The introduction of a mentoring system for young leaders in state authorities gives effective results. Mentors help young leaders share their experience, advise in difficult situations, and promote personal growth. The mentoring system increases the self-confidence of young leaders, encourages them to be open to new ideas and approaches, and develops their management culture.

In public administration, values such as honesty, justice, responsibility, and prioritizing public interests determine the authority and effectiveness of a leader. This, in turn, strengthens the trust of the team in him and ensures social stability.

**CONCLUSION:** The formation of leadership qualities in young leadership personnel is one of the main factors for the effective functioning of state authorities. In this process, socio-psychological characteristics, namely the role of a person in social relations, psychological state, communicative abilities, and moral and ethical principles, play an important role. By improving the system of training young leaders, increasing their practical experience and strengthening psychological support, it is possible to form a new generation of leaders in public administration. This, in turn, will contribute to the sustainable development of society and high efficiency of public administration.

**Keywords:** personnel, leadership qualities, public authority, socio-psychological characteristics, management, personality, knowledge, skills, psychology, stress.

Liderlik sifatlari yosh rahbar kadrlarda muvaffaqiyatli boshqaruvning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda va davlat boshqaruvida liderlik nafaqat pozitsiya yoki lavozimga ega bo'lish, balki boshqalarni ilhomlantirish, jamoani bir maqsadga yo'naltirish va murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Yosh rahbarlar uchun liderlik fazilatlarini rivojlantirish o'z-o'zini anglash, mas'uliyatni his qilish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Bu esa ularning nafaqat shaxsiy, balki professional o'sishiga ham xizmat qiladi.

Liderlik sifatleri shaxsning boshqalar ustidan ta'sir o'tkazish, jamoani boshqarish, muhim qarorlar qabul qilish va maqsad sari yo'naltirish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Yosh rahbarlarda bu sifatleri shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, unda ijtimoiy muhit, shaxsiy psixologik holat va boshqaruv tajribasi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Davlat hokimiyati organlarida

faoliyat yuritish yosh rahbarlarga nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni, balki liderlik fazilatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillar, ya'ni shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'rni, guruh ichidagi mavqei, o'zini tutish usullari va boshqalar bilan samarali muloqot qilish kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh rahbarlarni tayyorlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, jumladan, ishonch, mas'uliyat, qat'iyatlilik, kommunikativ qobiliyatlar, emotsional intellekt kabi liderlik uchun zarur bo'lgan fazilatlar rivojlantiriladi. Ushbu fazilatlar yosh rahbarlarni murakkab vaziyatlarda o'zini ishonch bilan tutishga, jamoani boshqarishda qat'iyatlilik va adolatni namoyon etishga, shuningdek, samarali muloqot qilishga undaydi. Davlat hokimiyati organlarida ishlash yosh rahbarlarga o'zining ijtimoiy rolini anglash, jamoa bilan samarali ishlash, muammolarni hal etish va innovatsion qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayonda psixologik moslashuv, stressga chidamlilik va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy muhit yosh rahbarning liderlik sifatlarini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyati organlarida ishlash yosh rahbarlarni turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqot qilishga, ularning ehtiyoj va talablarini tushunishga, shuningdek, jamoani boshqarishda muvofiqlik va hamkorlikni ta'minlashga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, rahbarning ijtimoiy intellektini oshiradi va ularni murakkab ijtimoiy vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Ijtimoiy intellektning rivojlanishi yosh rahbarlarga boshqalar bilan empatiya qilish, ularning his-tuyg'ularini tushunish va shunga mos ravishda o'z harakatlarini moslashtirish imkonini beradi. Bu esa, jamoaning birligini mustahkamlash va umumiy maqsad sari birlashishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Liderlik sifatlarini shakllantirishda psixologik jihatlar ham katta rol o'ynaydi. Yosh rahbarlarning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'zini anglash darajasi, motivatsiyasi va maqsadga yo'naltirilganligi ularning samarali boshqaruv faoliyatini ta'minlaydi. Shu bois, davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlarni tayyorlash jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash va treninglar tashkil etish zarur. Bu treninglar rahbarlarga o'zining ichki resurslarini kashf etishga, stressni boshqarishga va jamoa bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi. Psixologik tayyorgarlik yosh rahbarlarning muammolarni hal qilishda qat'iyatlilik va ijobiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, ularni professional faoliyatdagi qiyinchiliklarga bardoshli qiladi.[1]

Yosh rahbarlarning liderlik sifatlarini shakllantirishda o'quv va amaliy faoliyatning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliyotda olingan tajriba rahbarlarga o'zining boshqaruv uslublarini sinab ko'rish, xatolarni tahlil qilish va o'rganish imkonini beradi. Davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlar uchun mentorlik tizimini joriy etish samarali natijalar beradi. Mentorlar yosh rahbarlarga o'z tajribalarini o'rtoqlashish, murakkab vaziyatlarda maslahat berish va shaxsiy o'sishga ko'maklashadi. Mentorlik tizimi yosh rahbarlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ularni yangi g'oyalar va yondashuvlarga ochiq bo'lishga undaydi hamda ularning boshqaruv madaniyatini rivojlantiradi. Shuningdek, yosh rahbarlarning liderlik sifatlarini shakllantirishda axloqiy-etik tamoyillar muhim o'rin tutadi. Davlat boshqaruvida halollik, adolat, mas'uliyat va jamoatchilik manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish kabi qadriyatlar rahbarning obro'si va samaradorligini belgilaydi. Bu esa, o'z navbatida, jamoaning unga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Axloqiy-etik tamoyillar yosh rahbarlarni nafaqat professional, balki inson sifatida ham rivojlantiradi, ularni jamiyat oldida o'z vazifalarini sidqidildan bajarishga undaydi. [2]

Yosh rahbarlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirishda kommunikatsiya madaniyatini oshirish ham muhimdir. Samarali muloqot, tinglash va tushunish qobiliyatlari rahbarlarga jamoa a'zolari bilan o'zaro ishonchli munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamoaning umumiy maqsad sari birlashishini ta'minlaydi. Shuningdek, yosh rahbarlar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifoda eta olishlari, nizolarni hal qilishda konstruktiv yondashuvni qo'llashlari zarur. Muloqot madaniyati yosh rahbarlarni turli fikr va qarashlarga ochiq bo'lishga, jamoa ichidagi muammolarni samarali hal qilishga va boshqalar bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlarni tayyorlash tizimi doimiy ravishda yangilanib borishi lozim. Zamonaviy boshqaruv talablariga mos ravishda, yosh rahbarlar uchun maxsus dasturlar, seminarlar va treninglar tashkil etilishi kerak. Bu tadbirlar ularning liderlik

qobiliyatlarini oshirish, yangi boshqaruv uslublarini o'zlashtirish va zamonaviy muammolarga moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, yosh rahbarlarning xalqaro tajribalarni o'rganishi, ilg'or boshqaruv texnologiyalarini qo'llashi uchun sharoitlar yaratish ham zarur. Bu esa, ularning professional darajasini oshirish bilan birga, davlat boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. [3]

Davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlarni tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u mamlakatning kelajagini belgilovchi muhim yo'nalishlardan biridir. Bu jarayon nafaqat yosh kadrlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga, balki ularni etakchilik sifatida shakllantirishga ham qaratilgan. Yosh rahbarlarni tayyorlashda tizimli yondashuv va zamonaviy pedagogik metodlar qo'llaniladi. Avvalo, yosh rahbarlarning bilim darajasini oshirish uchun maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqiladi. Bu dasturlar davlat boshqaruvi, qonunchilik, iqtisodiyot, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarni qamrab oladi. Ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlar beriladi, balki amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ham tashkil etiladi. Seminarlar, treninglar, interaktiv mashg'ulotlar yosh rahbarlarga boshqaruv jarayonlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqaruv usullarini o'rganish imkoniyatlari yaratilib, yosh kadrlarning raqobatbardoshligini oshirishga e'tibor qaratiladi. [4]

Yosh rahbarlarni tayyorlashda mentorlik tizimi muhim o'rin tutadi. Tajribali rahbarlar yosh kadrlarni yo'naltirib, ularning professional va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashadi. Mentorlar yosh rahbarlarga murakkab vaziyatlarda qanday harakat qilish, jamoani boshqarish, qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni o'rgatadi. Bu jarayon yosh rahbarlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni real boshqaruv vazifalariga tayyorlaydi. Amaliyot va stajirovkalar ham yosh rahbarlarni tayyorlashning ajralmas qismidir. Davlat hokimiyati organlarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar yosh kadrlarga nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Amaliyot davomida ular boshqaruv jarayonlarining murakkabliklarini, jamoa bilan ishlashni va mas'uliyatni chuqurroq anglay boshlaydi. Bu esa ularning boshqaruvdagi samaradorligini oshiradi. Yosh rahbarlarning shaxsiy rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratiladi. Psixologik tayyorgarlik orqali ularning stressga chidamliligi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va emotsional intellekti rivojlantiriladi. Bu ko'nikmalar murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va samarali muloqot qilish uchun zarurdir. Shuningdek, axloqiy-etik qadriyatlarni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Halollik, mas'uliyat, adolat kabi tamoyillar yosh rahbarlarning professional faoliyatining ajralmas qismiga aylanadi. Innovatsion yondashuvlar va xalqaro tajriba almashinuvi yosh rahbarlarni tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, ilg'or tajribalar va global tendensiyalarni o'rganish yosh rahbarlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qiladi. Shu bilan birga, jamoaviy ish va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Samarali muloqot, nizolarni hal qilish va liderlik qobiliyatlarini oshirish yosh rahbarlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, davlat hokimiyati organlarida yosh rahbarlarni tayyorlash jarayoni har tomonlama rivojlangan, tizimli va zamonaviy yondashuvlarga asoslangan. Bu jarayon yosh kadrlarni nafaqat kasbiy jihatdan, balki shaxs sifatida ham yetuk etib tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, davlat boshqaruvida yangi avlod yetakchilarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, davlat organlari faoliyatining samaradorligi oshadi, boshqaruv tizimi yanada mustahkamlanadi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shiladi.[5]

Xulosa qilib aytganda, yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirish davlat hokimiyati organlarining samarali faoliyati uchun asosiy omillardan biridir. Ushbu jarayonda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ya'ni shaxsning ijtimoiy munosabatlardagi o'rni, psixologik holati, kommunikativ qobiliyatlari va axloqiy-etik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh rahbarlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning amaliy tajribasini oshirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish orqali davlat boshqaruvida yangi avlod liderlarini shakllantirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va davlat boshqaruvining yuqori samaradorligiga xizmat qiladi. Yosh rahbarlarning liderlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv davlat hokimiyati organlarining ishonchliligi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Tursunov, B. (2022). Yosh rahbarlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish masalalari. Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, 3(2), 45-52.
2. Sobirov, N. (2021). Davlat boshqaruvida yosh rahbarlarning psixologik tayyorgarligi. Ijtimoiy fanlar, 4(1), 33-40.
3. Yulchiyeva, Z.N. (2020). Boshqaruv psixologiyasi. Ilm-fan va ta'lim, 2(3), 15-22.
4. Karimova, M. (2019). Boshqaruv psixologiyasi. Fan va jamiyat, 5(4), 60-68.
5. Rasulov, A. (2018). Liderlik va ijtimoiy kreativlikning yoshlar hayotidagi ahamiyati. Yosh tadqiqotchi, 1(1), 10-17.
6. Mirzaev, S. (2017). Ijtimoiy psixologiya va rahbarlik. Psixologiya va pedagogika, 3(2), 27-35.
7. Axmedov, O. (2022). Yosh rahbar kadrlarda liderlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, 4(1), 12-20.
8. Islomov, D. (2023). Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi. Ilm-fan va ta'lim, 5(1), 34-41.
9. Qodirova, L. (2021). Yoshlar madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy omillar. Jamiyatshunoslik, 2(3), 22-29.
10. Rasulova, M. (2020). Oliy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli. Ta'lim va taraqqiyot, 3(2), 15-23.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

**Ruziboyev Temur Bahodirovich**  
Buxoro Xalqaro Universiteti doktoranti  
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH



**Qodirova Nargiza Odil qizi**

*Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri*

### **Annotatsiya.**

**KIRISH:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy yondashuvlari va samarali pedagogik metodlari atroflicha tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash bugungi kunda nafaqat yuqori bosqichdagi ta'lim jarayonlarida, balki aynan boshlang'ich ta'limda ham asosiy o'quv kompetensiyalaridan biri sifatida qaralmoqda. Maqolada tanqidiy fikrlash nima ekanligi, u qanday shakllanishi, o'qituvchi va oila a'zolarining bu jarayondagi o'rni, yoshga mos metod va texnologiyalar, o'quvchilar psixologiyasiga asoslangan yondashuvlar tahlil qilinadi. Yozuv davomida metodik tavsiyalar, interaktiv o'yinlar, innovatsion texnologiyalar yordamida o'rgatish bo'yicha misollar keltirilgan. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**MAQSAD:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Pedagogikada tanqidiy fikrlash ko'proq mustaqil va reflektiv fikrlash sifatida ta'riflanadi. Psixolog Lev Vygotskiy va amerikalik pedagog Jon Dyui tanqidiy tafakkurni bolaning faoliyat orqali o'rganishi, voqealarga o'z munosabatini bildira olishi, "nima uchun?" degan savolga javob izlash istagi bilan bog'laydi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni "fikrlash jarayonining faol va doimiy shakli" deb atagan va uning asosida shubhalanish, tahlil qilish, taxmin qilish va baholash yotishini ta'kidlagan.

Tanqidiy fikrlash faqat akademik sohada emas, balki kundalik hayotda qaror qabul qilish, muammolarga javob topish, ma'lumotni saralash va real vaziyatlarda moslashuvchanlik ko'rsatish uchun ham zarur. Bu qobiliyat insonning hayot sifati va muvaffaqiyat darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

**XULOSA:** Tanqidiy fikrlash bolada tabiiy tarzda shakllanmaydi - bu ko'nikma tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv, to'g'ri metodika, ta'lim muhitidagi hamkorlik va doimiy mashq orqali rivojlanadi. O'qituvchi - bu jarayonning bosh yetakchisi bo'lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalar orqali darsni fikr yuritish maydoniga aylantirishi kerak.

Bundan tashqari, oilaning roli ham inkor etib bo'lmaydi. Ota-onalar bola savol bersa quvonsa, fikrini qadrlasa, tanqidiy fikrlashga eng katta hissa qo'shadi. Maktab va oila bir-birini to'ldiruvchi ikkita kuch bo'lib, ular yagona maqsad - farzandni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash sari harakat qilishi lozim.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, o'quv metodikasi, interaktiv dars, o'qituvchi, psixologik xususiyatlar, savol-javob, metakognitsiya, baholash mezonlari, oila va ta'lim, raqamli texnologiyalar.

**ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ**

**Кадилова Наргиза Адиловна**

*Магистрант Азиатского международного университета*

**Аннотация.**

**ВВЕДЕНИЕ:** В данной статье дается комплексный анализ теоретических основ, практических подходов и эффективных педагогических методов развития навыков критического мышления у учащихся начальной школы. Критическое мышление в настоящее время считается одной из основных образовательных компетенций не только в высшей школе, но и в начальном образовании. В статье анализируется, что такое критическое мышление, как оно формируется, роль учителей и членов семьи в этом процессе, соответствующие возрасту методы и технологии, подходы, основанные на психологии учащихся. В статье приводятся методические рекомендации, примеры обучения с использованием интерактивных игр и инновационных технологий. Данная статья может быть полезна учителям начальной школы, методистам и студентам, изучающим педагогику.

**ЦЕЛЬ:** Повышение качества образования путем развития навыков критического мышления у учащихся начальной школы

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** В педагогике критическое мышление определяется как более самостоятельное и рефлексивное мышление. Психолог Лев Выготский и американский педагог Джон Дьюи связывают критическое мышление со способностью ребенка учиться через деятельность, выражать свою реакцию на события и искать ответы на вопрос «почему?» Джон Дьюи называл критическое мышление «активной и непрерывной формой мыслительного процесса» и подчеркивал, что оно основано на сомнении, анализе, догадках и оценке.

Критическое мышление необходимо не только в академической сфере, но и в повседневной жизни для принятия решений, поиска ответов на проблемы, сортировки информации и гибкости в реальных ситуациях. Эта способность напрямую влияет на качество жизни человека и уровень его успешности.

**ВЫВОД:** Критическое мышление не формируется у ребенка естественным образом — этот навык развивается благодаря системному, пошаговому подходу, правильной методике, сотрудничеству в образовательной среде и постоянной практике. Главным руководителем этого процесса является учитель, который должен превратить урок в пространство для размышлений с помощью современных педагогических подходов, интерактивных методов и цифровых инструментов.

Кроме того, нельзя отрицать роль семьи. Родители вносят наибольший вклад в критическое мышление, когда они счастливы, когда ребенок задает вопросы, и ценят их мнение. Школа и семья — это две взаимодополняющие силы, которые должны работать над одной целью — воспитать ребенка как независимого мыслителя.

**Ключевые слова:** Критическое мышление, начальное образование, методика обучения, интерактивный урок, учитель, психологические характеристики, вопрос-ответ, метапознание, критерии оценки, семья и образование, цифровые технологии.

## **BUILDING CRITICAL THINKING SKILLS IN ELEMENTARY STUDENTS**

**Kadirova Nargiza Adilovna**

*1st year Master's degree, Asian International University*

**Annatation.**

**INTRODUCTION:** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, practical approaches and effective pedagogical methods for developing critical thinking skills in primary school students. Critical thinking is currently considered one of the main educational competencies not only in higher education, but also in primary education. The article analyzes what

critical thinking is, how it is formed, the role of teachers and family members in this process, age-appropriate methods and technologies, and approaches based on the psychology of students. The article provides methodological recommendations, examples of teaching using interactive games, and innovative technologies. This article may be useful for primary school teachers, methodologists, and students studying pedagogy.

**GOAL:** Improving the quality of education by developing critical thinking skills in primary school students

**MATERIALS AND METHODS:** In pedagogy, critical thinking is defined as more independent and reflective thinking. Psychologist Lev Vygotsky and American educator John Dewey associate critical thinking with a child's ability to learn through activity, to express his reaction to events, and to seek answers to the question "why?" John Dewey called critical thinking "an active and continuous form of the thinking process" and emphasized that it is based on doubt, analysis, speculation, and evaluation.

Critical thinking is necessary not only in the academic field, but also in everyday life for making decisions, finding answers to problems, sorting information, and being flexible in real situations. This ability directly affects the quality of a person's life and level of success.

**CONCLUSION:** Critical thinking does not form naturally in a child - this skill develops through a systematic, step-by-step approach, the right methodology, cooperation in the educational environment, and constant practice. The teacher is the main leader of this process, who must turn the lesson into a space for reflection through modern pedagogical approaches, interactive methods, and digital tools.

In addition, the role of the family cannot be denied. Parents make the greatest contribution to critical thinking when they are happy when a child asks questions and value their opinions. School and family are two complementary forces that should work towards a single goal - to educate a child as an independent thinker.

**Keywords:** Critical thinking, primary education, teaching methodology, interactive lesson, teacher, psychological characteristics, question-answer, metacognition, assessment criteria, family and education, digital technologies.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi insonning nafaqat bilim olishini, balki tafakkur qilish, tahlil qilish va muammolarga innovatsion yondasha olishini ta'minlashi lozim. Shu nuqtai nazardan tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, bu jarayonni inson hayotining dastlabki yillaridan boshlab yo'lga qo'yish, kelajakdagi intellektual rivojlanishga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali hayot tajribasiga ega bo'lmashliklariga qaramay, o'ziga xos tafakkur va qiziqish doirasiga ega bo'lgan shaxslardir. Ularning tabiiy qiziquvchanligi va savol berishga moyilligi - bu salohiyatni to'g'ri yo'naltirish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Tanqidiy fikrlash, asosan, faktlar va taxminlarni ajrata bilish, muammoga turli nuqtai nazardan qarash, sabab-oqibat munosabatini tushunish, muqobil echimlar taklif eta olish va o'z fikrini asoslay olish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu qobiliyatlarni shakllantirish esa o'z navbatida to'g'ri metodika, sinfdagi erkin fikr muhitini yaratish, o'yin elementlari, raqamli texnologiyalar va otanalar bilan hamkorlik orqali mumkin bo'ladi.

Mazkur maqola aynan boshlang'ich sinf bosqichida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha chuqur ilmiy-amaliy tahlilga asoslangan tavsiyalarni taklif qiladi.

Tanqidiy fikrlash - bu shaxsning o'z qaror va xulosalarini asoslash, ma'lumotlarni tahlil qilish, dalillarni taqqoslash, mavjud fikrlarga shubha bilan yondashish, turli manbalarni baholash orqali muammoga yechim topish qobiliyatidir. U insonni har qanday holatda ongli ravishda fikr yuritishga undaydi. Bu nafaqat bilish faoliyati, balki madaniyatli shubhalanish, loqayd bo'lmagan munosabat va tahliliy yondashuvni o'z ichiga oladi.

Pedagogikada tanqidiy fikrlash ko'proq mustaqil va reflektiv fikrlash sifatida ta'riflanadi. Psixolog Lev Vygotskiy va amerikalik pedagog Jon Dyui tanqidiy tafakkurni bolaning faoliyat orqali

o'rganishi, voqealarga o'z munosabatini bildira olishi, "nima uchun?" degan savolga javob izlash istagi bilan bog'laydi. Jon Dyui tanqidiy fikrlashni "fikrlash jarayonining faol va doimiy shakli" deb atagan va uning asosida shubhalanish, tahlil qilish, taxmin qilish va baholash yotishini ta'kidlagan.

Tanqidiy fikrlash faqat akademik sohada emas, balki kundalik hayotda qaror qabul qilish, muammolarga javob topish, ma'lumotni saralash va real vaziyatlarda moslashuvchanlik ko'rsatish uchun ham zarur. Bu qobiliyat insonning hayot sifati va muvaffaqiyat darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, tanqidiy fikrlashni ijodiy tafakkur bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Ijodiy fikrlash yangilikka intilishni, noodatiy qarorlar qabul qilishni nazarda tutsa, tanqidiy fikrlash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, muqobil fikrlarni solishtirish va asosli qarorga kelishni talab qiladi. Ular bir-birini to'ldiruvchi, ammo farqli jarayonlardir.

Bugungi ta'lim tizimida o'quvchidan passiv bilim oluvchi emas, balki faol, fikr bildiruvchi, tahlil qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etishi kutiladi. Shu bois tanqidiy fikrlashni shakllantirish - bu nafaqat o'quv dasturining, balki butun tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari — bu 6-10 yosh oralig'idagi bolalardir. Ular uchun tafakkurning rivojlanishi hali davom etayotgan bo'lib, bu bosqichda yangi bilimlarni qabul qilish, eslab qolish, tasavvur qilish, analogiyalar orqali o'rganish faol kechadi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashning ilk shakllari aynan shu yoshda paydo bo'la boshlaydi.

Psixologiyadan ma'lumki, bu bosqichda bolalar asosan konkret-operatsion bosqichga kiradi (J. Piage nazariyasiga ko'ra). Bu shuni anglatadiki, ular real predmetlar va hodisalarga asoslangan fikrlashga o'tadilar. Ular abstrakt tushunchalarni hali to'liq anglay olmasligi mumkin, ammo sabab-oqibat aloqalarini tushunishga, solishtirishga, oddiy xulosalar chiqarishga tayyor bo'ladilar. Shu sababli, tanqidiy fikrlashni ham ularning real hayotidagi misollar, voqealar, ertaklar, rasm va o'yinlar asosida shakllantirish samaralidir.

Boshqa tomondan, bolalar bu davrda o'qituvchi, ota-ona va atrofdagilarning fikrini mutlaq haqiqat deb qabul qiladilar. Bu esa ularni mustaqil fikrlashdan to'sishi mumkin. Shu bois o'qituvchi ularning o'z fikrini aytishga, shubha qilishga, izoh berishga, boshqa qarashlarga ochiq bo'lishga undashi muhim.

Bu yoshda bolalar emotsional va qiziqishga asoslangan o'rganishga moyil bo'ladilar. Shuning uchun ham dars jarayonida savol-javoblar, bahslar, guruhlarda ishlash, muammoli topshiriqlar orqali ularning fikrini faollashtirish, hayotiy vaziyatlarga mos muhokamalar olib borish juda foydali hisoblanadi.

Shuningdek, bolalarning e'tiborining tez chalg'ishi, sabr-toqati pastligi inobatga olinib, tanqidiy fikrlash bo'yicha vazifalar qisqa, tushunarli va qiziqarli shaklda bo'lishi kerak. Rasm chizish, voqeani hikoya qilish, rolda chiqish, mini-debatlar, o'yinlar bu bosqichda ayni muddaodir.

Boshlang'ich ta'limda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida eng asosiy ta'sir kuchidir. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o'qituvchi o'z uslubini qayta ko'rib chiqib, an'anaviy darslardan interaktiv, reflektiv va tahliliy yondashuvlarga o'tishi zarur. O'qituvchi bolalarga tayyor bilimni berishdan ko'ra, ularni o'ylashga, fikrlashga, savollar berishga, muammoga turli yo'llar bilan yondashishga undashi kerak. Dars davomida "nima uchun?", "agar shunday bo'lganida-chi?", "boshqacha yondashuv bo'lishi mumkinmi?" kabi savollar bilan tanqidiy fikr yuritishga rag'batlantiradi. Bu o'quvchilarning chuqur fikr yuritishga o'rgatadi.

Shuningdek, o'qituvchi sinfda ochiqlik va hurmat muhitini yaratishi kerak. Har bir o'quvchi o'z fikrini erkin bildira oladigan, xato qilishdan cho'chimasdan o'rganadigan muhit tanqidiy fikrlashning negizidir. Bu jarayonda bolalar o'z fikrlarini dalillash, boshqalarning nuqtai nazarini eshitish, bahslashish madaniyatini o'rganadilar.

O'qituvchi, shuningdek, metakognitiv yondashuvni - ya'ni bolani o'z fikrlash jarayoni haqida o'ylashga o'rgatish metodikasini ham joriy qilishi lozim. Misol uchun: "Siz bu xulosaga qanday keldingiz?", "Bu fikringizni nimaga asoslayapsiz?", "Yana qanday variantlar bo'lishi mumkin edi?" kabi savollar orqali bolaning o'z tafakkuriga nazar solishiga imkon yaratadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'qituvchining metodik yondashuvi, sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhit va o'quvchilarning ishtirok darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois, o'qituvchining doimiy izlanishda bo'lishi, yangi interaktiv metodlarni joriy etishi zarurdir.

Boshlang‘ich sinfda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchining qo‘llashi mumkin bo‘lgan ko‘plab samarali metod va mashg‘ulotlar mavjud. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

**Insert metodi:** O‘quvchilarga matn o‘qitilib, ular qaysi ma‘lumotni bilgan (✓), yangilik bo‘lgan (+), tushunarsiz bo‘lgan (?) yoki unga qarshi fikrda (-) ekanligini belgilab boradilar. Bu metod bolaning o‘qiganini tahlil qilishi va baholashiga yordam beradi.

**Debat usuli:** Oddiy mavzular atrofida kichik guruhlarga bo‘linib bahs olib borish tanqidiy fikr, dalillash, qarama-qarshi fikrlarni eshitishga o‘rgatadi. Misol: “Ertakdagi bo‘rining pozitsiyasi to‘g‘rimi yoki yo‘qmi?”

**Fishbone (sabab-oqibat skeleti):** Muammoli vaziyat beriladi va o‘quvchilar “nima sabab bo‘ldi?”, “oqibatda nima yuz berdi?” degan savollar atrofida sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qiladilar.

**PMI (Plus, Minus, Interesting):** Berilgan fikr yoki g‘oyani uch jihatdan baholash: ijobiy, salbiy va qiziqarli tomonlari. Bu metod ko‘p tomonlama qarashga undaydi.

**6 savol (5W1H metodi):** Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nega? Qanday? – savollarini berib, voqea yoki g‘oyani chuqur o‘rganish imkonini beradi.

**Venn diagramma:** Ikki tushunchani solishtirish: umumiy va farqli jihatlarini ajratish orqali tahlil qilish malakasini oshiradi.

**Pikir kartalari:** O‘quvchilar turli fikrlarni kartochkalarda yozib, ularni guruhlab, muhokama qilishadi. Bu metod bir nechta pozitsiyalarni ko‘rib chiqishga yordam beradi.

**Role-play va sahnalashtirish:** Biror vaziyatni jonli tasvirlab berish orqali bolalar o‘zini turli rolda sinab ko‘radilar, bu esa empatiya va muammoga boshqacha qarashga o‘rgatadi.

**“Nima bo‘ladi agar...” savoli:** Bu savollar orqali fantaziya va tahlil qilish birgalikda rivojlanadi. Masalan: “Agar kitoblar bo‘lmasa nima bo‘lardi?” — bolalar sabab va oqibatni izlab topishga harakat qilishadi.

Bunday mashg‘ulotlar darslarni jonlantiradi, bolalarning fikrlashini faollashtiradi va o‘z-o‘zini anglashga olib keladi. Har bir metod bolalarning yoshiga moslashtirib, o‘yin yoki rasm, ertak, dialog asosida tashkil etilishi lozim.

**Innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.** Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va raqamli vositalar o‘quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari texnologiyalar bilan oson do‘stlashadilar va bu ularning tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatdir.

Interaktiv doskalar, planshetlar, animatsion dasturlar yordamida darslarda matnli va vizual tahlillarni amalga oshirish, multimediy materiallari orqali turli mavzularni yoritish o‘quvchining nafaqat qiziqishini, balki fikrlash darajasini ham oshiradi. Misol uchun, bolalar biror ertakni videotasvirda ko‘rib, uning asosiy g‘oyasini tushunishga, qahramonlarni baholashga va voqealarga munosabat bildirishga o‘rganadilar.

**Onlayn platformalar:** Google Jamboard, Padlet, Kahoot, Wordwall, Quizizz kabi onlayn platformalar orqali bolalar interaktiv testlar, o‘yinlar, savol-javoblar orqali tanqidiy fikrlashni mashq qilishadi. Masalan, Padletda berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish, boshqalarning fikrini o‘qib baholash va izoh berish orqali o‘rganish jarayoni chuqurlashadi.

**Raqamli hikoyalar yaratish:** O‘quvchilarga qisqa multfilmlar yoki komikslar tuzdirish, ovoz yozib ertak aytirish, qahramonlar orasidagi muammoga turli yechimlar topishni taklif qilish orqali ular voqealarni tahlil qilish, rejalashtirish, ifodalash va baholash kabi muhim fikrlash jarayonlarida ishtirok etadilar.

**Sun‘iy intellektdan foydalanish:** Asta-sekin o‘quv muhitiga kirib kelayotgan sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalari ham o‘quvchilarning individual fikrlarini baholash, ularga shaxsiylashtirilgan topshiriqlar taklif qilish, savollarga real vaqtda javob berish imkonini yaratmoqda. Bu esa o‘qituvchining ishini yengillashtirib, o‘quvchilarning o‘rganish motivatsiyasini oshiradi.

Albatta, raqamli texnologiyalar doimo an‘anaviy o‘qituvchining o‘rnini bosa olmaydi, ammo ular tanqidiy fikrlashni o‘rgatishda qulay va samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Muhimi —

texnologiyalarning bolaga xizmat qilishi, uni passiv tomoshabinga emas, faol ishtirokchiga aylantirishi kerak.

### Ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda faqat maktab emas, balki oilaning — xususan ota-onalarning ham faol ishtiroki zarur. Farzandlarining fikrlash, tahlil qilish va shubhalanishga bo'lgan qiziqishini ota-onalar rag'batlantirishi orqali mustahkamlash mumkin.

Ko'pchilik oilalarda farzandning savol berishi, qarama-qarshi fikr bildirishga urinishi "hurmatsezlik" deb baholanadi. Ammo bu bolada tanqidiy fikrlash belgisi ekanligini ota-onalarga tushuntirish muhimdir. Shuning uchun maktabda ota-onalar bilan seminarlar, suhbatlar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim.

### Uyda qo'llab-quvvatlash usullari:

- Bolaning har bir savoliga jiddiy va samimiy javob berish, uni savol berishga undash.
- Oila a'zolari bilan birgalikda muhokamalar, debatlar tashkil qilish.
- Televizorda ko'rilgan voqealar, hikoyalar yoki yangiliklar ustida birgalikda fikr almashish.
- Kitob o'qib bo'lgach, qahramonlarning harakati to'g'risida suhbatlashish, "sen bo'lsang nima qilarding?" degan savollar berish.

Ota-onalar farzandining fikriga hurmat bilan qarasa, uni eshita va izoh bersa, bola o'z fikrini aytishdan cho'chimaydi, mustaqil fikrlay boshlaydi. Bunday muhiti bo'lgan oilada bola tanqidiy fikr yuritishga intiladi, o'rganganlarini maktabda faol qo'llay oladi.

Maktab va oilaning bir yo'nalishda ishlashi — tanqidiy fikrlashni shakllantirishdagi eng muhim shartlardan biridir. Ularning o'zaro ishonchli hamkorligi bolani mustahkam intellektual asosga ega, mustaqil shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni shakllantirish - bu nafaqat pedagogik vazifa, balki ijtimoiy mas'uliyatdir. Ushbu yo'nalishda qo'yilgan har bir qadam - kelajakda ongli, mas'uliyatli va ijodkor jamiyat barpo etish sari qo'yilgan qadamlardir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish -zamonaviy ta'limning eng dolzarb, muhim va uzoq muddatli istiqbolga ega vazifalaridan biridir. Bugungi jamiyatga faqat bilimga ega emas, balki o'z fikrini mustaqil bildiradigan, asoslay oladigan, qarama-qarshi nuqtai nazarni tushunib, tahlil qila oladigan avlod zarur.

Tanqidiy fikrlash bolada tabiiy tarzda shakllanmaydi - bu ko'nikma tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv, to'g'ri metodika, ta'lim muhitidagi hamkorlik va doimiy mashq orqali rivojlanadi. O'qituvchi - bu jarayonning bosh yetakchisi bo'lib, u zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli vositalar orqali darsni fikr yuritish maydoniga aylantirishi kerak.

Bundan tashqari, oilaning roli ham inkor etib bo'lmaydi. Ota-onalar bola savol bersa quvonsa, fikrini qadrlasa, tanqidiy fikrlashga eng katta hissa qo'shadi. Maktab va oila bir-birini to'ldiruvchi ikkita kuch bo'lib, ular yagona maqsad - farzandni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash sari harakat qilishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ennis, R. H. (1987). *A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities*. In J. Baron & R. Sternberg (Eds.), *Teaching Thinking Skills: Theory and Practice*.
2. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education*. Cambridge University Press.
3. Facione, P. A. (2011). *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts*. Insight Assessment.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
5. Dewey, J. (1933). *How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process*. D.C. Heath and Company.
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2020). *Boshlang'ich ta'limda interaktiv metodlardan foydalanish bo'yicha qo'llanma*.
7. Hasanboyeva O. (2019). *Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.

8. Ziyodova D. (2021). *Raqamli texnologiyalar asosida dars samaradorligini oshirish*. O'zbekiston pedagogika jurnali, 3(4), 45–52.
9. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Longman.
10. OECD (2018). *The Future of Education and Skills 2030: Conceptual learning framework*.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ]**

**[AUTHORS INFO]**

**Qodirova Nargiza Odil qizi**

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistri

Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

## HARBIY XIZMATCHILARNING VATANPARVARLIK HIS-TUYG'ULARINI IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHLARI



*Ahmadjonova Nargizaxon Adiljanovna*  
Alfraganus Universiteti  
Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti



*Yulchiyeva Shoxsanam Dilshod qizi*  
Alfraganus Universiteti Pedagogika va psixologiya  
yo'nalishi 3-kurs talabasi

**Annotasiya:** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik his-tuyg'ularining E.G'. G'oziyevni test-so'rovnomasi yordamida diyagnostikasi keltirilgan bo'lib, natijalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchilar, vatanparvarlik, emotsional holatlar, his-tuyg'ular, yuksak ichki kechinmalar, intellektual his-tuyg'ular, ekstremal vaziyatlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы формирования патриотических чувств военнослужащих, с помощью тест-анкеты показана диагностика Э.Г.Газиева, освещены социально-психологические особенности результатов.

**Ключевые слова:** военнослужащие, патриотизм, эмоциональные состояния, чувства, высокие внутренние переживания, интеллектуальные переживания, экстремальные ситуации.

**Annotation:** This article examines the issues of the formation of patriotic feelings of military personnel, using a test questionnaire, E.G.Gaziev's diagnosis is shown, and the socio-psychological features of the results are highlighted.

**Key words:** military personnel, patriotism, emotional states, feelings, high internal experiences, intellectual experiences, extreme situations.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish muammosini tahlil qilish uning tarixiy va terminologik asoslanishini, "vatanparvarlik" va "vatanparvarlik tarbiyasi" tushunchalarining mohiyatini aniqlashni, vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish bo'yicha faoliyat mazmuni, maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlarini shakllantirishni talab etadi. Bunda yoshlarning o'z-o'zini anglashi, harbiy xizmatchilar o'rtasida bu ishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etishning uslubiy asoslarini belgilash ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha tahliliy ishning alohida jihati hisoblanadi. Bugungi kunda Vatan ravnaqiga ishonch tuyg'usini shakllantirishning ahamiyati Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o'tmishi, buguni va kelajagi mujassam bo'lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o'zi tug'ilib o'sgan go'shadan boshlanadi. Vatanparvarlik tarbiyasi harbiy ta'limning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirish, ularning harbiy xizmatga bo'lgan munosabatini, sadoqatini va

professionallik darajasini oshiradi. Axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat va vatanparvarlik hissi harbiy xizmatchilarni murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, jamoada samarali ishlashga va xizmatga bo'lgan sadoqatni saqlashga yordam beradi.

Harbiy universitetdagi o'quv jarayonining mazmuni va tashkiliy-tarkibiy qismlarida "aniqlik qadriyatlariga" erishish uchun aksiologik yondashuvga tayanish zarur. Bu shuni anglatadiki, bo'lajak harbiy xizmatchilar harbiy ta'lim olish jarayonida ma'lum bir hayot va kasbiy vaziyatda qiymat tanlovining ichki asosligi sifatida shaxsning ma'lum bir aksiologik yadrosiga asoslangan aksiologik kompetensiyani rivojlantirishi kerak.

Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning hozirgi bosqichi moddiy-texnika jihozlarining sezilarli darajada o'zgarishi, axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi bilan tavsiflanadi, bu ham harbiy xizmatchilarning kasbiy o'zini o'zi anglashini, ularning fuqarolik o'ziga xosligini shakllantirishni jiddiy qayta qurishni talab qiladi, bu esa ularning vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishga asoslanadi. Harbiy xizmatchilarni, umuman, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muammosi bugungi kunda davlat miqyosida ustuvor vazifa sifatida qabul qilinayotgani tegishli hujjatlar va rahbarlarning murojaatlarida o'z ifodasini topmoqda.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda axloqiy ong ham o'z o'rniga ega. Bu esa xizmat jamoalarining manfaatlariga mos keluvchi axloqiy tushuncha, g'oya, qarash, ishonch, tuyg'u kabi hissiyotlar tizimidan iborat bo'lib, ularning jamiyatdagi, kundalik turmush, xizmat faoliyatidagi xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Vatanga bo'lgan muhabbat, burchga sadoqat, jamiyat oldida mas'ullik, milliy g'urur va iftixor hissiyotlaridir.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg'urish, tashvish va falokatlariga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas bo'lagidir. Harbiy vatanparvarlik g'oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ayniqsa, harbiy xizmatchilarimizning kasbiy madaniyatini rivojlantirish davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma'naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Vatanparvarlik – odamlarning o'z mamlakatiga bo'lgan munosabatiga va harakati bilan Vatan manfaatiga xizmat qilish va dushmandan himoyalashga intilishlarini namoyish etuvchi ijtimoiy va axloqiy tamoyildir. Vatanparvarlik tushunchasida Vatanga va mustaqillik yutuqlariga muhabbat, qardosh xalqlarga do'stona munosabat, Vatanning gullab-yashashi yo'lidagi ijtimoiy faollik, uni himoya qilish, milliy xudbinlik va takabburlikka xiloflik va baynalmillik xislatlari mujassamidir [1].

Vatanparvarlik— bu kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Harbiy vatanparvarlik – umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va ajralmas qismi bo'lib, u davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois harbiy vatanparvarlikning metodologik asoslari, ilmiy-nazariy xususiyatlarini o'rganish, tadqiq va tahlil qilish har doim dolzarb va muhim axloqiy masala bo'lib qolaveradi.

Harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasi uchun harbiy an'analarga rioya qilish prinsipi muhim ahamiyatga ega – bu harbiy xizmatchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy barkamollik va eng yaxshi insoniy fazilatlar (jasorat, sodiqlik va boshqalar) ni rivojlantirish uchun an'analarni qabul qilishdir.

Vatan oldidagi burchni idrok etishda sustkashliklar kuzatilishi mumkin. Aksincha, o'zidagi xulq-atvor imkoniyatlaridan, fazilatlaridan, xatti-harakatlari ustidan nazoratning ortishi unda "men

kimman?”, “Vatan uchun nima xizmat qildim?”, “foydali xizmatchimanmi?” kabi savollar ta’siri ostida vatanparvarlik his-tuyg‘usining takomillashib borishi uchun imkoniyat yaratadi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi har bir insonning o‘z ona uyiga, Vatanga, boshqacha aytganda, sof shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Vatanga muhabbat – qadriyat munosabati ob’ekti, ya’ni vatanparvarlik “obyektiv” bilan bir qatorda “sub’ektiv” qadriyatdir. Ob’ektiv qadriyat sifatida vatanparvarlik o‘z negizida yaxshilik, haqiqat, adolatli hodisa sifatida qaraladi. Subyektiv qiymat sifatida u jamoat ongi va madaniyatida mustahkamlangan me’yoriy g‘oyalarni ifodalaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, “vatanparvarlik” tushunchasi mazmuniga quyidagi tarkibiy qismlarni kiritish qonuniydir:

- Vatanga, ona yurtga, ona tiliga muhabbat;
- o‘z Vatanining o‘tmishiga, o‘z xalqining an’ana va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, Vatan tarixini bilish, mamlakat oldida turgan vazifalarni va vatanparvarlik burchini tushunish;
- boshqa xalqlarga, ularning urf-odatlari va madaniyatiga hurmat, irqiy va milliy adovatga toqat qilmaslik;
- Vatan sha’ni va qadr-qimmatini mustahkamlashga intilish, armiyaga hurmat va Vatanni himoya qilishga tayyorlik;
- Vatan manfaatlariga xizmat qilishga tayyorlik, shaxsiy va jamoat manfaatlarini uyg‘unlashgan holda mehnat faoliyatida faol va ongli ishtirok etish.

Turli tadqiqotlarga ko‘ra, bugungi kunda yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish quyidagi sabablarga ko‘ra murakkablashmoqda:

jamiyatni birlashtiruvchi umumiy qadriyatlar asoslarining yo‘qligi;  
ekstremistik mafkuraning rivojlanishi va tarqalishi, yoshlar o‘rtasida millatchilikning kuchayishi;

yoshlarni hijrat qilishga undash, tarixni inkor etish;

tarixiy obidalarga, ona yurt va uning atoqli fuqarolariga hurmatsizlik [2].

Binobarin, mafkuraviy asoslarni izlash, ruhiy va terrorizmga qarshi kurash sharoitida harbiy xizmatchilarni fundamental ma’naviy-axloqiy asoslarda kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydigan ta’lim modellariga zudlik bilan ehtiyoj sezilmoqda.

Harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik tarbiyasi modelini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga faoliyatga asoslangan yondashuv ta’lim makonining subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning usullari va shakllarini maksimal darajada tanlash, shuningdek, bo‘ljak harbiy xizmatchilarni ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy jihatdan muhim vatanparvarlik faoliyatining turli turlariga jalb qilish imkonini beradi.

Olimlarning fikricha, harbiy xizmatchilarning vatanparvarligini shakllantirishdagi faollik va aksiologik yondashuvlar o‘rtasidagi bog‘liqlik shundan iboratki, ijtimoiy-madaniy qadriyat komponenti jamiyat yoki individual ongda mavjud bo‘lgan qadriyatlar majmui sifatida shaxs yoki guruhlarning ijtimoiy (kasbiy) xulq-atvori va joylashuviga ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasining mohiyatini tahlil qila boshlaganimizda, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik tarbiyasi deganda aynan nimani nazarda tutayotganimizni aniqlab olish zarur. Muammoni nazariy tahlil qilishdan kelib chiqqan holda, “harbiy oliy o‘quv yurti harbiy xizmatchilarini vatanparvarlik tarbiyasi” atamasidan biz ta’limning eng muhim tarkibiy qismi bo‘ljak harbiy mutaxassislarni keng vatanparvarlik dunyoqarashi va mustahkam vatanparvarlik e’tiqodiga ega bo‘lgan.

Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usi, an’analarga hurmat, davlatning iqtisodiy va harbiy qudratini rivojlantirishda faol ishtirok etish zarurati, uni himoya qilishga tayyorlik va qobiliyatni shakllantirishga maqsadli ta’sir qilish, deb tushunamiz. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlikni shakllantirish vazifasidan muhimroq vazifa yo‘q. Shuni inobatga olish kerakki, odamlar vatanparvarlikni turli yo‘llar bilan: biri o‘z ona yurtining tabiati yoki san’ati orqali, ikkinchisi uning tarixi orqali, uchinchisi diniy e’tiqodi orqali, kimdir harbiy xizmat orqali tushunishadi.

Bu o‘rinda o‘z xalqiga, vataniga cheksiz sadoqat, uning himoyasiga har daqiqa tayyor turish kabi axloqiy-psixologik ta’minot esa, avvalo, murakkab o‘quv-jangovar sharoitlarda barqaror va ishonchli faoliyat yuritish uchun shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlashdan iboratdir.

Ekstremal vaziyatda askar va ofitserlar ruhiyatining ishonchli faoliyat yuritishi birinchi o'rinda axloqiy-ruhiy ta'minotning samaradorligiga bog'liq. Bu esa hozirgi sharoitlardagi jangovar harakatlarning psixologik ta'minotini tahlil etishning dolzarbligidan dalolat beradi. Zamonaviy jangda harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy kuchlarini ekstremal vaziyatlarga, hayot uchun nomaqbul omillarga faol qarshi turishi uchun qaror qabul qilishi, irodani saqlay olish malakalari qo'yilgan jangovar vazifani oxirigacha bajarishining ayovsiz sinovi yuz beradi. Ekstremal vaziyat – bu harbiy xizmatchi harakat qilishi kerak bo'lgan sharoitdir. Qo'shinlarning yuqori tezlikdagi harakati, front bilan ta'minlovchilar orasidagi aniq chegaraning yo'qligi, katta jismoniy va psixik zo'riqish shu va boshqa omillar zamonaviy jang hamda undagi xavfli vaziyatdagi insonlarning xulq-atvoriga ta'sir etadi. Inson harakat qilayotgan istalgan xavfli vaziyatni idrok etish psixologiyaning nuqtai-nazari bo'yicha obyektiv dunyoning subyektiv obrazidir. Vaziyat real xavfli bo'lishi ham mumkin, yoki bo'lmasligi ham mumkin, lekin uning ta'siri harbiyning xulq-atvoriga uni qanday idrok etishiga bog'liqdir. U yoki bu vaziyat harbiy uchun, agar u va uning quroldoshlari jismoniy munosabatidan bilim, ko'nikma, malakalari yetarli bo'lmasa, subyektiv xavf tug'diradi. Ekstremal vaziyatlarda ba'zi bir harbiy jamoalardagi salbiy holatlarga ham ko'z yummaslik kerak. Gap qo'rquv va nevrozlik to'g'risida bormoqda. Bularning barchasini shaxsiy tarkibni psixologik jihatdan tayyorlashda inobatga olish zarur, chunki zamonaviy jangda psixologik omil qo'shinga katta ta'sir o'tkazadi. Vaziyatni baholash va qaror qabul qilish bu faqatgina fikrlash va bilish jarayoni deyish noto'g'ri. Ekstremal vaziyatlarda harbiy mavjud variantni o'zining xulq-atvor tamoyillariga ko'ra tanlaydi. Yaralanganda jangovar og'riqni, jarohatni sezmaganda holda vazifani bajarishni davom ettiradi, yoki tushkunlikka tushib, o'zining passiv ishtirokini kutadi. Birinchi holatda xavfdan kuchli bezovtalanadi, ikkinchisida esa o'lim oldidagi qo'rquv boshqa barcha hislarni yengib o'tadi. Real xavf bo'lgan shart-sharoitlarda, ayniqsa, fikrlarning tiniqligi va murakkab vazifalarni yechishda chaqqonlik muhimdir. Ushbu sifatlar harbiyda bilimlar va unga mos malakalarning mavjud bo'lishi bilan ta'minlanadi. Uning xulq-atvori xavfli vaziyatda, qaysi vaziyatda qanday yo'l tutish kerak ekanligini biladimi-yo'qmi shunga bog'liq.

Bizningcha, harbiy xizmatchi to'g'ri va kuchli qaror qabul qilishi uchun vaziyatning ba'zi bir sharoitlarini rad etgan holda uni oldindan bashorat qilishni bilishi kerak. Vatan burchi harbiyni tavakkalga borishiga va o'zini-o'zi qurbon qilishga intilishga olib keladi. Shunday qilib, vaziyatni baholash va qaror qabul qilish – bu faqatgina tafakkur jarayoni emas, balki murakkab psixik faoliyatdir. Shuning uchun shaxsning psixik xususiyatlari (yo'nalganlik va xarakter) psixik jarayonlarning kechishi boshqaruv ta'siriga ega bo'lishi kerak. Shu sababli ofitserlarda bir qancha psixologik xususiyatlar va sifatlar mujassam bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, jangovar vazifani bajarishda o'z vatani uchun jonini fido etish jangovar vaziyatlarda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli biz harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik his-tuyg'ularini E.G'. G'oziyevni test-so'rovnoma yordamida o'rganishga qaror qildik. Mazkur test-so'rovnoma Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibida vatanparvarlik hissining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar tizimi havola qilingan [3].

Test-so'rov Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibining ruhiy holatlarida vatanparvarlik his-tuyg'usini vujudga kelish darajasini aniqlashga yordam beradi. Test-so'rov yordamida olingan miqdoriy natijalarni qisqa izohlash quyidagicha amalga oshiriladi. Test-so'rov varaqasi, asosan, ikki qismga bo'linadi. Ularning birinchisi shaxsning hayajonlanish darajasini, ikkinchisi esa hissiy holatlarini ko'rsatadi. Tajribalarda ishtirok etgan Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibi tomonidan to'plangan umumiy yig'indi bizning jadvalga binoan 75 ball qiymatiga teng bo'lsa, u holda Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibida xavotirlanish, hayajonlanish kuchli, yuksak his-tuyg'u esa past ko'rsatkichga ega ekanligini bildiradi. Respondentlar yiqqan ballar miqdori 75 dan to 115 gacha qiymatni tashkil etsa, u taqdirda qatnashchilarning vatanparvarlik his-tuyg'ulari o'rtacha ko'rsatkichga ega ekanligini anglatadi. Agarda ular tomonidan jamg'arilgan ballar qiymati yig'indisi 115 dan yuqori bo'lsa, natijalar tahliliga ko'ra unday toifadagi insonlarning vatanparvarlik his-tuyg'usi yuksak ko'rsatkichga erishganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, vatanparvarlik his-tuyg'usi past darajada shakllangan harbiy xizmatchi bilan alohida tarbiyaviy tadbirlarni tatbiq qilish, individual yondashishni amalga oshirish zarur bo'lib,

ularga yordam berish uchun samarali psixologik ta'sir o'tkazuvchi, hissiyot dinamikasini maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi, milliy qiyofa xususiyatlarini o'zlashtirishga undovchi kechalar, uchrashuvlar tashkil qilish, ishtirokchilarni faollashtiruvchi ijtimoiy-psixologik vaziyatlar yuzaga keltirish ta'lim va tarbiya samaradorligini oshiradi [4].

Ushbu test-so'rovdan amaliyotda foydalanish natijasida vatanparvarlik his-tuyg'usining motivatsion, irodaviy, kognitiv va regulativ jabhalarini psixologik tahlil qilish orqali uning shakllanganlik darajasi bo'yicha insonlar o'rtasidagi individual farqlash imkoniyati tug'iladi [5].

**Tahlil va natijalar.** E.G'.G'oziyevning "Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash test so'rovi" ning tavsiflovchi statistikasining ma'lumotlariga ko'ra, minimal qiymat 64 ballni, maksimal qiymat 126 ballni tashkil etib, o'rtacha qiymat 108,31 ballni ifodaladi. Ushbu metodikaning psixologik interpretatsiyasiga ko'ra, qatnashchilarning vatanparvarlik his-tuyg'ulari o'rtacha ko'rsatkichga ega ekanligi ma'lum bo'ladi.

Quyida harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik hissining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar tizimi havola qilingan. Mazkur test-so'rovda his-tuyg'uning motivi (harakatga keltiruvchi turtki), irodaviy jabhasi (qat'iyatlilik), bilishga oid tomoni (kognitivlik), shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorni boshqarish (regulativlik) vazifasi qamrab olingan. Tadqiqotning obyekt sifatida tanlangan 320 nafar harbiy xizmatchilar ishtirok etdilar (1-jadval).

1-jadval.

**E.G'.G'oziyevning "Vatanparvarlik his-tuyg'usini baholash test so'rovi"ning tavsiflovchi statistikasi**

Ko'rsatkichlar	Min	Maks	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	Assimetriya	Eksses
Vatanparvarlik	64,00	126,00	108,3125	17,54213	-1,412	0,396

Harbiy xizmatchilar o'zlarining vatanparvarlik his-tuyg'ularini o'rtacha shakllangan deya hisoblashar ekan. Bu ularda o'z xizmat faoliyatida yanada irodaviy zo'r berib ishlash, kasbiy yetuklikni namoyish etish kabi professional motivatsiyalarning takomillashuvini tezlashtiradigan omillardan biri bo'lishi mumkin. Harbiy xizmatchilarda milliy qadriyatlarga, ilg'or an'analarga, axloqiy tamoyillarga, yuksak madaniyatga sodiqlik kabi insoniy fazilatlarni hosil qilmasdan turib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib bo'lmaydi.

**Xulosa.** Harbiy xizmatchi shaxsida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va uni baholashga o'rgatish harbiy xizmatchilarda Vatanga muhabbat, sadoqat, g'urur kabi yuksak hislar tarkib topishiga xizmat qiladi. Vatanga muhabbat, sadoqat, g'urur kabi yuksak hislar tarkib topishiga xizmat qiladi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarda o'zini fido qilish va qiyinchiliklarni engib o'tish, qo'yilgan vazifani bajarish yuqori xavf-xatar bilan bog'liqligini inobatga olib, barcha jabhalardagi tarbiyaviy ishlarni ushbu xususiyatlarni rivojlantirishga qaratish lozim. Shu bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarning har tomonlama yetuk ma'naviyatli, malakali, yuqori darajada kasb ko'nikmasiga ega kadr bo'lib yetishishida, avvalambor, vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kasbiy madaniyati yuqori, professional tayyorgarlik va insoniy prinsiplarga ega harbiy xizmatchi shubhasiz vatan va xalq oldida o'zining chinakam vazifasini og'ishmay mas'uliyat bilan bajara oladi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirish debochasi esa avvalo oila, so'ngra ta'limdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии/ Санкт-Петербург [и др.] (Мастера психологии). СПб.: Питер, 2015. - 705 с.
- 2.Ребер А. Большой толковый психологический словарь. – Москва.: Аст; Вече, 2001.-Т. 1. – 592 с.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya I-kitob. – Toshkent: Universitet, 2002. 84 b.
4. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya II-kitob. – Toshkent.: «Universitet», 2002. – 123 b.
- 5.Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya va pedagogika. // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Zarqalam, 2004. 63 b.

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BOTANIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH



**M.A. Farmonova**  
**Buxoro davlat pedagogika instituti**  
**o'qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda mobil ilovalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi biologik fanlarni, xususan, botanika kursini zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida mavjud mobil ilovalar, ularning o'quv jarayonidagi funksional imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi o'rganildi. Botanikaga oid mobil ilovalar orqali laboratoriya mashg'ulotlari, o'simliklar tasnifi, morfologiyasi va ekologiyasini virtual tarzda o'rganish bo'yicha yangi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, fan mazmunini vizual va interaktiv usullarda o'zlashtirish samaradorligi tahlil qilindi. Mobil ilovalarni dars jarayonlariga integratsiyalash tajribalari o'tkazilib, ularning natijalari asosida metodik ko'rsatmalar ishlab chiqildi. Ushbu maqola oliy ta'limda biologiya fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, ta'lim sifati va talabalarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** mobil internet, mobil qurilma, mobil ta'lim, mobil texnologiya, analiz, sintez, abstraktlashtirish, konkretlashtirish.

**Annotation.** This article analyzes the improvement of methodologies for using mobile applications in teaching botany in higher education institutions. The rapid integration of digital technologies into the educational process requires the modernization of teaching methods, particularly in natural sciences like botany. The study examines existing mobile applications, their functional features, and pedagogical effectiveness in supporting the learning process. Innovative methodological recommendations have been developed for using mobile tools to study plant taxonomy, morphology, and ecology in virtual formats. Special attention is paid to enhancing students' independent learning skills and improving knowledge retention through visual and interactive approaches. Experimental integration of selected mobile applications into practical lessons was conducted, and the results were used to develop methodological guidelines. The findings demonstrate that mobile-assisted instruction not only increases student engagement and motivation but also improves the quality of learning outcomes. This article contributes to the digital transformation of biological sciences education in Uzbekistan and supports the application of advanced pedagogical technologies in higher education.

**Keywords:** mobile Internet, mobile device, mobile education, mobile technology, analysis, synthesis, abstraction, concretization.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования методики использования мобильных приложений при преподавании ботаники в высших учебных заведениях. Быстрое внедрение цифровых технологий в образовательный процесс требует модернизации подходов к обучению, особенно в естественно-научных дисциплинах. В исследовании проанализированы существующие мобильные приложения, их функциональные возможности и педагогическая эффективность. Разработаны методические рекомендации по использованию мобильных инструментов для виртуального изучения систематики, морфологии и экологии растений. Особое внимание уделено формированию у студентов навыков самостоятельного обучения, а также повышению усвоения учебного материала за счёт визуализации и интерактивности. Проведены экспериментальные занятия с интеграцией мобильных приложений, по результатам которых разработаны методические указания.

Полученные результаты подтверждают, что применение мобильных технологий в обучении способствует повышению мотивации студентов и качества образовательного процесса. Работа ориентирована на поддержку цифровой трансформации биологического образования в Узбекистане.

**Ключевые слова:** мобильный Интернет, мобильное устройство, мобильное образование, мобильные технологии, анализ, синтез, абстракция, конкретизация.


Mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini yanada oshirish, rivojlangan mamlakatlar ta'lim standarti talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga qaratilgan o'qitish jarayonini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Binobarin, tabiiy fanlarni o'qitish sifatini oshirishda "...zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ilmiy-innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"<sup>18</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Natijada, botanika fanining o'quv-uslubiy ta'minoti imkoniyatlarini oshirish orqali talabalarning kafolatlangan bilimlarni egallashni ta'minlovchi texnologik vositalarini mashg'ulotlar jarayoniga joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda[1].

Mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida masofaviy o'qitish shaklining rivojlantirish jarayonlari, modellari bo'yicha A.D.Askarov, U.Sh.Begimqulov, O.J.Bobomurodov, A.Kenjaboyev, J.F.Yo'ldoshev, S.A.Usmonovlar, A.I.Olimov, T.Z.Teshaboyev, S.S. Babadjanov, M.Yu.Eshnazarovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mazkur ilmiy izlanishlarda pedagog kadrlarni tayyorgarligining turli jihatlari, ya'ni innovatsion va pedagog faoliyatga tayyorgarligi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq, oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda mobil ilovalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish muammosi maxsus pedagogik tadqiqot ishi sifatida o'rganilmagan.

Kundan kunga mobil internet ulushi va mobil qurilmalar foydalanuvchilari soni ko'payib bormoqda. Bunday o'zgarishlar butunlay asosli – hozirgi kunda hamma hayotning barcha javhalarida qulayliklarga va mobillikga intilishmoqda. Aloqa vositalari va planshetlarning paydo bo'lishi bilan yo'lga, ish safariga, uchrashuvlarga (ish yuzasidan) va boshqa maqsadlar bo'yicha "noqulay" noutbuklarni yonida olib yurishga hojat qolmadi. Biroq mobil qurilmalar ba'zi maxsus qo'shimchalarsiz – mobil ilovalarsiz unchalik foydasi katta bo'lmas edi. Bu mobil ilovalarni qo'llashning bir necha aspekti hisoblanadi. "Mobil ta'lim" tushunchasi manbalarda quyidagicha izohlangan

Ta'lim sohasida mobil ilovalarning qadri o'sib bormoqda bunga sabab esa u beradigan qulayliklar quyidagilardan iborat. (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Mobil ilovalarning qulaylik darajalari**

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni// "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil, 20-okyabr soni. B.1-2.

**Mobil ta'lim (M-Learning)** – bu vaqt makondan qat'iy nazar mobil qurilmalar orqali o'qish imkoniyatidir.

Mobil ta'lim– bu joylashgan o'rindan yoki o'quvchilarning joylashuvining o'zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o'qishdir.

Demak, o'quv jarayoni tashkiloti uchun zamon va makondan qat'iy nazar mobil ta'lim mobil texnologiyani alohida, hamda boshqa axborot va aloqa texnologiyalari bilan birgalikda qo'llashni nazarda tutadi.

Ta'lim turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin: sinfda yoki sinfdan tashqari paytda o'quvchilar mobil qurilmalar orqali ma'rifiy resurslardan foydalanishga ruxsat olishi, boshqa foydalanuvchilar bilan bog'lanishi mumkin. Mobil ta'lim o'z ichiga ta'lim maqsadiga erishishda zarur bo'lgan chora-tadbirlarni, masalan, ta'lim tizimini samarali boshqarish, ta'lim muassasalari va o'quvchilar oilasi bilan o'zaro aloqani takomillashtirishlarni oladi.

Mobil ta'lim odatda "tarkib bo'yicha yengil" deb hisoblanadi va ko'proq talabalarga audiomateriallar yetkazib berishda, matnli xabarlar almashinuvida, so'rovlarda qatnashishda, matnli chatlarda, konspekt qilish va ko'rishda ishlatiladi (2-rasmga qarag).

### Mobil ta'lim metodikasiga qo'yiladigan asosiy talabalar

**Ixchamlilik** – mobil ta'lim tarkibiy qismlari aloqadagi ehtimolli uzilishlarni inobatga olgan holda davomiylik bo'yicha qisqa bo'lishi lozim

**Mikroergonomikaning yuqori darajadali** – kichik ekranda ovoz va rasmlarning kichik hajmda va yuqori sifatli bo'lishi. Fayllarning kichik hajmdaligi yuklab olishning tezligini ta'minlaydi

**Har joydalik** – mobil o'qitish tarkibidagi materillarni joylashgan joyidan qat'iy nazar xoxlagan joyda olish lozim. Mobil aloqa va mobil qurilmalar ta'minchilarining ulkan qamrovi mobil ta'lim xizmatlaridan har joyda va siz uchun qulay paytda foydalanish imkoniyatini yaratishi maqsadga muvofiq

**Talab bo'yicha foydalanishga ruxsat** –mobil qurilmalar talabalar uchun talab bo'yicha zarur paytda o'zining maksimal yetkazib berish imkoniyatini ishga solib, zaruriy tarkibdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi lozim

### 2-rasm. Mobil ta'lim metodikasiga qo'yiladigan asosiy talablar

Mobil ta'lim – bu faqatgina nazariy ehtimollik emas, ayni mavjud narsadir. Turli davlatlardan anjumanlarda ishtirok etuvchilar va pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng marifiy resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'ladilar, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni

boshqa o'quvchilar bilan bo'lishlari mumkin, hamkasblardan va o'qituvchilardan madad olishlari shuningdek, samarali aloqani yo'lga qo'yishlari mumkin [2].

Mobil texnologiyalar, ta'lim uchun asosiy vosita emas deb topilmasa ham, ular ta'limni yangi darajaga olib chiqaradigan, juda qudratli va hali yetarlicha baho berilmagan (boshqalar orasida) vositadir. [3].

XXI asrda pedagogika fanining rivojlanishida texnologik taraqqiyot bilan yaqin aloqada bo'lish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanishda keng qo'llanilishida namoyon bo'ladi. Bu hodisa zamonaviy pedagogik amaliyotning rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Internet resurslaridan foydalanish har qanday fanni o'qitishning, chet tilini o'rganish jarayonida esa - o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylandi.

"Mobil ta'lim" (m-learning) (mobil ta'lim (m-learning)) atamasi o'qitish va o'qitish jarayonlarida PDA, mobil telefonlar va planshet kompyuterlar kabi mobil va portativ IT qurilmalaridan foydalanishni bildiradi [4].

Mobil ta'lim elektron va masofaviy ta'lim bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati mobil qurilmalardan foydalanishdir. Bu vositalar talabning biologik ko'nikmalarini va qobiliyatlarini istalgan joyda va istalgan vaqtda rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi.

Shuning uchun botanika darslarida mobil qurilmalarga e'tibor bermaslik mumkin emas. Shuni hisobga olib, darsda mobil telefonlar, smartfonlar va planshetlardan qanchalik oqilona va samarali foydalanish mumkin, degan savol tug'iladi. Biroq, o'quvchilar va talabalar o'rtasida mobil telefonlar mavjudligiga qaramay, bilim olish jarayonida mobil ta'limdan yetarlicha foydalanilmayapti. O'z-o'zidan o'rganish, moslashuvchanlik va tezkor ma'lumot mobil ta'limning o'ziga xos belgilaridir.

Botanika fanini o'rganish jarayonida portativ va mobil qurilmalar nafaqat ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlash, balki uzluksiz o'rganish uchun ham qo'llaniladi.

Mobil ta'lim bir qator afzalliklarga ega (1-jadvalga qarang).

1-jadval

№	Mobil ta'limning afzalliklari
1.	o'quv jarayonining chegaralari yo'q, zamonaviy simsiz texnologiyalar (WAP, GPRS, EDGE, Bluetooth, Wi-Fi) tufayli foydalanuvchilar o'rtasida o'quv materiallarini osongina tarqatish imkonini beradi;
2.	ta'limni individuallashtirish;
3.	Treningning vizualizatsiyasi, interaktiv va simulyatsiya ko'rgazmali qurollardan faol foydalanish imkonini beradi;
4.	real vaqt rejimida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi;
5.	qo'shimcha ehtiyoji bo'lgan odamlar uchun ta'lim olish imkoniyatini beradi; - iqtisodiy jihatdan asoslangan shaxsiy kompyuter va qog'oz o'quv adabiyotlarini sotib olishni talab qilmaydi;
6.	multimedia formatida axborotni taqdim etish tufayli materialni yaxshiroq o'zlashtirish va esda saqlashga yordam beradi, o'quv jarayoniga qiziqishni oshiradi;
7.	ma'lum bir joyga va ba'zi hollarda mashg'ulotlar vaqtiga bog'lanmasdan o'qish imkoniyatini beradi;
8.	kompyuter texnikasi bilan jihozlanmagan sinflarda dasturiy ta'minot yordamida ishlarni bajarishga yordam beradi.

Tadqiqotlar davomida biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash kontekstida olimlarning turli nuqtai nazarlari va qarashlari tahlil qilindi. Bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy faoliyati egallash bilan birgalikda tahlil, sintez, umumlashtirish, spetsifikatsiya va abstraksiya kabi intellektual ko'nikmalarni ongli ravishda egallashga mobil ilovalarning alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu tadqiqot doirasida talabalar amaliy texnologiyalarni qo'llashda harakatchanlikka ega bo'lishi va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi asoslab berildi.

Buning natijasida, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining egallashi zarur bo'lgan intellektual ko'nikmalari aniqlashtirildi:

1) analiz: inson faoliyatining turli sohalarida qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarni ilgari noma'lum, ahamiyatsiz, amalda esa foydali va tushunarli talqinini aniqlash;

2) sintez: analiz asosida aniqlangan axborotlarni bir butunga birlashtirish, ixtiyoriy hamda tasodifiy elementlardan yaxlit ob'ekt hosil qilish;


3) abstraktlashtirish: boshqa axborotlarga e'tibor bermagan holda, ma'lum bir mazmunga tegishli bo'lgan axborotlarni ajratib olish, ya'ni ma'lum bir axborotni ixtiyoriy ko'rinishda qabul qilish;

4) konkretlashtirish: abstraktlashtirish asosida hosil bo'lgan axborotlarni aniqlashtirish, umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan axborotlarni aniq ko'rinishga o'tkazish;

5) umumlashtirish: axborotlarning umumiy muhim xususiyatlarini ajratib, bu xususiyatlarga ega bo'lgan axborotlarni umumiy sinfga birlashtirish[10].

